

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI



Qo‘lyozma huquqida

UDK: 338.49; 338.486

YULDASHEV XAKIMBOY YARASHBOYEVICH

MINTAQADA DAM OLISH-HORDIQ CHIQARISH
MASKANLARINI EKOLOGIK-IQTISODIY RIVOJLANISH
OMILLARI VA MEXANIZMLARI

Ixtisoslik: “Turizm” (Xalqaro va ichki)

Turizm mutaxassisligi magistri akademik darajasini olish uchun

DISSERTATSIYA ISHI

Ish ko‘rib chiqildi va himoyaga qo‘yildi

“Turizm” kafedrası mudiri

dots. F.Abdullayev_____

« ____ » _____ 2018 y

Ilmiy rahbar

_____ dots. F.Abdullayev

Ilmiy maslahatchi

_____ dots. Sh.Ro‘zmetov

Urganch – 2018

MUNDARIJA

Magistrlik dissertatsiya ishining tarkibi	Betlar
KIRISH	3
I-BOB. MINTAQADA TURIZM INDUSTRIYASINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI	8
1.1. Madaniy turizm tushunchasi va uning turizmni rivojlantirishda tutgan o‘rni	8
1.2. Dam olish va hordiq chiqarish obyektlari, ularning turlari va muhim vazifalari	15
1.3. Dam olish va hordiq chiqarish maskanlarini tashkil etishning xorij tajribalari	21
I-bob bo‘yicha xulosa	30
II-BOB. DAM OLISH VA HORDIQ CHIQRISH MASKANLARINING EKOLOGIK-IQTISODIY RIVOJLANISH OMILLARI VA XUSUSIYATLARI	31
2.1. Respublikamizda dam olish va hordiq chiqarish maskanlarining bugungi holati tahlili	31
2.2. Respublikamizda dam olish va hordiq chiqarish maskanlarining rivojlanishiga investitsiya kiritish xususiyatlari	40
2.3. Dam olish va hordiq chiqarish maskanlarining rivojlanishida ekologik va iqtisodiy omillarning tutgan o‘rni va ta’siri	48
II-bob bo‘yicha xulosa	57
III-BOB. MINTAQADA DAM OLISH VA HORDIQ CHIQRISH MASKANLARINING EKOLOGIK-IQTISODIY RIVOJLANISH OMILLARIDAN FOYDALANISH YO‘NALISHLARI	58
3.1. Mintaqada dam olish va hordiq chiqarish maskanlarining holati	58
3.2. Mintaqada dam olish va hordiq chiqarish maskanlarining rivojlanishida viloyat tashkilotlarining o‘rni va vazifalari	69
3.3. Mintaqada dam olish va hordiq chiqarish maskanlari faoliyatida ekologik va iqtisodiy omillardan samarali foydalanish yo‘nalishlari va istiqbollari	82
III-bob bo‘yicha xulosa	91
XULOSA VA TAKLIFLAR	92
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI	98

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. O‘zbekistonda turizmni rivojlantirishdagi asosiy vazifa turistlarni Samarqand, Buxoro, Xiva va Shahrisabz kabi qadimgi shaharlaridagi tarixiy obidalar, me‘morchilik, diniy va madaniy yodgorliklar hamda boshqa diqqatga sazovor zamonaviy joylar bilan tanishtirish orqali ularga madaniy-ma‘rifiy ozuqa berish hisoblanadi. Bu holat o‘z navbatida turistik salohiyatning mavjudligi bilan belgilanadi.

Mazkur imkoniyatlarni yuzaga chiqarilishi respublikamizga tashrif buyuradigan turistlar uchun dam olish va hordiq chiqarishni ta‘minlovchi omil bo‘lib, bunda ularga madaniy turizm mahsuloti taklif etiladi. Bevosita ular sayohatga chiqadigan madaniy turizm ixlosmandlari hisoblanadilar. Madaniy turizm tarkibida dam olish va hordiq chiqarish maskanlarini rivojlantirish muhim masala hisoblanar ekan, buning uchun respublikamizdagi uning rivojlanishiga ta‘sir qiluvchi omillarni barataraf etish va boshqa sohalaridagi islohotlarni chuqurlashtirishni taqozo etadi.

Bu borada O‘zbekistonda hududlar iqtisodiyotini rivojlantirish, ijtimoiy infratuzilmani yaxshilash, xizmat ko‘rsatish va servis sohasini kengaytirish bilan birgalikda aholining bandlik darajasi hamda real daromadlarini oshirish lozim bo‘ladi. Mazkur masala bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan 2017 yil 7 fevralda PF-4947-sonli “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar Strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni¹ qabul qilindi va uning negizida 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi ishlab chiqildi. Strategiyaning “Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo‘nalishlari” deb nomlangan 3-yo‘nalishida turizm industriyasini jadal rivojlantirish, eksport faoliyatini liberallashtirish va soddalashtirish hamda turistik salohiyatdan samarali foydalanishni ta‘minlash belgilangan.

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 6-son, 70-modda). Toshkent sh., 2017 yil 7 fevral, PF-4947-son. Manba. www.lex.uz

Darhaqiqat, turizm industriyasini jadal rivojlantirish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan ekan, buni amalga oshirish o'z navbatida mavjud iqtisodiy shart-sharoitlardan kelib chiqqan holda o'sib borayotgan madaniy turizm talablariga miqdor hamda sifat jihatidan javob berish imkoniyatlarini aniqlash, turistlarga taklif etilayotgan milliy turizm mahsulotning boshqa mamlakatlar turizm mahsulotlariga nisbatan raqobatbardoshligini tahlil qilish va izlab topish hamda madaniy turizm resurslaridan kelgusi avlod manfaatlarini ko'zlagan holda barqaror rivojlantirishni taqozo qiladi.

Shu bilan birga, turistik salohiyat katta bo'lgan respublikamizning Xorazm viloyati mintaqasida dam olish va hordiq chiqarish maskanlarini rivojlantirishda ekologik-iqtisodiy rivojlanish omillari va mexanizmlarga alohida e'tibor qaratish lozim. Chunki, mazkur omil va mexanizmlar asosida ayrim ekologik muammolarning paydo bo'lish holatlariga barham beriladi, tabiat va ochiq hududlarga bo'lgan turistlarning oqimlari yanada ko'payadi, turizmning yangi zamonaviy turlari bo'lgan qishloq, agro, fermer va dehqonchilik turizm turlari keng rivojlanadi hamda umuman olganda turizm yuqori daromad olishga erishiladi.

Mazkur imkoniyatlarni to'liq yuzaga chiqarishni ta'minlash bevosita Xorazm viloyatida dam olish-hordiq chiqarish maskanlarini ekologik-iqtisodiy rivojlanish omillari va mexanizmlarini tadqiq qilishni talab qiladi. Ushbu jihatlar tanlangan tadqiqot mavzusining dolzarligini belgilaydi.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. Mintaqada dam olish-hordiq chiqarish maskanlarini ekologik-iqtisodiy rivojlanish omillari va mexanizmlarini o'rganishga xorijliklardan J.Barlou, J.Bouen, F.Kotler, J.Meykenz, P.Morfi, V.Rays, G.Richards, A.Aleksandrova, I.Balabanov, A.Balabanov, M.Birjakov, N.Voskolovich, A.Durovich, N.Kabushkin, V.Kvartalnov, G.Papiryan, V.Senin, S.Skobkin, A.Chudnovskiy, V.Yankevichlar hissala qo'shganlar.

Respublikamizda dam olish-hordiq chiqarish maskanlarini ekologik-iqtisodiy rivojlanish omillari va mexanizmlari masalalari I.Ivatov, F.Kamilova,

A.Norchayev, B.To‘rayev, N.To‘xliyev, A.Eshtayev, O.Hamidov, M.Pardayev, I.To‘xliyev, S.Ro‘ziyev, D.Usmanova, U.Matyaqubovlar tomonidan o‘rganilgan.

Tadqiqotning obyekti va predmeti. Ish obyekti qilib Xorazm viloyati, predmeti qilib dam olish-hordiq chiqarish maskanlarini ekologik-iqtisodiy rivojlanish omillari va mexanizmlari bilan bog‘liq ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar olindi.

Tadqiqotning maqsadi va vazifalari. Ishning maqsadi Xorazm viloyatida dam olish-hordiq chiqarish maskanlarini ekologik-iqtisodiy rivojlanish omillari va mexanizmlarini takomillashtirish yuzasidan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Ushbu maqsaddan kelib chiqib, ishning **vazifalari** quyidagilardan iborat:

- madaniy turizm tushunchasi va uning turizmni rivojlantirishda tutgan o‘rnini ko‘rsatib berish;
- dam olish va xordiq chiqarish obyektlari, ularning turlari va muhim vazifalarini ochib berish;
- dam olish va hordiq chiqarish maskanlarini tashkil etishning xorij tajribalarini tahlil qilish va xususiyatlarini yoritish;
- respublikamizda dam olish va hordiq chiqarish maskanlarining bugungi holati tahlilini yoritib berish;
- respublikamizda dam olish va hordiq chiqarish maskanlarining rivojlanishiga investitsiya kiritish xususiyatlariga to‘xtalib o‘tish;
- dam olish va hordiq chiqarish maskanlarining rivojlanishida ekologik va iqtisodiy omillarning tutgan o‘rni va ta‘sirini aniqlash;
- mintaqada dam olish va hordiq chiqarish maskanlarining holatini tadqiq qilish;
- mintaqada dam olish va hordiq chiqarish maskanlarining rivojlanishida viloyat tashkilotlarining o‘rni va vazifalarini ochib berish;
- mintaqada dam olish va hordiq chiqarish maskanlari faoliyatida ekologik va iqtisodiy omillardan samarali foydalanish yo‘nalishlari va istiqbollari ko‘rsatib berish.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi bo‘lib quyidagilar hisoblanadi:

- madaniy turizm tushunchasiga berilgan takomillashgan ta’rif va yondashuvlarning ishlab chiqilganligi;
- dam olish va hordiq chiqarish obyektlari, turlari va vazifalarining mustaqil talqin qilinishi;
- dam olish va hordiq chiqarish maskanlarining rivojlanishiga investitsiya kiritish bo‘yicha ustuvor yo‘nalishlarning ishlab chiqilganligi;
- Xorazm viloyati mintaqada dam olish va hordiq chiqarish maskanlari faoliyatida ekologik va iqtisodiy omillardan samarali foydalanish yuzasidan ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar.

Tadqiqotning ilmiy-amaliy ahamiyati. Ishda amalga oshirilgan izlanishlar va taklif etilgan g‘oyalar mintaqada dam olish va hordiq chiqarish maskanlarining ekologik-iqtisodiy rivojlanish omillaridan samarali foydalanishga imkoniyat yaratadi. Ayniqsa, berilgan taklif va xulosalardan respublikada dam olish va hordiq chiqarish turizm faoliyatini tashkil qilishda va uni rivojlantirish dasturlarini qabul qilishda keng foydalanish mumkin. Shuningdek, “Turizm: nazariya va amaliyot”, “Tadbirlarni tashkil etish”, “Ekologik turizm” va “Turizm va mehmonxona xizmatlari iqtisodiyoti” fanlarini o‘qitishda keng foydalanish mumkin.

Tadqiqotning nazariy-uslubiy asosi bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi Qonunlari, Prezident farmonlari va asarlari, Vazirlar Mahkamasi Qarorlari, iqtisodiy adabiyotlar, internet saytlari va statistik ma’lumotlar, shuningdek dam olish va hordiq chiqarish turizmi sohasiga bag‘ishlangan manbalar xizmat qiladi.

Tadqiqot metodlari. Tadqiqot davomida abstrakt-mantiqiy, monografik, hisob-kitob va konstruktiv, iqtisodiy-statistik, taqqoslash, prognozlash, indeksli va qiyosiy tahlil, SWOT tahlil usullaridan keng foydalanildi.

Tadqiqotning sinovdan o‘tishi. Dissertatsiya ishi Urganch davlat universiteti turizm va iqtisodiyot fakulteti “Turizm” kafedrasida qoshidagi ilmiy-nazariy seminarlarida muhokama qilingan va himoyaga tavsiya etilgan.

Tadqiqot approbatsiyasi. Tadqiqot natijalari 2 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida ma’ruza va tezislar ko‘rinishida bayon qilingan va

ma'qullangan. Xususan, 2018 yil 10 martda Urganch davlat universitetida o'tkazilgan "Fan-ta'lim integratsiyasi va innovatsion g'oyalar" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy seminarida hamda "Dam olish va hordiq chiqarish maskanlaridan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari" mavzusida "Iste'dod ziyosi" magistrantlar ilmiy ishlari to'plamida chop qilingan.

Magistrlik dissertatsiyaning tarkibi. Ushbu ish kirish, 3 ta bobdan iborat 9 ta paragraf, xulosa va takliflar va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati qismlaridan iborat.

Ishning I-bobi "Mintaqada turizm industriyasini rivojlantirishning nazariy-uslubiy asoslari" deb nomlanib, unda madaniy turizm tushunchasi va uning turizmni rivojlantirishda tutgan o'rni, dam olish va xordiq chiqarish obyektlari, ularning turlari va muhim vazifalari hamda dam olish va hordiq chiqarish maskanlarini tashkil etishning xorij tajribalari yoritilgan.

Ishning II-bobi "Dam olish va hordiq chiqarish maskanlarining ekologik-iqtisodiy rivojlanish omillari va xususiyatlari" deb nomlanib, unda respublikamizda dam olish va hordiq chiqarish maskanlarining bugungi holati tahlili, respublikamizda dam olish va hordiq chiqarish maskanlarining rivojlanishiga investitsiya kiritish xususiyatlari hamda dam olish va hordiq chiqarish maskanlarining rivojlanishida ekologik va iqtisodiy omillarning tutgan o'rni va ta'siri ko'rsatib berilgan.

Ishning III-bobi "Mintaqada dam olish va hordiq chiqarish maskanlarining ekologik-iqtisodiy rivojlanish omillaridan foydalanish yo'nalishlari" deb nomlanib, unda mintaqada dam olish va hordiq chiqarish maskanlarining holati, mintaqada dam olish va hordiq chiqarish maskanlarining rivojlanishida viloyat tashkilotlarining o'rni va vazifalari hamda mintaqada dam olish va hordiq chiqarish maskanlari faoliyatida ekologik va iqtisodiy omillardan samarali foydalanish yo'nalishlari va istiqbollari ko'rsatib berilgan.

I-BOB. MINTAQADA TURIZM INDUSTRIYASINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI

1.1. Madaniy turizm tushunchasi va uning turizmni rivojlantirishda tutgan o‘rni

Ma'lumki, turizm hodisa sifatida mutlaqo dam olish deb ongimizga singib ketgan an'anaviy tasavvurlarga sig'maydi. 1991 yilda Kanadaning Ottava shahrida bo'lib o'tgan Butunjahon turistik tashkiloti sayohat va turizm statistikasi bo'yicha konferensiyada konsepsiya sifatida talablar yo'nalishi tanlandi va turizm quyidagi belgilanish nomini oldi: Turizm - odatdagi muhitdan tashqarida dam olish, ishga aloqador va boshqa maqsadlarda bir yildan ko'p bo'lmagan davrda bo'lgan sayohat va joylarda bo'lishni amalga oshirgan shaxs faoliyatidir.

Turizm mustaqil soha bo'lib, unga oid bo'lgan turizm industriyasini rivojlantirishda turizmning turlari muhim o'rinni egallaydi. Ularning ichidan eng muhimi madaniy turizm hisoblanadi. Madaniy turizm bo'lishi uning unsuri bo'lgan madaniyat shakllangan bo'lishi lozim. Ya'ni, madaniyat tushunchasi "mustahkamlash yoki rivojlantirish va etishtirish" degan ma'noni bildiradi. Bu atama kishilar faoliyatiga qandaydir faollik bo'lib uslublar ramzini ta'kidlaydi. Madaniyat deganda jamiyatda barcha tomonidan qabul etiladigan qadriyatlar, an'analar, fikrlar va ustuvor tushunchalar tizimi tushuniladi.²

Darhaqiqat, madaniyat millat tarixi, hudud yoki odamlar guruhi va an'analar, urf-odatlar, san'at, mehnat, arxitektura, musiqa va rassomchilik deb ham talqin qilinadi. Amaliy madaniyat kishilarga qoidalar yo'nalishi, ma'lumotlarga munosabatda bo'lish va ularga uchrashuvlarda foydalanish uchun zarur tushunchalarni yetkazadi. Madaniyatning istiqbolida uncha katta bo'lmagan turlicha tushuncha va muhim qarashlarni ko'rsatadi. Madaniyat quyidagi xususiyatlarni o'zida ifoda etadi:

- insoniy muhit;
- ijtimoiy-madaniy meros va an'analar;
- hayot yo'li;

² Aliyeva M.T., Norchayev A.N. Turizm menejmenti. O'quv qo'llanma. - T.: TDIU, 2007. - 131 b.

- xulq-atvor va odob;
- ijtimoiy hayot qonun-qoidalar;
- kiyinish va ko‘rinish;
- ovqat va ovqatlanish odatlari;
- o‘zligini anglash;
- aloqalar;
- baholash va me‘yorlar;
- fikr va munosabatlar;
- o‘ylash va biror narsani bajarish yo‘llari;
- ishlash va ishdan bo‘sh vaqtlardagi ko‘nikmalar;
- vaqt;
- kognitiv bilimlar;
- aqliy taraqqiyot jarayoni va o‘rganish;
- ma‘lumotlar va munosabatlar;
- ramzlar va ifodalar;
- tushunchalar;
- kishilar o‘rtasidagi o‘xshashlik va farqlar.

Chunki, respublikamizda vatan ravnaqi va yurt farovonligi yo‘lida faol bo‘lish va tashabbus ko‘rsatish istagi bilan yashayotgan zamondoshlarning sa’y-harakatlari tufayli jamiyat keng rivojlanmoqda. Ayniqsa, istiqlol tufayli ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan boy ma‘naviy va madaniy merosimizni qayta tiklash hamda asrab-avaylash orqali mavjud turizm salohiyatini yanada yuksaltirishga alohida e’tibor berila boshlandi.

Natijada, moziy sinoatiga boy bo‘lgan tarixiy obidalar va qadimiy ziyoratgohlar obodonlashtirilib, yurtimiz va xorijiy sayyohlarning e’tiborini tortmoqda. Bular bevosita turizmning shakllanishi haqida moddiy madaniyat yodgorliklari yoki qoyadagi naqshlar, monumental haykallar, bareleflar, haykalchalar, shuningdek yozma manbalar, o‘zbek xalqining musiqa merosining ashula hamda raqs va kiyimlarning qadimiy manbalari ekanligidan guvohlik beradi. Ularning O‘rta Osiyo xalqlari hayotidagi muhim roli xaqidagi ma‘lumotlar

miloddan avvalgi 5 asrda Yunon olimi Gerodot tomonidan yozib qoldirilgan. Mazkur manbalar bugungi kunda madaniy turizmni rivojlantirishga qaratilgan unsurlardan biri bo'lib hisoblanadi.

Ammo, madaniy turizmning rivojlanishi uchun xizmatlar sohasi takomillashtirilib, bunda xizmatlar bozori rivojlandi. Ularga oid bo'lgan hududlarda xizmatlar sohasini rivojlantirish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 17 maydagi "Xizmat ko'rsatish va servis sohasini 2006-2010 yillarda rivojlantirish to'g'risida"gi 325-sonli va 2007 yil 21 maydagi "O'zbekiston Respublikasida 2010 yilga qadar xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirishni jadallashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 640-sonli qarorlari qabul qilindi.

Shuningdek, O'zbekistonda madaniy mazmundagi xalqaro turizmni yanada jonlantirish maqsadida 1995 yilning oktyabr oyida Toshkent shahrida "Buyuk Ipak yo'li bo'ylab turizm" deb nomlangan birinchi xalqaro turistik yarmarka o'tkazildi. Ushbu yarmarkalarda tuzilgan shartnomalar xalqaro turizmni yanada rivojlantirish respublikaning turizmga oid imkoniyatlarini samara bilan ishga solish va "Buyuk Ipak yo'li"ga xos bo'lgan qadimgi an'analarini tiklash borasida keng yo'l ochib beradi.³

Madaniy turizm tushuncha asosida o'z ichiga madaniyat namunalarini oladi. Mazkur turizm madaniy turistik bozor orqali amalga oshiriladi va rivojlanadi. Madaniy turistik bozor madaniy turizmdagi talab va taklif asosida amalga oshiriladigan turistik mahsulot oldi-sotdi bitimlari yuz beradigan joy hisoblanadi. Biroq, bunday savdolar bir joyda kechmaydi. Ya'ni, savdo teleks, telegramma, faks, telefon, sotuvchi va xaridorning bevosita ishtirokisiz amalga oshiriladi. madaniy turizmni tashkil etish va rivojlantirish yotadi.

Darhaqiqat, madaniy turizmning shakllanishi yangi davr tarixiga borib taqaladi. Jumladan, 1985 yilda butunjahon turizm tashkiloti tomonidan "Madaniy turizm o'qish, san'at va madaniy turlari bilan tanishish kabi motivlar bilan

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1995 yil 2 iyunda qabul qilingan PF-1162-sonli Farmoni. // Xalq so'zi, 1995 yil 3-iyun.

harakatlanishi, festival va boshqa madaniy tadbirlarga sayohat qilish, joylar va yodgorliklarga tashrif buyurish, san'at, folklor va tabiatni o'rganish uchun qilingan sayohat hamda ziyoratchilik" deb ta'rif berilgan.

Mazkur ta'rifdan ko'rinadiki, unda asosan sayohat qilish motivlari aniq harakatga keladi hamda bu turistlarning mazkur faoliyatni amalga oshirishga bo'lgan qiziqishlari bilan kechadi.

Shuningdek, 1985 yilda YUNESKO tashkiloti tomonidan "Madaniy turizm – insonlarning shaxslarning xilma-xillikka bo'lgan ehtiyojlarini qondirish, individning madaniy saviyasini ko'tarish, bilimlari va tajribasini oshirish hamda tanishish uchun qilgan barcha harakatlanishlaridir" deb atalgan.⁴ Mazkur ta'rif harakatlar majmuasidan iborat bo'lib, unda turistlarning bilimini yaxshilash maqsadida aniq ishlar olib boriladi.

Shu bilan birga, mutaxassislar K.Bonink va G.Richardslar "Madaniy turizm shaxsning doimiy istiqomat joyidan merosli joylar, san'at va madaniyat ko'rgazmalari, san'at va drama kabi o'ziga xos madaniy jozibadorliklarga harakat qilishidir" deb ta'riflagangan.

Undan tashqari, olimlardan biri S.Medlik aytishicha "Madaniy turizm tarixiy joylar va yodgorliklarga, muzey va galereyalarga, san'at namoyishlariga va festivallarga, jamoalarning hayot tarziga tashrif buyurish kabi madaniy qiziqishlar bilan motivlangan maxsus manfaatli ta'til" hisoblanadi.


Biroq, madaniy turizm mashg'ulotlar kombinatsiyasini o'z ichiga olgan sayohat va tashriflarning madaniy mazmunga ega bo'lgan qismidir.⁵ 2003 yilda butunjahon turizm tashkiloti tomonidan bu yanada kengroq qilib belgilangan: "... madaniyatga beriladigan ta'rif turizmning o'zi singari nihoyatda kengdir. Ba'zi mamlakatlarda yaratilgan meros va san'atdan tashqari, o'zlarining ta'riflariga yana, masalan, sport, ovqatlanish, karnaval, ta'lim, ziyorat, hunarmandchilik, afsonago'ylik va qishloq hayotini kiritadilar"⁶.

⁴ Greg Richards. New directions for cultural tourism. Tourism market trends. 2003 edition. – p.137.

⁵ Elisabeth Kastenholtz, Maria Carneiro, Celeste Eusebio. The impact of socio-demographics on tourist behavior – analyzing segments of cultural tourists visiting Coimbra. University of Aviero, 2004.

⁶ WTO. World overview & tourism topics. Tourism market trends. 2003 edition. – p.25.

Shular asosida madaniy turizmni aniqroq aytadigan bo'lsak, madaniy turizm deganda asosan insonlar tomonidan o'zga xalqlar madaniyati va urf-odatlariga bo'lgan qiziqish asosida amalga oshiriladigan turizm sayohati tushuniladi. Madaniy turizm quyidagi yo'nalishlardagi yo'nalishlarga ega hisoblanadi (1.1.1-rasm).



1.1.1-rasm. Madaniy turizmning asosiy ijobiy yo'nalishlari⁷

Keltirilgan rasmga asosan, madaniy turizm ixlosmandlari turizm manzillari aholisining tarixi, ya'ni arxeologiya, etnografiya va o'lkashunoslik, shuningdek yashash tarzi va kun kechirish shart-sharoitlari hamda milliy hunarmandchilik san'atiga alohida qiziqishlarini bildiradilar. Natijada, qiziquvchilar mahalliy madaniyatni o'zida aks ettiruvchi teatr, muzey, bozor, bayram, konsert va festival o'tkaziladigan joylarga ko'proq kirishga harakat qiladilar.

Ularda mahalliy hayot bilan yaqinroq tanishish istagi kuchli bo'lib, bu tanishish noqulaylik, qiyinchilik yoki xavf-xatarni boshdan kechirish orqali amalga oshirilib, bunda turistlar o'zlarining bunday maqsadlaridan voz kechadilar hamda faqatgina mahalliy aholi vakillaridan gid-tarjimonni vaqtinchalik yollashlari mumkin. Boshqa turistlar esa sayohat tashkilotchiligini to'laligicha tur tashkilotlari turoperatorlariga ishonib topshirishadi.

⁷ Manba: Ro'ziyev S.S. O'zbekiston madaniy turizm bozori va uning istiqbollari. // Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati. – T.: TDIU, 2009.

Shular bilan birga, ma'lum bir hududda madaniy turizmni rivojlantirishda u joyning tarixiy-madaniy resurslarining salohiyati asosiy o'rinni egallaydi. Turistik xizmatda madaniy-tarixiy resurslardan ko'p maqsadlarda foydalanish mumkin hamda madaniy majmualarning jozibadorligi tarixiy va tasviriy baho va foydalanish qulayligiga bog'liq bo'ladi.

Ayniqsa, mavjud resurslardan turizm faoliyatida intensiv foydalanish, ya'ni antropogen yukning oshib borishi natijasida tabiiy turistik resurslarning ifloslanishi va tarixiy obidalarining tez buzilishiga olib keladi. Bularga xos bo'lgan turizmga oid Gaaga deklaratsiyasida quyidagi takliflar bildirilgan:

- turistlarni mamlakat ichkarisida yoki chet elda borgan joylarida madaniy meros va atrof-muhitni saqlash va ularga nisbatan hurmatda bo'lishga o'rgatish hamda targ'ib qilish;
- joylarda turistlarni qabul qilish darajasini aniqlash va me'yordan ortishiga yo'l qo'ymaslik.

Shu bilan birga, bunda madaniy-tarixiy resurslarga moddiy va madaniy turli yodgorliklar majmuasi va ma'lum mintaqaning turistik qiziqish obyektlari hisoblanadi. Chunki, mintaqalarning arxitektura yodgorliklariga boyligi turizmni rivojlanishiga turtki bo'ladi. Ammo, oxirgi paytlarda turistik oqimning oshishi ayrim muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. Ushbu resurslardan turizm maqsadida saqlash uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim:

- mavjud tarixiy joylar, binolar va yodgorliklarni turistik qiziqish obyektlari sifatida qayta tiklash;
- tabiiy resurslarni muhofaza qilishni faollashtirish;
- turistik ehtiyojni qondirish maqsadida atrof-muhitni saqlash va yaxshilashda boshqaruv organlarining ma'suliyatini oshirish.

Avvalo, madaniy turizm turi boshqa turizm turlariga qaraganda ko'proq rivojlanadi. Buning sababi sifatida turizmning madaniy turi- ni rivojlantirish daromadli, turizmning boshqa turlari uchun yaqin orada o'ziga sarflangan mablag'larning qoplashi qiyinroq madaniy turistik mahsulot taklif

etilayotgan viloyatlarda erishilayotgan rentabellik ko'rsatkichlari rekreatsion turizm taklif etilayotgan viloyatlarga nisbatan yirikroqdir.⁸

Madaniy turizm asosida madaniy va maroqli dam olishni tashkil etuvchi omillar yotadi. Bular turistlarning bilim olish, dam olish va shunga o'xshash turli ehtiyojlarini qondirgan va turistning ba'zi faoliyatlarda ishtirok qilishini tashkil etgan omillar hisoblanadi. Mazkur omillarni hisobga olib, O'zbekistonda madaniy turizmni rivojlantirish quyidagi imkoniyatlarga egaligi bilan ajralib turadi:

- sohada olinadigan daromadlarni ko'paytirish uchun asosiy e'tiborni ko'proq turistlarni qabul qilishga qaratish;

- mehmonxonalarda mijozlarga xizmat ko'rsatishning davomiyligini uzaytirish uchun xorijiy turistlarga muhim e'tibor berish;

- sohada xizmat ko'rsatiladigan kishilar sonini oshirish maqsadida mehmonxonalarni takomillashtirib, xonalarning jihozlanishi va xizmatlar darajasini turistlarining talablariga moslashtirib borish;

- O'zbekistonga keladigan turistlar oqimini ko'paytirish hamda respublikamizning xalqaro turistlik markazlaridan biri sifatida mavqeini yuksaltirishda chegara, bojxonadan o'tish, ruxsatnoma olish va boshqa rasmiyatchiliklarni yanada soddalashtirish.

Darhaqiqat, madaniy turizm o'z ichiga insonlarning ko'ngil yozish, hordiq chiqarib dam olishga mo'ljallangan hatti-harakatlarini oladi. Bundan tashkari, bu turizmga ish hamkorlari va uzoqlardagi do'st-qarindoshlar bilan uchrashish kabilar ham kirishsada, amalga oshirilayotgan bunday sayohatlar davomida ham ko'ngilxushlik va hordiq yozishlardan voz kechilmaydi. Shuningdek, madaniy turizm asosida o'zga xalqlarning madaniyati, tarixi, etnografiyasi, arxeologiyasi, folklori va hayot tarzi bilan qiziquvchi turistlarning barcha turdagi amalga oshiriladigan faoliyatlarini qamrab oladi.

Natijada, insonlar o'zga xalqlarning madaniyati bilan yanada chuqurroq tanishish maqsadida mahalliy teatrlar hamda milliy san'at va xalq ijodiyoti namoyish etiladigan joylarga ko'proq e'tibor beradilar. Hattoki, ba'zi bir turistlar

⁸ <http://elib.buxdu.uz>

mahalliy aholi istiqomat qiladigan uylariga mehmon sifatida tashrif buyurishdan voz kechmaydilar va bu bevosita rezidentlarning madaniyati bilan tanishishning eng yaxshi usuli deb hisoblanadi. Bunga xos 2000 yilning sentyabr oyida oldingi “O‘zbekturizm” MK qoshida tashkil etilgan “O‘zturservis” respublika tashqi-iqtisodiy savdo ishlab chiqarish unitar korxonasi mutaxassislari tomonidan turistlarning asosiy maqsadi dunyoni bilish, dunyo xalqlari tarixi, madaniy obidalari bilan tanishish, ularni o‘rganish va aloqaloqalarni yanada mustahkamlash, deb ta’riflandi.

Unda qatnagan mutaxassislarning fikricha, madaniy turizmdan asosiy maqsad dunyo madaniyatini o‘rganish, mintaqalarda yaratilgan insoniy qadriyatlar, me’moriy yodgorliklar bilan tanishish, ulardan zavqlanish, inson yaratgan mo‘‘jizaviy asarlardan ilhomlanish, turli xalqlar madaniyatini qiyosiy o‘rganish, muqaddas diniy ziyoratgohlarni ko‘rish, ulardan ruhlanish, ibodatni bajo keltirish, insoniy burchni ado etish hamda shular orqali insonlar orasidagi madaniy-ma’rifiy aloqalarni yanada rivojlantirish va mustahkamlashdan iborat bo‘ldi.

Umuman olganda, madaniy turizm insonlarning o‘zga xalqlar madaniyatlari bilan tanishishga bo‘lgan qiziqishlariga asoslanadi va har bir turist o‘z ehtiyojlarini belgilangan talablar orqali qondirilishini istaydi hamda madaniy turizmni rivojlantirish imkoniyatlari yaratiladi.

1.2. Dam olish va hordiq chiqarish obyektlari, ularning turlari va muhim vazifalari

Dam olish va hordiq chiqarish maskanlari turistik obyektlar hisoblanib, uning tashkil etish orqali turizm salohiyatni aniqlash mumkin. Bu esa zarur vosita yordamida bajariladi va bu dam olish va hordiq chiqarish obyekti bo‘lib, xususan ular arxeologik va arxitektura inshootlari bo‘lib tanishtirilganda hududlarning geografik joylashishi, xalqaro vaziyat, tarixiy holat, vaqt fazosida madaniyatlarning boshqa sivilizatsiya bilan o‘zaro ta’siri va aloqadorligi ko‘rsatiladi.

Shuningdek, zamonaviy yangi qurilishlar, muhandislarning ustaliklari va sharqiy me’morchilik milliy an’analarini saqlagan holda zamonaviy arxitektura

namunalarini yaratgan va dunyo jamiyatining olqishiga sazovor bo'lgan pardoziy ustalar to'g'risidagi bilishni taqozo etadi. Bular qatoriga ma'muriy, madaniy, yashash inshootlari, ko'p sonli diniy inshootlar, zamonaviy shaharning chiroyini oshiruvchi, qayta tiklangan qadimiy va o'rta asr me'morchilik yodgorliklari bilan garmonik boglangan transport arteriyalari, ko'priklar va bozorlarni ham kiritish mumkin.

Avvalo, 4000 tadan ortiq qadimiy yodgorligi bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Buyuk ipak yo'l trassalarida tashkil topgan, rivojlangan, o'zgargan, o'ziga dunyodagi eng yaxshi va ilg'or fikrlarni olib yangilangan va dunyo sivilizatsiyasiga o'zining betaklif bilan kirgan murakkab ijtimoiy, xo'jalik-iqtisodiy va madaniy majmua sanaladi.

Shu bilan birga, o'zbek xalqining qadimiy va zamonaviy madaniyati yonma-yon bo'lib, milliy an'analarining beo'xshovligini jahon gumanistik madaniyati va umuminsoniy qadriyatlar bilan birligini aks ettirgan tarixiy-arxeologik va arxitektura yodgorliklarida o'z aksini topadi. Chunki, ko'p millatli jamiyatning an'anasi avlodlardan avlodga uzviy takomillashtirilib, dunyo hamjamiyatlarini madaniyat va milliy merosga tortadi.

Shuning uchun ham, O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov O'zbekiston Respublikasining hukumati O'zbekistonda turizmni rivojlantirish masalalari, beo'xshov tarixiy va madaniy merosga jamiyatning diqqatini jalb etishga katta ahamiyat bermoqdalar.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, dam olish va hordiq chiqarish obyekti obyekt turistlarni qaysidir jihatlari bilan jalb etayotgan resurslarning joylashgan joyi yoki korxonasi hisoblanadi. Bunda insonning bevosita ishtirokisiz, ya'ni tabiiy-iqlim, manzaralar, suv olami, flora va fauna va ishtiroki bilan yoki sun'iy-turli bino va inshootlar, tarixiy voqealar bo'lib o'tgan joylar, korxonalar, suvenirilar va madaniyat ko'rinishidagi turistik jozibadorlik yaratiladi. Hamda insonlarning madaniy o'ziga xosligi va mehmondo'stlik darajalari turistik jozibadorliklarning muhim qismiga aylanadi.

Shunisi muhimki, turistik yoki dam olish va hordiq chiqarish obyektlari quyidagi guruhlariga ajratiladi:

- mikromanzillar. Bu qandaydir bir turistik resurs yoki bir-birini to'ldiruvchi resurslar turkumiga ega bo'lgan joy yoki korxona.

- makromanzillar. Bu bir necha mikromanzil yig'indilari.

Avvalo, bir makromanzil ichiga kiruvchi mikromanzillarning barchasi bir-birini to'ldirib borishi yoki takrorlashi, hech bo'lmasa, biror-bir umumiy mazmunga ega bo'lishi lozim. Aks holda, biror makromanzil ichida bir-biri bilan umuman bog'lanmagan ikki turdagi mikromanzillar bo'lganda, bu makromanzilni ikki alohida makromanzillarga ajratish mumkin bo'ladi. Bu erda bir nuqtai nazardan qaralganda makromanzil deb sanalgan manzilning o'zi boshqa nazar bilan qaralganda mikromanzil darajasiga ega bo'lib qoladi.

Dam olish va hordiq chiqarish obyektlari infratuzilma obyekti ham hisoblanadi. Bu borada O'zbekistonda turizm infratuzilmasining rivojlantirishda barcha infrastruktura obyektlarini jahon andozalariga etkazib, turistlar talabini qondirish kerak.⁹ Buning uchun, turizm infratuzilmasining tarkibiy qismlari bo'lgan mehmonxona, transport, oziq-ovqat, dam olish, davolash va boshqa ko'ngilochar xizmatlarini yuqori darajada ko'tarish kerak.

Dam olish va hordiq chiqarish maskanlari madaniy turizmga tanlanib, unda turist quyidagi maqsadlarda sayohat qiladi:

- sog'lomlashtirish (kurortda dam olish va davolanish tavsifidagi sog'lomlashtirish guruhlari);

- o'rganish (ekskursiya dasturli turlar, muzeylarga tashrif buyurish, diqqatga sazovor joylarni ko'rish hamda madaniy chora-tadbirlarda faol ishtirok etish);

- sport turlari (nokasbiy sport turlari bo'lib hisoblangan piyoda, ot, suv, chang'i, velosiped, suv osti suzish va boshqa suv sporti, baliq ovlash, ov va boshqalar, shuningdek sport musobaqalarida qatnashish maqsadida taqdim etilgan turlar).

⁹ Ibadullayev N.E. Xorijiy turistlarga turistik xizmatlarni tashkil etish. Ma'ruzalar matni. – Samarqand: SamISI, 2011. - 162 b.

Ayniqsa, turizmni rivojlantirishda mamlakatning diqqatga sazovor joylari faoliyatini kengaytirish muhim bo'lib, buning uchun tarixiy va zamonaviy arxitektura obyektlari ahvolini saqlash har bir kishining burchiga aylangan. Xususan, Samarqand, Buxoro, Xiva va Toshkent shaharlarida turizm uchun maxsus ochiq iqtisodiy hududlarni tashkil qilish bo'yicha qonunlar ishlab chiqilib, amalda joriy etilsa, tarixiy obidalarni rekonstruksiyalashga jiddiy e'tibor beriladi.

Ular mamlakatning buyuk o'tmishi, allomalari va unutilmas tarixidan dalolat beradi. Turizm sohasida turistik obyektlar qatoriga mehmonxonalarni kiritish mumkin bo'ladi. Mehmonxonaning har bir kompleksi yoki alohida turgan binolari inventar obyekti hisoblanib, turistik tashkilotning hisobi va pasportida qayd etiladi.

Shu bilan birga, turistik tashkilotlar va ularning yordamchi xo'jaliklardagi inventar inshootlari suv nasosli stansiya, artezan qudug'i, turli xildagi suv, mazut, benzin, yonilg'i moddiylar uchun sig'implar, idishlar, fontanlar, yordamchi to'siqlar, kanalizatsiyadagi tindirish, filtrlash, tozalash joylari, qurilmalari, sport maydonchalari, tennis korti, qayiq stansiyasi, attraksionlar, yo'lakchalar, haykallar, yodgorliklar va to'siqlar kabilar kiradi. Ularning har doim ishga yaroqli bo'lishi mehmonxona holati hamda unda bajariladigan barcha xizmat ko'rsatish jarayonlarini yaxshilaydi.

Umuman olganda, turizm sohasidagi dam olish va hordiq chiqarish obyektlari, ularning rivoji va ta'minlashiga davlat tomonidan doimo e'tibor berilib kelinmoqda. Davlatning asosiy kapital qo'yilmalari turizm sohasi rivojining zaxirasi hisoblanadi. Xususan, bu borada Buxoro va Xiva shaharlarining 2500 yilligini nishonlash jarayonida 100 tadan ortiq turizm obyektlarini ta'mirladi va zamonaviy ko'rinishga keltirdi.

Umuman olganda, dam olish va hordiq chiqarish obyektlarini o'rganishga qaratilgan turizmning turlarini belgilashda O'zbekiston uchun qulay usulni qo'llash belgilangan. Xususan, bu borada turizmni rivojlantirishga jadal kirishilib, ularga keladigan turistik oqimlarga qarab turli guruhlariga ajratiladi. Ya'ni, turistik resurs salohiyatiga ko'ra respublikamizda turizmning asosiy turlarini rivojlantirish mumkin va ular qiziqish sifatida asosiy turlar bo'lib qilinadi (1.2.1-jadval).

1.2.1-jadval

O'zbekistonda dam olish va hordiq chiqarish industriyasida turizmning asosiy turlari¹⁰

№	Turlar	Ularning asosiy xususiyatlari
1	diniy	islom dini olamidagi mashhur kishilarning qabrlarini ziyorat qilish hamda Makka, Madinaga haj va umra safarlari bo'lib, unda Buxoro, Samarqand va Shahrisabz shaharlariga kelib masjidlarda "juma" namozlarini o'qishdir
2	tarixiy obidalar	Buxoro, Xiva, Samarqand, Shahrisabz va Toshkent shaharlari va respublika tumanlaridagi obidalarni ko'rishga qiziqishdir
3	ekologik	vatanimizning go'zal tabiat mintaqalari, noyob o'simliklar olami va hayvonot dunyosi, to'rt faslning iqlimiy xususiyatlarini ko'rishga qiziqishdir
4	arxeologik	Samarqand, Buxoro va Xorazm viloyati shaharlarining qoldiqlari, qadimiy qal'alar xarobalari va ko'hna qadimiy Markaziy Osiyo xalqlarining hayoti haqidagi arxeologik topilmalarga qiziqishdir
5	sport	xalqimizning jahon bo'yicha ommaviylashayotgan milliy kurash, tennis, futbol, chang'i sporti, boks va boshqa musobaqalariga qiziqishdir
6	sog'lomlashtirish	sog'lomlashtirish markazlari, kurort va sanatoriya, mineral, shifobaxsh suvlari maskanlari, shifobaxsh qum-balchiqlari va ma'danli suvlari manzillarida davolanishga qiziqishdir
7	rekreatsion	tabiat bag'ridagi mo'jizakor go'shalar, tog' o'rmonlaridagi shifobaxsh daraxtlar ichida tabiiy sharsharalar va zilol buloqlar yonida vaqtinchalik dam olishga qiziqishdir
8	ovchilik	respublikamizda ov qilishning huquqiy-qonuniy me'yorlarini yaratilganlik, ovchilik maydonlarining katta hududlarni egallash, ovchilik obyektlari aniqligi va ovda harakatlanish

¹⁰ Manba: Hayitboyev R., Sattarov A. Turizm marshrutlarini ishlab chiqish texnologiyasi. Ma'ruzalar matni. – Samarqand, 2009. - 21 b.


		erkinligidan qurol va quolsiz ovchilikka qiziqishdir
9	kasbiy faoliyat	kasbiy faoliyat yuzasidan chet davlatlarga borish, chet elliklarning respublikamizga kelishi, tijoratchi, tadbirkor, savdogar va qo'shma korxonalar tuzuvchilarning mamlakatlardagi o'z kasbi faoliyati doirasida malaka oshirish, mahsulotlar, asbob-uskunalar va zamonaviy texnologiyalarni sotib olish yoki tanishishga qiziqishdir
10	ilmiy	vatanimiz va xorijda talim olish, xalqaro miqyosdagi ilmiy markazlarda o'qish, yirik universitetlarda ilmiy-amaliy malakalarini oshirish, ilmiy-amaliy konferensiyalar, simpoziumlarga qatnashish, grant loyihalarni bajarish, magistraturani xorij va vatanimizda o'tkazishga qiziqishdir
11	savdo	o'z navbatida vatanimiz va xorijda faqat savdogarchilik masalalari, mol olib kelish va olib ketish, ayirboshlash, savdo markazlari ochish, narx-navo o'zgarishi, valyutalar bahosi, yangi bozorlar va xaridor talab mollar savdosiga qiziqishdir
12	ijtimoiy	davlat tomonidan yoki shaxs ishlab turgan korxona hisobidan sayohatga chiqish, sog'lomlashtirish, dam olish maskanlari, kurort va sanatoriyalarga borishga qiziqishdir
13	ekskursiya yoki tanishuv	mamlakat ichkarisida rivojlanadigan yakka shaxs yoki guruh bo'lib, tashabbuskor ishtirokida qisqa muddatlarda o'lkashunoslik, tarixiy, madaniyat muzeylari, botanika bog'lari, zavod-fabrikalar ish faoliyati, yaqin masofalardagi oromgohlar, tabiiy landshaftlar, hayvonot bog'lari hamda suv va daryo havzalarini ko'rishga qiziqishdir
14	shahar-sozlik	o'z vatani va xorij davlatlaridagi shaharlarni ko'rishga qiziqish bo'lib, unga Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xiva va Shahrisabz shaharlardagi yangi obidalar va yangi tipda kengaytirilgan shaharlar, ayniqsa Navoiy, Zarafshon va Uchquduq shaharlariga qiziqishdir

Yuqorida qayd qilingan turizm turlari respublikamizda talablar darajasida rivojlanadi. Chunki, bu turizm turlari turistlarning qiziqishlari haqida batafsil ma'lumotlar etarli bo'lib, ularning turistik resurslari, obyektlarining xilma-xilligi, mazmundorligi, diqqatga sazovorligi, ulug'vorligi, muqaddasligi, noyobligi, betakrorligi jihatlari, tariflari shiddatli ravishda televidenie va internet axborotlar tizimida reklama qilinmoqda.

1.3. Dam olish va hordiq chiqarish maskanlarini tashkil etishning xorij tajribalari

Bugungi kunda turizm industriyasini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilib, mazkur sohaning rivojlanishi natijasida transport, bozor infratuzilmasi, savdo-sotiq, oziq-ovqat tarmoqlari, qurilish, hunarmandchilik va boshqa xizmat ko'rsatish tarmoqlari barqaror rivojlanadi. Biroq, bugungi kunda sohada madaniy va dam olish xizmatlari asosiy o'rinni egallab, uni amalga oshirish uchun dam olish va hordiq chiqarish maskanlarini samarali tashkil etish lozim.

Chunki, insonning yaxlitligini rivojlantirish zarurati ortib bormoqda, yani bir avlod oldingi yillar bilan solishtirganda stress darajasi juda yuqori bo'lib bormoqda. Dam olish kishilar bilan birga xursand bo'lish va uzoq munosabatlarni shakllantirishga imkon beradi va stressdan halos qiladi. Shu bois, dam olish bu muhitni yaratishga intiladigan jarayondir. Dam olish yo'nalishlari quyidagi qismlardan tarkib topadi (1.3.1-rasm):



1.3.1-rasm. Dam olishning asosiy yo'nalishlari¹¹

¹¹ Manba: Matyaqubov U. Xalqaro turizm: tajriba va amaliyot. O'quv-uslubiy majmua. – Urganch, 2017.

O'z navbatida madaniy va dam olish xizmatlari sayyohlik-ekskursion hamda sanitariya-sog'lomlashtirish xizmatlari guruhlariga bo'linadi.

Sayyohlik-ekskursion xizmatlari mavjud turistik firmalar tomonidan oshirilib, uni ko'rsatish bo'yicha servis xizmatlari jozibador geoiqlimiy sharoitlar mavjud bo'lgan joylar va sayohat jarayonida iste'molchilarga dam olishlari uchun yetarli imkoniyatlarni ta'minlaydi hamda sayyohlik ko'rinishida amalga oshiriladi. Ya'ni, bunda sayyohlik fuqarolar o'zlarining doimiy yashash joylari, sog'lomlashtirish, o'rganish, kasbiy ish yuzasi, sport yoki boshqa maqsadlarda vaqtinchalik chiqishi bo'lib, unda ko'rsatiladigan xizmatlar iste'molchilarga quyidagi yo'nalishlar orqali taklif qilinadi:

- sog'lomlashtirish (kurortda dam olish va davolanish tavsifidagi sog'lomlashtirish guruhlar);

- o'rganish (ekskursiya dasturli turlar, muzeylarga tashrif buyurish, diqqatga sazovor joylarni ko'rish hamda madaniy chora-tadbirlarda faol ishtirok etish);

- kasbiy-ish (majlis, konferensiya, kongress, savdo yarmarka va ko'rgazma ishlarida qatnashish, konsert, ma'ruzalarda chiqish qilish, kasbiy chora-tadbirlarda qatnashish, shartnoma tuzish bo'yicha muzokaralarda ishtirok etish, o'rganish va tadqiqot faoliyati, maxsus kurslarda qatnashish va hokazolar);

- sport turlari (nokasbiy sport turlari bo'lib hisoblangan piyoda, ot, suv, chang'i, velosiped, suv osti suzish va boshqa suv sporti, baliq ovlash, ov va boshqalar, shuningdek sport musobaqalarida qatnashish maqsadida taqdim etilgan turlar);

- diniy (haj maqsadlari, diniy tadbirlarda ishtirok etish va qadrli joylarga tashrif buyurish marshrutlari).

Biroq, respublikamiz hududlaridagi sayyohlik mavsumi bir-biriga to'la mos kelmaydi. Bunday holatda halqaro sayyohlik tizimida sayyohni jo'natuvchi va uni qabul qiluvchi tomonlar mavjud bo'ladi hamda sayyohlikning o'zi o'z navbatida ichki, kiruvchi, chiquvchi va mustaqil turlarga bo'linadi. Ushbu xizmat turiga ixtisoslashgan servis tashkilotlari sayyohlik-ekskursion xizmat ko'rsatishni taklif

etadilar hamda ular asosan aholi va xorijiy fuqarolarning sayyohlik-ekskursion xizmatlarga bo'lgan talablarining qondirilishiga yo'naltiriladi.

Avvalo, mazkur xizmatlarni ko'rsatish uchun animatsiya zarur bo'lib, bu bo'sh vaqtni o'tkazish uchun mo'ljallangan maxsus dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish faoliyati hisoblanadi. Animatsiyada tadbir shaklida turistlar tomonidan faol ishtirok etish ko'zda tutiladi va ularni ko'rgazmalarda "jonlantirilgan" tarixiy shaxslar kutib oladilar yoki kechqurun mehmonxonada turistlarning bevosita faol ishtirokida "shou"lar utkaziladi.

Animatsiya o'tkazish uchun animatsion dasturlar tuzilib, uning ichiga sport o'yinlari va musobaqalari, raqs kechalari hamda turli madaniy-ma'naviy mashg'ulotlar kiritiladi. Shundan kelib chiqib, turistik industriyadagi animatsiyaning yo'nalishlaridan biri "shou" muzeylari hisoblanib, bunday ko'rgazmada tarixiy davrga xos bo'lgan tirik ko'rgazmalar qatnashadilar. Masalan, AQShning Plimut shahridagi zerikarli va kam tashrif buyuriladigan birinchi ingliz pilgrimlarining muzeyi animatsiya tufayli bugungi kunda eng mashhur milliy "shou"laridan biriga aylangan.

Shvetsiya poytaxti Stokgolmda ochiq osmon ostidagi "Skansen" muzeyi ham butun dunyoga mashhurdir. Bu shved folklor qishloqi bo'lib, u erga Shvetsiyaning barcha mintaqalaridan qadimgi shahar va qishloq uylari keltirilib, qishloq ko'chalarida qiziqarli suvenirlar va xalq hunarmandchiligi namunalari, qishloq aholisini esa qadimgi shved kiyimlarida uchratish mumkin.

Butun dunyoga mashhur parklar bo'lgan "Disneyland" (AQSh va Fransiya), "Port Aventura" (Ispaniya) va Legoparklar (Daniya) kabilarning faoliyati animatsiyaga asoslanadi. Xususan, xorijiy mamlakatlarda dam olish va hordiq chiqarish maskanlarini tashkil etish borasida "Disneyland" tajribasi to'plangan. "Disneyland" hudud sifatida AQShning Kaliforniya shtatidagi Anaxaym ko'ngilochar park bo'lib, Uolt Disney kompaniyasining bo'limlaridan biridir. Uolt Disneyning dastlabki shu turkumdagi parklaridan biri 1955-yilning iyunda ochilgan. Bu yerda Uolt Disneyning multifilm va ertaklari qayta yaratilgan bo'lib, kattalar va bolalar uchun bir xil qiziqarli bo'lgan Uolt Disneyning park haqidagi

g'oyalari ifodasidir. O'zining tashkil qilingan vaqtida "Disneyland" deb nomlangan va 1998-yildan boshlab, "Disneyland" parki deb qayta nomlangan.

Shu nomdagi kurort kompaniyasidan farqli uning tarkibiga Koliiforniya sarguzashtlari parki ham kiradi. "Disneyland" g'oyasi Uolt Disneyga 1930-1940-yillarda qizlari bilan har xil ko'ngilochar parklarga borib yurgan paytida tug'ilgan. Dastlab, multifilm qahramonlari ishqibozlari uchun studiya yonida Berbanda Attraksionlarni joylashtirishni rejalashtirgan. U tez orada bu joyni kichkinaligini tushungan.

1953-yilda u maslahatchi yollab, 65 gektar maydonni Anaxaym yonidan sotib olgan. Keyingi yilda qurilish ishlari boshlangan. Disneyning asosiy konsepsiyasi Uolt Disney qizlari Diana va Sheron bilan Los-Anjelesdagi Griffit bog'iga tashrif buyurgan paytida tug'ilgan. Karuselda ularni kuzata turib, Disney bolalar otalonlari bilan kelib dam olib, hordiq chiqaradigan joyni tasavvur qilgan. Chunki, Uolt Disneyga 1893-yilga Chikagodagi butunjahon ko'rgazmasi to'g'risidagi otasining xotirasi ta'sir qilgan. Uolt Disneyning otasi aynan shu yerda ishlagan.

Miluey Plezansda turli attraksionlar turli davlatlar tomonidan qo'yilgan bo'lib, insoniyat rivojlanishining barcha davrlarini ifodalagan. Shu jumladan, hudud perimetr bo'yicha aylanuvchi passajir poyezdi va yovvoyi g'arb shousi boshqa ko'tarinkilik bag'ishlovchi manba bo'lib, Benton Xarbordagi "David uyi" kommunasi jannat manbalari bo'lib xizmat qilgan. Michigandagi parkka tashrif buyurgan Uolt Disney bu yerda foydalanmayotgan eski paromlardan birini sotib olgan.

Disneylandning qurilishi 1954-yil 16-iyunda boshlanib, qurilish bahosi 17 mlrd. dollarga tushgan. Park bir yil va bir kundan keyin ishga tushdi. Bu vaqtda "Trassa-101", keyinchalik "Shtatlararo magistral-5" faqat shimolga qarab qurilib boshlagan. 1955-yilning 18-iyunda ochilish va bag'ishlash kuni tashrif buyuruvchilar uchun 23 ta attraksion ochilgan. 1990-yilda "Disneyland" kurort va ko'ngilochar parkga aylantirilgan.

Dastlabki parki tarkibiga yangi savdo va restoran, ko'ngilochar komplekslari, Disney shaharchasi, qayta qurilgan "Disneyland" mehmonxonalari, Koliiforniya

Grand mehmonxonasi va Disney “Pan Pasific” mehmonxonasiga qo`shilgan. Keyinchalik qayta qurilib qayta nomlangan. 2003-yilning so`ngida vitse prezident “Disney Kruiz Line” sobiq prezidenti Mett Oymet Kurortni rahbari etib tayinlangan.

Oymet bir necha yo`nalishlarda ishni boshlab yuborgan hamda kosmetik restoratsiya va infrastrukturani dastlabki remont jadvalini yaratgan. 2006-yilning iyulida Starvord Hotel & Resorsts Word Wide prezidentligi o`rnini egallash maqsadida Mett Oymet Disney kompaniyasidan ketishni ma`lum qilgan. Tez orada ijrochi direktor qilib, Uolt Disney Attraksions Japan ijrochi direktori Ed Grier kurorti prezidenti etib tayinlangan. 2009-yilning oktabrida uning o`rnini Jorj Kologridis egallagan.

Mazkur “Disney olami” parklari haqiqiy amerikacha faoliyat doirasi ko`lamidagi barpo etilgan dam olish va sayr-tomosha qilish industriyasidir. Uning jozibadorligi turistlarni jalb etgan holda uyushtirilgan sayr-tomosha, ovqatlanish, ta`lim berish va o`ziga xos hayot tarzidagi murakkab infratuzilmasidir. Bu butun dunyodan kelgan turistlarning ertalabki, kechki nonushta va boshqa tadbirlarda Uolt Disney kahramonlari bilan birga bo`lishi kechayu-kunduz afsonaviy vaqtga tushib qolish shaklida hissiyot sanaladi.

“Walt disney world” Florida shtatidagi Orlando shahrida joylashgan eng mashhur amerikalik tematik park bo`lib, uning atrofini keyinchalik vujudga kelgan bir qator parklar tizilmasi o`rab turadi. Asosiy parklardan biri “Walt disney world” va “Magic kingdoms” da 40 dan zied attraksionlar joylashgan. Bu erda AQSh bosh ko`chasi, “sarguzashtlar” va “fantaziyalar” mamlakatiga sayr qilish hamda “MGM” parkida “kelajak” va “kichiktirilgan” dunyoga ham tashrif etish mumkin.

“MGM studios” parkida hozirgi kunga qadar badiiy filmlar suratga tushirilmoqda. Bu parkga kelganda s`yomka tushirilayotgan sahnaga tashrif etib, “yulduzli urushlar”da ishtirok etish va Alovuddin haqidagi ertakdagi jin bilan va ko`plab kahramonlar bilan muloqotda bo`lish mumkin. Hamda sanset bulvaridagi “dahshat minorasida” taqdirni sinab ko`rish yoki “yulduzlar teatrida” go`zal va maxluqni uchratish mumkin.

“Animal kingdom” parkida hashoratlar hayoti to‘g‘risida maxsus kinozalda stereoskopik triller namoyish etiladi. O‘tkir hissiyotni boshdan kechirmoqchi bo‘lganlarga Yura erasining parkida dinozavrlarni tomosha etish taklif etiladi. Yana bir ko‘ngil ochar tadbirlardan biri WDW akvaparklari bo‘lib, unda batiskafda suv ostiga tushish, antiqa turlar bilan tanishish va haqiqiy sunamini boshdan kechirish mumkin.

“Disney olami” tizimida yana ikkita park bilan tanishish mumkin. Ularga “Gatorland” va “Pleasure Island” kiradi. Birinchisida ulkan toshbaqalar ustida sayohat qilish va timsohlarning o‘lim jangini ko‘rish mumkin. Ikkinchisida, u faqat kechqurun ishlaydi va faqat balog‘at yoshiga etganlar, ya’ni 21 yoshdan keyingilar uchun bu erda mijozlar uchun 7 ta kechki musiqiy klublar va restoranlar mavjuddir. Bu yerda Mark Tven davridagi g‘ildirakli kemada sayohat qilish imkoni mavjud. Tashrifchilar har kecha yangi yilni kutib oladilar.

Amerikadagi kinoparklar mazkur yo‘nalishda faoliyat ko‘rsatadi. Ular qatoriga “Universal” (“Universal studios hollywood”) nomli tematik park va Orlandoda joylashgan “Universal” nomli park kiradi. “Universal” bu ekran ichiga to‘la kirib borish va qiziqarli trillerdagi ijrochilardan biriga aylanishning yagona imkoniyatlardan biridir.

Umuman, ko‘plab davlatlarda tematik parklarga tashrif buyurish turizmning alohida ko‘rinishiga aylangan. Sayr-tomosha joylari atrofida ko‘pincha yuqori daromadli mehmondo‘stlik industriyasining tizimi shakllanadi. Masalan, AQShning San-Fransisko shahridagi mashhur “Disneyland” parkida tashrifchilar uchun 27 turli kategoriyadagi mehmonxonalar barpo etilgan. Parijdagi “Disneyland”da esa tashrifchilar uchun qisqa yo‘lovchi masofada 6 ta, ya’ni lyuksdan boshlab, “budjet” darajasigacha bo‘lgan mehmonxonani taklif etadi. Mazkur park hududida to‘xtalgan sayohatchilar uchun katta miqdorda chegirmalar mavjud. Bularga park biletlari narxining arzonligi va boshqa tashrifchilarga nisbatan bir soat oldin attraksionlardan foydalanish huquqi kabilar kiradi.

Darhaqiqat, “Disneyland” hududi adventureland, fantasyland, frontierland va discoveryland kabi qismlardan iborat bo‘ladi (1.3.2-rasm).



1.3.2-rasm. “Disneyland” hududining ko‘rinishi¹²

Rasmda keltirilgan “Disneyland” hududi yuqoridagi to‘rtta yo‘nalish bo‘yicha faoliyat olib boradi. Ushbu hudud nafaqat AQShda balki Yevropa davlatlarida ham rivojlanib, katta imkoniyatlarga egaligi bilan ajralib turadi. Xususan, bu borada “Disneyland Paris” 1994-yilda Yevro Disneyland va 2009 yildan “Disneyland Resort Paris” nomini oldi.

Parklar kompleksi Uolt Disney kompaniyasiga tegishli bo‘lib, Marn-Lya-Vale shahrida Parij shahridan 32 km. sharqda joylashgan. Park 1992-yilning 12-aprelida ochilgan va ularga 2 ta tematik parklar bo‘lgan “Disneyland Park” (1992-yilda tashkil etilgan) va “Walt Disney Studios Park” (2002-yilda tashkil etilgan) kiradi. Keyinchalik, “Golf Disneyland” va mehmonxona joylashgan kvartallar ham qurilgan. Mazkur Yevropadagi ko‘ngil ochar parklar 60-yillarning oxirida paydo bo‘lgan. Har yili eng yirik hordiq chiqarish markazlariga 10 mln. nafargacha mehmonlar tashrif buyuradilar. Hozirgi kunda ular tematik parklar deb ataladi. Chunki, amalda faoliyatini yuritayotgan parklarning soni kengayib bormoqda va yangi parklarning qurilishi ham avj olmoqda.

¹² www.disneyland.com

Yuqorida keltirilgan parklar dunyoda ko‘payib bormoqda. Masalan, qutb chegarasidan keyin joylashgan “Santapark” 1999 yilda Laplandiya poytaxti Rovanaemida ochildi. Parkning asosiy maqsadi sayr-tomosha markazi bo‘lib “Syuvyasenvara” gigant g‘orida qurilgan. Uning ichiga chiroyli bezalgan darvozadan o‘tilib, sehrli tunnel orqali kirish mumkin. Park tashrifchilarini ko‘plab g‘aroyib tirik personajlar kutib oladilar. Sayyohlar o‘z ko‘zlari bilan Santa Klausning shimoliy osmonda o‘z o‘lkalari uzra parvozinig shohidi bo‘ladilar. Bunday holatni Ispaniyadagi “Port Aventura”, nemis, ingliz tematik va animatsion parklarida ko‘rish mumkin.

Shuningdek, “Commercial recreation” “sarguzasht” yoki “ekoturizm” deb ataladi. Asosan, u mavzuli parklar, diqqatga sazovor joylar va klubni o‘z ichiga oladi. Hamda mavzuli parklarning barchasi 1920-yilda Kaliforniyaning Buena Parkida kichik Berry fermasi va choy xonasi bilan boshlangan. Sakkiz yil vaqt ichida Knottning Berry fermasi AQShda eng katta mustaqil park bo‘ldi. Bugungi kunda Knottning 150 ga yaqin sayohatlari, tarixiy eksponatlari va maxsus do‘konlari mavjud.

Xorijiy mamlakatlarda hayvonlarni ko‘rib dam olish, asosan zoopark va akvariumlarni tomosha qilishga bo‘linadi. Shu bois, turizmga yana bir o‘sib borayotgan sektor hayvonlardir. Kishilarda shaharga borishga sabablari bo‘lmasada hayvonot bog‘lari, akvariumlar va yovvoyi hayvonlar parklariga har yili millionlab mehmonlar tashrif buyuradilar. Xususan, har yili AQSh hayvonot bog‘iga 150 mln.kishi tashrif buyuradi.

Shu bilan birga, xorijiy mamlakatlarda dam olish va hordiq chiqarish maskanlarini tashkil etishda muqaddas tarixiy joylarning ham ahamiyati katta bo‘lib, har yili o‘sha joylarga ko‘pchilik turistlar tashrif buyuradilar va o‘zlarining dam olishlari amalga oshiradilar.

Bu tarixiy turizm turi bo‘yicha ming yillar davomida ko‘pchilik turistlar sayohat qilishmoqda. Dastlabki tashrif buyuradigan tarixiy joylarga dunyoning “yetti mo‘jizasi” kiradi hamda ular quyidagi yo‘nalishlardan iboratdir (1.3.1-jadval):

**Dunyoning turistlar tashrif buyuradigan tarixiy joylari haqida
ma'lumot¹³**

№	Hozirgi joylashgan davlati	Muqaddas tarixiy joylarning nomi
1	Misr	Misrning buyuk piramidalari
2	Iroq	Bobil osma bog`lari
3	Gretsiya	Zevs haykali
4	Turkiya	Efesdagi Artemis uyi
5	Turkiya	Halikarnass maqbarasi
6	Gretsiya	Rodas shohlari
7	Misr	Iskandariya dengiz chirog'i

Ulardan tashqari, AQShda tarixiy joylar ham mavjuddir. Ular qatorida Monticello mashhur davlat arbobi Tomos Jeffersonning uyi bo'lib, u mustaqillik deklaratsiyasi muallifi va Virginia universitetining otasidir. Ushbu Monticello gumbazli maskan go'zal Virjiniya qirg'og'ida joylashgan va bu joy turistlarning tashrif buyurishga arziydiydigan maskan bo'lib hisoblanadi.

Natijada, mazkur ta'tillarni amalga oshirish uchun dam olish bo'yicha mutaxassislar quyidagi vazifalarni bajaradilar:

- zamonni rekratsion rejalashtirish;
- yerlarning tasnifiy tizimlari;
- federal daromad taqsimoti;
- qabul qilish va rivojlantirishni moliyalashtirish dasturi;
- dam olish uchun qulayliklardan foydalanish;
- yo'l-transport vositalarining ta'siri;
- davlatni moliyalashtirish.

Ulardan tashqari, iqtisodiyoti rivojlangan xorijiy mamlakatlarga nazar tashlaydigan bo'lsak, ushbu mamlakatlar turizmida ko'ngil ochar o'yinlar va attraksionlar asosiy o'rinni egallaydi. Ulardan eng muhimi ko'ngilochar o'yin turlaridan asosiy o'rinni kazino o'yini egallaydi. Dunyoda har 30 mehmonxonadan 20 tasida kazino o'yini tashkil qilingan. Turist kazino o'yini haqida tushunchaga ega bo'lmasa, mehmonxonalarda "tushuntirish ishlari" yo'lga qo'yilgan bo'ladi.

¹³ Manba: Tuxliyev I.S., Hayitboyev R., Safarov B.Sh., Tursunova G.R. Turizm asoslari. Darslik. –T., 2014.

Kazino o'yini birinchi marta 1941-yilning o'rtalarida Las-Vegasda tashkil etilgan bo'lib, dastlab unda 12 va undan ortiqroq kishilar guruhi ishtirok etgan. 1970-yilga qadar kazino o'yini Las-Vegasdagi yagona o'yin turi hisoblangan, keyinchalik ushbu o'yinning turlari ko'paya boshlagan, shuningdek bu o'yin boshqa shahar va hududlarga ham tarqala boshlagan. Garchi kazino o'yini rasmiy ravishda 1941-yilda tashkil qilingan bo'lsada, uning tarixi 1638-yilga borib taqaladi. Ushbu davrlarda kazino o'yini qimor, shuningdek turli xil karta o'yinlari ko'rinishida mahalliy aholi tomonidan o'ynalgan o'yin hisoblanadi.

Umuman olganda, ko'ngilochar maskanlariga bo'lgan turlar, ayniqsa oilaviy dam olish tarafdorlari, kelin-kuyovlar va kichik yoshlar guruhlari o'rtasida ko'proq qiziqish uyg'otmoqda. Parklarning ko'pchilik tashrifchilarini bolalar emas, balki katta yoshdagi kishilar tashkil etadi.

Xorijiy turoperatorlar yordami tufayli tematik parklarning tashrifi yildan-yilga tez sur'atda oshib bormoqda. Agar ilgari sayyohlarning asosiy qismi chiptalarni parkga kirishda sotib olsalar, endilikda chiptalarning ko'pchiligi turpaket narxiga kiritilmoqda. Hamda ko'plab davlatlarda parklarining mijozlari xorijiy turistlardan iborat bo'ladi. Bu orqali dam olish va hordiq chiqarish maskanlarini tashkil etish muhim ahamiyatga egaligi bilan ajralib turadi.

I-bob bo'yicha xulosa

Mintaqada turizm industriyasini rivojlantirish uchun turizmning shu yo'nalishga mos keladigan turizm sohasi keng taraqqiy qildiriladi. SHundan turizm turlaridan biri madaniy turizm hisoblanib, u nafaqat turizmni rivojlantirishga katta yordam beradi, balki dam olish va xordiq chiqarish maskanlarida turistik faoliyatni amalga oshirish orqali turistlarni qabul qilishni ta'minlaydi.

O'z navbatida dam olish va xordiq chiqarish maskanlari obyektlar shaklida turlarga bo'linadi hamda muhim vazifalarni bajarishi bilan ajralib turadi. Ularning mavjud imkoniyatlarini yanada kengroq yuzaga chiqarish uchun dam olish va hordiq chiqarish maskanlarini tashkil etishning xorij tajribalarini o'rganish lozim. Bu tajribalar ko'ngilochar obyektlar va tadbirlarning o'tkazilish holatlarini ham aks ettiradi.

II-BOB. DAM OLISH VA HORDIQ CHIQARISH MASKANLARINING EKOLOGIK-IQTISODIY RIVOJLANISH OMILLARI VA XUSUSIYATLARI

2.1. Respublikamizda dam olish va hordiq chiqarish maskanlarining bugungi holati

O'zbekiston Respublikasi Markaziy Osiyodagi mamlakatlar orasida nisbatan katta turizm imkoniyatlariga ega bo'lib, bu sohada yuqori darajadagi raqobatlasha oladigan hamda turizmni yanada rivojlantirish uchun potensial imkoniyatlarga ega bo'lgan mamlakatlardan biri hisoblanadi. Shuningdek, Butunjahon turizm tashkilotining "Ipak Yo'li" loyihasining asosiy bo'g'ini bo'lib, bu loyiha bo'yicha turistlarning ixtiyoriga taklif etilayotgan turlarning aksariyat qismi O'zbekiston hududidan o'tadi.

Bularning xizmatlar tufayli bajarilishi haqida Respublika Birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek, "... xizmatlar ko'rsatish sohasini yanada jadal rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarni chuqurlashtirish katta ahamiyatga ega".¹⁴ Darhaqiqat, xizmatlar sohasini rivojlantirish asosida turizmni rivojlantirish bo'yicha turizm mahsuloti taklif etiladi hamda bu bo'yicha sayohatga chiqadigan turistlar turizmning asosiy ixlosmandlari hisoblanadi.

Mazkur holat respublikamizdagi mavjud iqtisodiy sharoitlarning o'sib borayotgan madaniy turizm talablariga miqdor hamda sifat jihatidan javob berish imkoniyatlari, turistlarga taklif etilayotgan milliy turizm mahsulotning raqobatbardoshligini tahlil qilish va izlab topish, shuningdek, turizm resurslaridan kelgusi avlod manfaatlarini ko'zlagan holda barqaror rivojlantirish imkoniyatlarini o'rganishning zaruratini ko'rsatadi hamda dam olish va hordiq chiqarish maskanlaridan samarali foydalanishni talab qiladi.

O'zbekistonda jahon madaniyati xazinasiga kiruvchi ko'plab arxitektura yodgorliklari mavjud. Aynan, Xiva, Buxoro va Shahrisabz shaharlarining tarixiy markazlari, qadimiy Samarqand shahrining tarixiy yodgorliklari YUNESKOning

¹⁴ Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T.: O'zbekiston, 2009. – 48 b.

“Jahon merosi” va Boysun tumani aholisining folklori “Jahon nomoddiy merosi xazinasini” ro‘yxatiga kiritilgan. Shu bilan birga, O‘zbekistonda turizmni rivojlantirish borasida ko‘hna madaniy va arxitektura yodgorliklariga boy bo‘lgan tarixiy shaharlarda jahon aholini hayratga soluvchi va lol qoldiruvchi qadimgi tarixiy yodgorliklar mavjud.

Ko‘pchilik mamlakatlarda O‘zbekiston ana shu shaharlari bilan mashhur va ana shu tarixiy shaharlar “Sharqning javohirlari” deb ataladi. Shu bilan birga, O‘zbekistondagi tarixiy shaharlardagi mavjud milliy meros obyektlari o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lmoqda (2.1.1-jadval).

2.1.1-jadval

O‘zbekiston tarixiy shaharlaridagi madaniy meros obyektlari haqida ma’lumot¹⁵

Tarixiy shahar nomi	Mavjud milliy meros obyektlarining nomlari
Toshkent	Ko‘kaldosh madrasasi, Jome’ masjidi, Kaffol Shoshiy va Sufi Ota maqbarasi, Xazrati Imom arxitektura majmuasi, Abulqosim va Baroqxon madrasasi, Amir Temur muzeyi va xiyoboni, Jasorat monumenti, Mustaqillik, xalqlar do‘stligi, Xasti Imom va Xadra maydonlari, Tilla Shayx va Hazrati Imom masjidi
Samarqand	Afrosiyob, Mirzo Ulug‘bek rasadxonasi, Shoxi Zinda arxitektura majmuasi, Hazrati Hizr, Bibixonim va Namozgox masjidi, Ulug‘bek, Sherdor va Tillakori madrasasi, Chorsu bozori, Xoja Abdu Darun qabristoni, Ruxobod, Oqsaroy, Go‘ri Amir maqbarasi, Ishratxona va Mavzoley Cho‘pon-Ota maqbarasi, Xoja Ahror va Imom al-Buxoriy yodgorlik majmuasi
Buxoro	Ark va Chashmai-Ayub, Sitorai Mohi-xosa saroyi, Bolo-Hovuz va Gavkushon majmuasi, Ismoil Somoniy maqbarasi, Abdullaxon va Modarixon madrasasi, Masjidi Baland, Chor-Bakr majmuasi, Zayniddin Xoji va Nodir Devonbegi xonaqosi, Poyi-Kalon va Labi-Hovuz majmuasi, Ko‘kaldosh, Ulug‘bek, Abdulazizxon va Chorminor madrasasi, Bolohovuz va Namozgox masjidi, Sayfiddin Boharziy va Bayonkulixon maqbarasi, Fayzobod xonaqosi, Jo‘ybor xo‘jalari mozori
Xiva	Ichon-qal’a, Saidboy masjidi va madrasasi, Polvon Darvoza atroflari, Olloqulixon, Abdullaxon, Qutlug‘murod, Muhammad Aminxon, Sherniyoxxon va Arabxona madrasalari, Olloqulixon Timi va Karvonsaroyi, Anushxon masjidi va harami, Toshhovli, Oqmasjid, Kaltaminor, Ko‘xna Ark, Juma, Borlandi masjidi va To‘ramurod minorasi, Said Olovuddin maqbarasi

¹⁵. Manba: Tuxliyev I.S., Hayitboyev R., Safarov B.Sh., Tursunova G.R. Turizm asoslari. Darslik. –T., 2014.

Avvalo, dam olish va hordiq chiqarish maskanlari ko'ngilochar tadbirlarni o'tkazish maqsadida amalga oshiriladi. Bu yerda ko'ngilochar tadbirlar tadbirlarni tashkil etish shakli sifatida o'tkaziladi. Bunday tadbirlarga bayramlar va marosimlar kiritilib, ular bevosita ijtimoiy va shaxsiy hayotining barcha tomonlarini qamrab oluvchi kishilar o'zaro munosabatlarining turli jihatlari va shakllarida namoyon bo'luvchi muayyan urf-odatlar va an'analar axloqiy prinsiplar va huquqiy targ'ibotlar majmuasidir.

Mazkur maskanlarda sayohat-ekskursiya faoliyati asosida tashkil etiladi. Bu haqida qabul qilingan "Turizm to'g'risida"gi Qonunda "Ekskursiya faoliyati turistik faoliyatning tarixiy yodgorliklar, diqqatga sazovor joylar va boshqa obyektlar bilan tanishtirish maqsadida oldindan tuzilgan yo'nalishlar bo'yicha ekskursiya yetakchisi hamrohligidagi 24 soatdan oshmaydigan ekskursiyalarni tashkil etishga doir qismi" deb ta'riflangan.¹⁶

Biroq, respublikamizdagi mavjud dam olish va hordiq chiqarish maskanlaridan ko'pincha ijtimoiy turizm maqsadlarida foydalaniladi. Ijtimoiy turizmdan foydalanuvchilar bevosita aholi qatlami sifatida ularga ishlayotgan aholi kiradi hamda ularga sayohatlarni kasaba uyushmalari jamiyatlari amalga oshiradi.

Xususan, bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 28 dekabrda qabul qilingan "2018 yilda rasmiy sanalarni nishonlash davrida qo'shimcha ishlanmaydigan kunlarni belgilash va dam olish kunlarini ko'chirish to'g'risida"gi PF-5290-sonli Farmoni ijrosini ta'minlash borasida O'zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasi tomonidan tizimli ishlar amalga oshirildi.

Shuningdek, kasaba uyushmalari federatsiyasi xodimlaridan iborat shtablar tashkil etilib, "Navro'z" bayrami munosabati bilan uzaytirilgan dam olish kunlarida korxona, tashkilot va muassasalar xodimlari va ularning oila a'zolarining mazmunli dam olishini ta'minlash hamda ichki turizmni tashkil etish bo'yicha aniq vazifalar belgilab olindi.

Bundan tashqari, hududiy kasaba uyushmalari tashkilotlari tomonidan "Respublika korxona, tashkilot va muassasalarida faoliyat ko'rsatayotgan xodimlar

¹⁶ O'zbekiston Respublikasining 1999 yil 20 avgustda qabul qilingan "Turizm to'g'risida"gi Qonuni

va ularning oila a'zolari uchun ichki turizm va faol dam olish ishlarini tashkil qilish rejasi" ishlab chiqildi va amalga oshirildi. Natijada, 2018 yilning 18-22 mart kunlari jami 75200 nafar xodim hamda ular oila a'zolari hududlardagi diqqatga sazovor maskanlar, tarixiy obidalar, ziyoratgohlar va inshootlarga sayohatlari tashkil qilindi.

Ayniqsa, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi korxona, tashkilot va muassasalarning 34,5 ming nafarga yaqin mehnatkashlari va ularning oila a'zolari tarixiy shaharlarga sayohatga olib borildi.

Xususan, ulardan 6 ming nafari Toshkent, 12 ming 200 nafari Samarqand, 7 ming nafari Buxoro, 5 ming 150 nafari Xiva, 960 nafari Nukus, 1 ming 300 nafari Qo'qon, 1 ming 850 nafari Shahrisabz tarixiy shaharlariga, 40 ming 740 nafari o'zlari yashab turgan hududlardagi diqqatga sazovor qadamjollarga sayohatga olib chiqildi.¹⁷

Mazkur tashkilot tizimidagi "Kasaba sayr" korxonasi tomonidan bayram kunlarida 2 mingdan ortiq mehnatkashlar kasaba uyushmalari tomonidan joriy etilgan 50 foizli chegirma asosida Buxoro, Samarqand, Xiva va Toshkent shaharlariga sayohat qildilar. Hamda tashkil etilgan sayoxatlar xodimlar va oila a'zolarida katta taassurotlar qoldirib, bayram kunlarida ular uchun munosib sovg'a bo'ldi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2018 yilda rasmiy sanalarni nishonlash davrida qo'shimcha ishlanmaydigan kunlarni belgilash va dam olish kunlarini ko'chirish to'g'risida"gi Farmoniga muvofiq berilgan bayram kunlari barcha yurtdoshlarimizning oilaviy hamda jamoaviy sayohatlarga chiqishlari hamda maroqli dam olishlari uchun katta imkoniyatlar yaratdi.

Hamda, bugungi kunda dam olish va hordiq chiqarish maskanlariga sanatoriylar va dam olish uylari kiradi. Mazkur obyektlar O'zbekiston kasaba uyushma tashkiloti tizimida bo'lib, ularning soni jami 17 ta sanatoriy va 2 ta dam olish uylarini tashkil etadi (2.1.2-jadval).

¹⁷ <https://kasaba.uz/uzbekiston-kasaba-uyushmalari-turizmni-rivozhlantirish-julida/>

2.1.2-jadval

2018 yil 1 yanvar holatiga O‘zbekistonda faoliyat olib borayotgan sanatoriylar va dam olish uylari haqida ma’lumot¹⁸

T/r	Dam olish joylarining nomi	Faoliyat yo‘nalishi	Dam olish joylarining manzili
1	“Abu Ali Ibn Sino” sanatoriyasi	kardiologiya, harakat-tayanch, nevrologiya	Samarqand viloyati, Nurobod tumani, Nurbuloq qishlog‘i
2	“Oltinsoy” sanatoriyasi	terapevtik va nevrologiya	Navoiy viloyati, Xatirchi tumani, Chilash qishlog‘i
3	“Oq-Tosh” sanatoriyasi	nafas olish organlari	Toshkent viloyati, Bo‘stonliq tumani, Oq-Tosh qishlog‘i
4	“Botanika” sanatoriyasi	kardiologiya, terapevtik, nevrologiya	Toshkent viloyati, Qibray tumani, Oq-qovoq qishlog‘i
5	“Bo‘ston” sanatoriyasi	kardiologiya, nevrologiya, ginekologiya, harakat-tayanch a‘zolari	Toshkent viloyati, Qibray tumani, Baytqo‘rg‘on qishlog‘i
6	“Zomin” sanatoriyasi	nafas olish organlari	Jizzax viloyati, Zomin tumani
7	“Kosonsoy” sanatoriyasi	terapevtik, nevrologiya, ginekologiya	Namangan viloyati, Kosonsoy shahri, Xalqlar do‘stligi ko‘chasi, 21-uy,
8	“Sitorai Mohi Xosa” sanatoriyasi	terapevtik, ginekologiya, urologiya, nevrologiya	Buxoro shahri, Moxi Xosa mavzesi, Shifokorlar ko‘chasi, 30-uy
9	“Turon” sanatoriyasi	kardiologiya, ginekologiya, urologiya, nevrologiya	Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani Shurtepa ko‘chasi, 159-uy
10	“Umid Gulshani” sanatoriyasi	ginekologiya, urologiya, terapevtik, nevrologiya	Toshkent viloyati, Qibray tumani, A.Navoiy ko‘chasi, 1-uy
11	“Honqa” sanatoriyasi	kardiologiya, harakat-tayanch, nevrologiya, ginekologiya	Xorazm viloyati, Xonqa tumani, Qirqyop qishlog‘i
12	“Qashqadaryo sohili” sanatoriyasi	ovqat hazm qilish organlari, nevrologiya, kardiologiya, ginekologiya	Qarshi shahri, Rovot ko‘chasi, 12-uy
13	“Chinobod” sanatoriyasi	ovqat hazm qilish organlari, endokrinologiya, ginekologiya	Toshkent shahri, YUnusobod tumani, Chinobod ko‘chasi, 88-uy
14	“Chimyon” sanatoriyasi	kardiologiya, ginekologiya, harakat-tayanch, nevrologiya	Farg‘ona viloyati, Farg‘ona tumani, Chimyon qishlog‘i
15	“Chortoq” sanatoriyasi	harakat-tayanch, kardiologiya, terapevtik, nevrologiya, ginekologiya	Namangan viloyati, Chortoq tumani, A.Saydaliyev ko‘chasi 5-uy
16	“Ahmad Al-Farg‘o-niy” dam olish uyi	dam olish, hordiq chiqarish	Farg‘ona viloyati, Quvasoy shahar Arsiv qishlog‘i
17	“Oqtosh-Haboda” dam olish uyi	dam olish, hordiq chiqarish	Toshkent viloyati, Bo‘stonliq tumani, Oq-Tosh qishlog‘i
18	“Termiz-marvaridi” sanatoriyasi	kardiologiya, harakat-tayanch, nevrologiya	Surxondaryo viloyati, Termiz tumani, “Uchqizil” QFY
19	“Xavotog‘ gulshani” sanatoriyasi	kardiologiya, harakat-tayanch, nevrologiya	Jizzax viloyati, Yangiobod tumani, Changiovlul qishlog‘i

¹⁸ www.kasaba.uz

Jadvalga asosan mazkur 19 ta dam olish joylaridan faqat ikkitasi dam olish va hordiq chiqarishga ixtisoslashgan markaz hisoblanadi hamda ularning qatoriga “Ahmad Al-Farg‘oniy” va “Oqtosh-Haboda” dam olish uylarini kiritish mumkin.

Biroq, dam olish va hordiq chiqarish maskanlarida attraksionlar, o‘yinlar, ko‘ngilochar mashg‘ulotlar va o‘yin biznesi kabi xizmatlar ko‘rsatiladi. Bular qo‘shimcha turistik xizmatlar hisoblanadi va ko‘ngil ochishning uslublari chegarasiz darajada bo‘lib, tashkilotchilarning fantaziyalariga bevosita bog‘liqdir. Ammo, bugungi kunda ko‘ngil ochish mashg‘ulotlarining 110 ga yaqin eng mashhur va ko‘zga ko‘ringan turlari mavjud.

Avvalo, turistlar uchun ko‘ngilochar mazmundagi tashkil qilinadigan turizm dasturlari turistlar uchun qo‘shimcha xizmat ko‘rsatishga yo‘naltirilgan bo‘lib, bunda turistning yaxshi ko‘ngil ochishi va maroqli dam olishi uchun asosiy maqsad bo‘lib hisoblanadi. Undagi faol o‘yinlar qatoriga golf, kriket, kegli, otlarda sayr qilish, attraksionlarga borish, restoranlar, dansinglar, disko klublar, magazinlar va kazino kabilarni kiritish mumkin.

Shuningdek, bugungi kunda dam olish va hordiq chiqarish maskanlaridan biri sifatida klublar turistlarning bo‘sh vaqtlarini samarali tashkil etish va biror-bir maqsad doirasida birlashtirishga xizmat qiladi. Shu boisdan ham, dam olish va hordiq chiqarish maskanlarida qiziqarli tadbirlarni o‘tkazishga klublarning turlari yordam beradi va ular quyidagi turlarga bo‘linadi:

- shahar tashqarisidagi klublar. Ular, odatda sport mashg‘ulotlari uchun yaxshi uskunalangan bo‘lib, bular shahar tashqarisidagi barcha uylar bir yoki ko‘proq dam olish xonalari, qulay kreslo, divan va restoranga ega bo‘ladi.

- shahar klublari. Bular katta ishbilarmonlik jihati bilan farqlanadi hamda xonalarining o‘lchami, yo‘nalishi va ko‘rsatadigan xizmatlari bo‘yicha farq qiladi.

- professional klublar. Bular o‘z nomidan kelib chiqqan holda bir kasbdagi turistlarni birlashtiradi.

- elitar klublar. Bular a‘zolariga bir-biri bilan muloqot qilish imkonini beradi hamda ularning tarkibi turli kasbdagi ijtimoiy-iqtisodiy tizimga xos kishilardan iborat bo‘ladi.

- sport klublari. Bu klublar turistlarga bardamlik, suzish va tennis o'ynash imkoniyatini beradi.

- tushlik klublari. Bular, odatda katta idora binolarida joylashadi va unda ko'pincha shu binoni ijaraga olgan boshqa idoralarning xodimlari a'zolikka taklif qilinadi.

- universitet klublari. Bular qoidaga ko'ra bitiruvchilar tomonidan ta'sis etiladi hamda ular shaharning nufuzli hududlarida joylashadilar hamda o'z a'zolariga turli xil ko'ngil ochish o'yinlarni taklif etadilar.

- yaxta klublar. Ularning asosiy maqsadi klub a'zolarining yaxtalari turadigan bandargohni tartibli tutish bo'lib, bu boshqa klublar kabi dam olish xonasi, bar va oshxonalariga ega bo'ladi.

- o'rtoqlik klublari. Ular orasida juda ixtisoslashgan birlashmalar mavjud bo'lib, bular "boshqa yurtlardagi urush faxriylari"ga yordam beradi va ularni qo'llab-quvvatlash uchun hayriya tadbirlarini tashkil etadi.

- korporativ klublar. Bular dam olishdan ko'ra ko'proq foyda olishga qaratilgan bo'lib, qoidaga ko'ra korporatsiyalarga tegishli bo'ladi.

Demak, bugungi kunda dam olish va hordiq chiqarish maskanlaridan foydalanish o'ziga xususiyatlarga ega bo'lib, uning ekologik-iqtisodiy rivojlanishi doimiy ravishda davlat tomonidan monitoring qilinib boriladi, shuningdek bugungi kunda bir qator me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Ya'ni, O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tomonidan madaniy dam olish va hordiq chiqarish maskanlarining yagona reestri amalga oshiriladi. Biroq, madaniy dam olish va hordiq chiqarish maskanlarining iqtisodiy rivojlanishi bo'yicha chora-tadbirlar mazkur holatni yanada takomillashtirish maqsadida qabul qilinib, amaliyotda o'zining ta'sirini namoyon qilmoqda.

Xususan, respublikamiz hududlarida mazkur maskanlarni tashkil etish va yanada rivojlantirish maqsadida Vazirlar Mahkamasining "2011-2015 yillarda madaniyat va istirohat bog'larining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va ularning faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi Qarori qabul qilindi hamda uning tarkibi quyidagi yo'nalishlardagi

chora-tadbirlarni amalga oshirishga qaratilib, bugungi kunda mazkur vazifalar amalga oshirildi:

- madaniyat va istirohat bog‘lari faoliyatiga oid normativ-huquqiy bazani hamda ma’muriy boshqaruv tizimini takomillashtirish;
- madaniyat va istirohat bog‘larining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va rivojlantirish;
- madaniy-ma’rifiy faoliyatni faollashtirish tadbirlarini kuchaytirish.

Darhaqiqat, madaniyat va istirohat bog‘larini bosqichma-bosqich rekonstruksiya qilish va zamonaviy attraksionlar bilan jihozlash, ularning faoliyatini yanada takomillashtirish asosida aholi, ayniqsa bolalar va o‘smirlar, barcha yoshlarning madaniy dam olishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida yangi tashkil etiladigan madaniyat va istirohat bog‘larining quyidagi tipdagi namunaviy loyihalari tayyorlandi:

- madaniyat va istirohat bog‘larini aholining madaniy dam olishi uchun qulay va ko‘rkam joylarda joylashtirish, manzarali daraxtlar va har xil gullar ekish orqali bog‘ning kamida 50 foiz umumiy maydoni sathida ko‘kalamzorlashtirish va obodonlashtirish ishlarini amalga oshirish;
- attraksionlar va ko‘ngilochar o‘yinlar qurilmalarining ixcham, qulay va zamonaviy turlarini sanitariya va yong‘in xavfsizligi qoidalariga hamda jamoat tartibi talablariga rioya qilgan holda o‘rnatish;
- aholi hamda o‘smir yoshlarning madaniy dam olishi uchun qulay shart-sharoit yaratish maqsadida bolalarning mo‘‘jaz sport maydonchalari, attraksionlar, suv havzalari, shuningdek, raqs va ko‘chma sirk uchun mo‘ljallangan maydonchalar, amfiteatr, shinam o‘rindiqlar hamda savdo va umumiy ovqatlanish shoxobchalarini barpo etish.

Shunga asosan, madaniyat va istirohat bog‘lari hududida namunaviy loyihalar talablariga rioya etilgan holda madaniy va hordiq chiqarish obyektlarini joylashtirish yuzasidan hokimlarning zimmasiga quyidagi vazifalar yuklatildi:¹⁹

¹⁹ http://www.lex.uz/pages/GetAct.aspx?lact_id=1722002

- madaniyat va istirohat bog‘lari mol-mulkini to‘liq xatlovdan o‘tkazish, mavjud bino va inshootlar, attraksionlar va boshqa turdagi vositalardan samarali va maqsadli foydalanish bo‘yicha zarur choralarni ko‘rish hamda ularning asossiz hisobdan chiqarilishiga yo‘l qo‘ymaslik;

- yangi madaniyat va istirohat bog‘larini tashkil etish, mavjudlarini kapital rekonstruksiya qilish, kapital va joriy ta‘mirlash hamda zamonaviy attraksionlar bilan jihozlash bo‘yicha manzilli hududiy dasturlarni uch oy muddatda ishlab chiqish va tasdiqlash hamda har bir madaniyat va istirohat bog‘i bo‘yicha texnik-iqtisodiy asosnomani tayyorlash;

- madaniyat va istirohat bog‘larining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash bilan bog‘liq amaliy ishlarni moliyaviy ta‘minlashda tadbirkorlik imkoniyatlaridan keng foydalanish, bunda bog‘ hududidagi erlarni attraksionlar, savdo va umumiy ovqatlanish shoxobchalari qurish uchun tanlov savdosi asosida tadbirkorlarga ijaraga berish;

- dasturni amalga oshirish uchun mahalliy byudjet daromadlarining oshirib bajarilgan qismini hamda hokimliklarning byudjetdan tashqari va homiylar, investorlar mablag‘larini jalb qilish va maqsadli yo‘naltirish.

Umuman olganda, bugungi kunda ko‘ngilochar tadbirlarni o‘tkazish uchun dam olish va hordiq chiqarish maskanlaridan foydalanilib, bu erda turistlarga ko‘rgazmalar va namoyishlar asosida uyushtiriladi. Bulardan ichki va xalqaro turistlar keng foydalanadilar va turizmning rivojlanishiga katta yordam beradi. Natijada, kelajakda dam olish va hordiq chiqarish sohasi rivojlanadi, davlat byudjetiga tushumlarning tushishi shakllanadi va mamlakatning turistik salohiyatining oshishiga olib keladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, bugungi kunda dam olish va hordiq chiqarish maskanlarida quyidagi yo‘nalishlardagi chora-tadbirlarni amalga oshirish kelajakda uning rivojlantirishga katta yordam beradi:

- mahalliy madaniyat, musiqa, teatr san‘at va hunarmandchilikning o‘ziga xos xususiyatini tavsiflovchi tadbirlar mavzusini tanlash;

- maxalliy aholining turistik diqqatga sazovor joylar, obyektlar va xizmatlarga kirishni ta'minlash;
- moliyaviy rag'batlantirish, mahalliy aholini tadbirlar faoliyatiga jalb etish maqsadida kasbiy tayyorgarligi va o'qitish shakllarni tashkil etish;
- turistik obyektlarga borishni tashkil etish yuzasidan nazorat choralarini qabul qilish;
- mahalliy aholini turizmni qadriyatlari va turistlarni mahalliy an'ana va urf-odatlar bilan tanishtirish;
- mahalliy-madaniy an'analarga ehtiyotkorlik va xurmat bilan munosabatda bo'lgan turistlarni tanlov marketingi va turistik diqqatga sazovor joylar hamda obyektlar nazorati usuli bo'yicha rag'batlantirish;
- mahalliy aholini samarali faoliyat yuritishi uchun kasbiy tayyorlash.

2.2. Respublikamizda dam olish va hordiq chiqarish maskanlarining rivojlanishiga investitsiya kiritish xususiyatlari

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida dam olish va hordiq chiqarish maskanlarini jadal rivojlantirish investitsiyalardan foydalanish samaradorligini oshirishga bevosita bog'liqdir. Chunki, bugungi kunda investitsiyalarni iqtisodiyoti sharoitlariga moslashtirish va investitsion faoliyatni boshqarish o'zgacha yondashishlarni talab etmoqda. Hamda, xo'jalik yuritishning zamonaviy yo'lini tanlash investitsion siyosatni tubdan o'zgartirishni talab qiladi.

Xususan, jahon miqyosida halqaro kompaniyalarda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar 2017 yilda 1,81 trln. AQSh dollarini tashkil etib, o'tgan 2016 yilga nisbatan 16 foizga oshgan.²⁰ Bu esa jahon bozorining o'zgaruvchanligi va noma'lumligi sharoitida investitsiya qo'yilmalari samaradorligini baholash usullarida tavakkalchilik omillarining hisobga olinishi, investitsiyalashni tartibga solish hamda hududlar va iqtisodiy tarmoqlar o'rtasida to'g'ri taqsimlanishini talab etadi.

Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevralda qabul qilingan Farmonida "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini

²⁰ <http://unctad.org/en/pages/PressRelease.aspx?OriginalVersionID=445>.

rivojlantirishning beshta ustuvor yoʻnalishi boʻyicha Harakatlar Strategiyasi”da ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan yangilash, ishlab chiqarish, transport-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilma loyihalarini amalga oshirishga qaratilgan faol investitsiya siyosatini olib borish²¹ vazifasi qoʻyilib, unga oid davlat eng muhim boʻlgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish belgilangan. Natijada, dam olish va hordiq chiqarish maskanlarini rivojlantirishga mablagʻ ajratiladi va bu esa oʻz navbatida investitsiya hisoblanadi.

Avvalo, dam olish va hordiq chiqarish maskanlarini rivojlantirish maqsadida investitsion siyosatni amalga oshirishda bozor munosabatlariga mos dastaklardan foydalanish, yaʼni investitsion jarayon qatnashchilarining huquq va majburiyatlarini belgilab berish, mamlakatda investorlar uchun toʻlaqonli raqobatni taʼminlash, moliyaviy, moddiy va aqliy boyliklarni boshqarishda batamom erkin harakat qilish va shunga tenglashtirilgan tadbirlarni amalga oshirishni talab qiladi.

Bugungi kunda mazkur sohada investitsiya va investitsion jarayonlari tushunchalari keng qoʻllaniladi. Bozor iqtisodiyotida ushbu kategoriyalar investitsiyalarning tarkibiy qismidir. Chunki, investitsiyaning dam olish va hordiq chiqarish maskanlarini rivojlanishtirishdagi ahamiyati toʻgʻrisida fikr yuritadigan boʻlsak, bu oʻrinda “investitsiya” tushunchasining moliyaviy, mulkiy va intellektual qadriyatlarni takror ishlab chiqarishning inʼikosi sanaladi.

Mazkur tushunchaga aniqroq yondashgan holda amerikalik olimning N.Teylorning quyidagi fikri oʻrinlidir. Yaʼni, investitsiyalar - subyekt ixtiyoridagi barcha moliyaviy, moddiy va boshqa boyliklarni kelajakda iqtisodiy samara olish uchun biror bir obyektни qurilishi yoki rekonstruksiya qilishga sarflashdir.²² Bu oʻrinda u investitsiyaning mohiyati bilan mazmunini yetarli darajada ochib berishga harakat qilingan.

Biroq, iqtisodiyotimizda investitsiya xususida qonuniy hujjatlar 1991 yildan boshlab qabul qilingan va oʻtgan vaqt ichida ular ancha takomillashtirildi. Xususan, bu borada Oʻzbekiston Respublikasida qabul qilingan “Investitsiya

²¹ Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevralda qabul qilingan 4947-sonli Farmonining 1-ilovasi “2017-2021 yillarda Oʻzbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yoʻnalishi boʻyicha Harakatlar strategiyasi”. www.lex.uz

²² Nazarova G. va b. Xalqaro turizm sarmoya siyosati. - T.: TDIU, 2002.

to'g'risida"gi qonunida investitsiya iqtisodiy samara olish yoki ijobiy ijtimoiy natijaga erishish uchun sarflanadigan pul mablag'lari, banklarga qo'yilgan omonatlar, paylar, qimmatli qog'ozlar, mashinalar, asbob-uskunalar, yangi texnologiyalar va samara beradigan boshqa har qanday boyliklar hisoblanadi.

Ushbu keltirilgan iqtisodiy ta'rif jalb qilingan investitsiyaning bozor iqtisodiyoti sharoitida to'laligicha faoliyat ko'rsatishini aniq tasdiqlaydi. Jumladan, unda investitsiyaning o'ziga va investitsiya faoliyatining obyektlariga keng ta'rif berilgan. Hamda jalb qilingan investitsiyaning bevosita iqtisodiy va ijtimoiy samara olishga muqarrar bog'liqligi ta'kidlab o'tilgan.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining 1994 yil 5 mayda qabul qilingan "Xorijiy investitsiyalar va xorijiy investorlar faoliyatining kafolatlari to'g'risida"gi Qonuniga ko'ra, chet el davlatlari, xorijiy huquqiy shaxslar, xalqaro tashkilotlar, chet el fuqarolari va birlashmalari hamda xorijiy investor bo'lishi mumkin.

Mazkur qonunlar doirasida amalga oshiradigan turizm sohasidagi investitsion faoliyat dam olish va hordiq chiqarish maskanlarini tashkil etishni samarali rejalashtirishning boshlang'ich rivojidagi asosiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Buning uchun investitsion qarorlarni qabul qilish maqsadga muvofiqdir. Chunki, investitsion qarorlar investitsion loyihalarni ishlab chiqish va joriy qilishga yo'naltirilgan bo'lib, ularga ishlab chiqarishni qayta qurish, texnik qayta qurollanish, yangi mahsulot (xizmatlar) yaratish va tashkiliy strukturani qayta tashkil etish kiradi.²³

Ana shu maqsadni to'liq amalga oshirish uchun dam olish va hordiq chiqarish maskanlarining rivojlanishida investitsion faoliyat amalga oshiriladi va uning moliyalashtirish manbalari quyidagi guruhlariga ajratiladi:

- egalik qilish shakliga ko'ra o'z tomonidan, chetdan jalb qilingan va qarzga olingan pul mablag'lari;

- moliyaviy resurslar egasiga ko'ra davlat, xo'jalik subyektlari pul vositalari va xorijiy investorlar.

²³ Tuxliyev I.S., Qudratov G'.X., Pardayev M.Q. Turizmni rejalashtirish. Darslik. – T.: Iqtisodiyot-moliya, 2010. - 215 b.

Shuningdek, dam olish va hordiq chiqarish maskanlarining rivojlanishiga investitsiya kiritishni samarali rejalashtirish borasida investitsiya obyektlarning tanlovida uning obyektlarini tavsiflovchi parametrlarning tannarxi alohida hisobga olinadi. Bu parametr o'z navbatida dasturni to'liq shakllantirish uchun obyektни kompleks baholashda keng foydalaniladi.

Jumladan, ushbu maqsadni to'liq amalga oshirishda parametrlar kiritiladigan jadvallar tuziladi, tahlil qilinadi va baholanadi. Ya'ni, ular investitsiyaviy obyektни tasvirlaydi va parametrlarning mavjud darajasini taqqoslab, aniqlangan nisbiy o'zgarishlari quyidagi ballar bilan belgilanadi (2.2.1-rasm).

Parametrlar yo'nalishlari	O'zgarishlar diapazoni		
	+5	0	-5
Investitsion loyihaning hayotiy sikli	yuqori davomiylik	-	kichik davomiylik
Investitsiyalash obyektining rivojlanish darajasi	yuqori	-	past
Xizmat yoki mahsulot bozori hajmi	katta	-	kichik
Raqobatchilarning bosimi	kuchsiz	-	juda kichik
Sotish hajmining tebranishi	yo'q	-	sezilarli
Investitsion sikl xarajatlari	sezilarli	-	juda katta
Resurslar bozoridagi raqobat	kuchsiz	-	juda kuchli
Investitsion sikl davomiyligi	doimiy	-	doimiy emas
Bahoning tebranishi	yo'q	-	sezilarli
Xorijiy firmalarning raqobati	kuchsiz	-	juda kuchli
Rentabellik tebranishi	yo'q	-	sezilarli
Marketing uchun xarajatlar	past	-	yuqori

2.2.1-rasm. Investitsiya obyektlarining parametrlari tavsifi²⁴

Rasmdagi parametrlar bo'yicha investitsiya obyektlarini oldingi sifatlari saqlanib qolsa, unda belgi shkala o'rtasiga "0" kuyiladi. Har bir shkalaga obyektning kelgusi holatiga mos holda ballar belgilanadi va ularning algebraik yig'indisi aniqlanadi. Natijada, aniq variant uchun ballar yig'indisi hosil bo'ladi.

²⁴ Tuxliyev I.S., Qudratov G'.X., Pardayev M.Q. Turizmni rejalashtirish. Darslik. – T.: Iqtisodiyot-moliya, 2010. - 216 b.

Variantlarning solishtirma tahlili kapital qo'yilishi va dasturga kiritilishini zarur bo'lgan obyektlarning tartibini tuzishga imkon beradi. Natijada, yaqin kelajak uchun investitsiya dasturi shakllantiriladi hamda moliyalashtirish manbalarini aniqlangach, keyingi yil uchun joriy investitsiya rejasini tuzishga kirishiladi. Shuning uchun ham, joriy yil uchun rejali investitsiya qarorlarni kabul qilishdagi boshlang'ich hujjatlar zarur bo'lib, bu quyidagi yo'nalishlardan iborat bo'ladi:

- strategik reja va investitsiya dasturi;
- investitsiyalanadigan obyektning biznes-rejasi;
- biznesning joriy yilda erishishi ko'tilayotgan reja ko'rsatkichlari;
- asosiy va aylanma fondlardan foydalanish samaradorligining tahlil natijalari;
- yangi xizmat yoki mahsulot uchun ta'mir va texnologik xujjatlar tuplami

kurilish obyektlarining loyihalash hujjatlari hamda yangi texnologik yunalishlarni qayta ta'mirlash yoki hujjatlar.

Biroq, investitsiyalash obyektlarini tarkibiy tizimlashtirish boshqa belgilar bo'yicha ham amalga oshiriladi. Ya'ni, bunda rejali investitsion faoliyatni baholash uchun quyidagi ko'rsatkichlardan foydalaniladi:

- xizmatlarning yangilanishi bilan bog'liq faoliyatning kengaytirilishi;
- yangi ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirish va shu asosda investitsion faoliyatni amalga oshirish;
- ishlab chiqarish quvvatlarining qayta qurollanishi yoki qayta ta'mirlash hisobiga uning o'sishi;
- tugallanmagan qurilish hajmlarini yanada oshirish va kengaytirishni amalga oshirish;
- noishlab chiqarish yo'nalishidagi obyektlarni qurishga kiritish va amalga oshirish.

Investitsiyalarni borasida to'g'ri va samarali qarorlarning qabul qilinishi, investitsion obyektlarni to'g'ri rejalashtirish va investorlar sonining jadal ravishda ko'payishi natijasida bevosita iqtisodiyot tarmoqlariga investitsiyalarni kiritish

hajmlari yildan yilga oshib bordi. Bu quyidagi ko'rsatkichlarning o'zgarishi bilan namoyon bo'ladi (2.2.1-jadval):

2.2.1-jadval

O'zbekistonda 2010-2016 yillarda investitsiya faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari haqida ma'lumot (mlrd.so'mda)²⁵

№	Ko'rsatkichlar tarkibi	Yillar						
		2010	2011	2012	2013	2014	2015	2016
1	Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar, jami	15338,7	17953,4	22797,3	28694,6	35233,3	41670,5	49770,6
2	Chet el investitsiyalari va kreditlari	4340,8	3853,8	4653,3	5532,7	6980,1	8309,5	10611,4
3	Asosiy fondlarni ishga tushirish	13784,6	13641,3	18234,4	23624,5	29770,2	27510,9	42791,9
4	Qurilish ishlari	8245,8	9504,8	11753,9	15219,3	20060,4	25423,1	30231,4
5	Ishga topshirilgan uy-joy umumiy maydoni, mln.m ²	8,9	9,2	10,4	10,7	11,4	12,1	12,7


Ushbu jadvalga asosan, asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar 2010 yilda 15338,7 mlrd.so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2016 yilda 49770,6 mlrd.so'mga teng bo'lgan yoki 3-3,5 barobar oshgan. Chet el investitsiyalari va kreditlari 2010 yilda 4340,8 mlrd.so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2016 yilda 10611,4 mlrd.so'mga teng bo'lgan yoki 2-2,5 barobar oshgan.

Asosiy fondlarni ishga tushirish uchun 2010 yilda 13784,6 mlrd.so'mlik investitsiya kiritilgan bo'lsa, 2016 yilda 42791,9 mlrd.so'mga etgan yoki 3,5-4 barobarga oshgan. Qurilish ishlariga 2010 yilda 8245,8 mlrd.so'mlik investitsiya ajratilgan bo'lsa, 2016 yilda 30231,4 mlrd.so'mga etgan yoki 3,5-4 barobarga ko'paygan.

Mazkur ko'rsatkichlar tarkibida turizm sohasining tarkibiy qismi bo'lgan dam olish va hordiq chiqarish maskanlarining rivojlanishiga sarflanadigan investitsiyalar alohida ajralib turadi. Xususan, bu borada investitsiyalar bilan bog'liq faoliyatning takomillashishi natijasida O'zbekistonda 2010-2016 yillarda

²⁵ O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. Yillik statistik to'plam. 2010-2016. – Toshkent, 2017.

san'at, ko'ngil ochish va dam olish sohasini rivojlantirishga kiritilgan investitsiyalarning hajmi ham oshib bordi (2.2.2-rasm).




2.2.2-rasm. O'zbekistonda 2010-2016 yillarda san'at, ko'ngil ochish va dam olish sohasini rivojlantirishga kiritilgan investitsiyalar miqdori haqida ma'lumot (mlrd.so'mda)²⁶

Ushbu rasimga asosan, mazkur sohalarni rivojlantirishga 2010 yilda 149,9 mlrd.so'm, 2011 yilda 190,6 mlrd.so'm, 2012 yilda 198,9 mlrd.so'm, 2013 yilda 193,6 mlrd.so'm, 2014 yilda 227 mlrd.so'm, 2015 yilda 189,8 mlrd.so'm va 2016 yilda 378,9 mlrd.so'm investitsiya mablag'lari kiritilgan. Hamda 2016 yilda 2010 yilga nisbatan investitsiyalarni kiritish hajmi 229 mlrd.so'mga oshgan.

Natijada, respublikamizda dam olish va hordiq chiqarish maskanlarining rivojlanishda bo'lib, ularga investitsiya kiritish hajmlari o'sdi. Bu holatni investitsiyalar kiritish miqdorini jamiga nisbatan foizda ko'rish mumkin. Bu holat quyidagi rasmda keltirilgan (2.2.3-rasm).

²⁶ O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. Yillik statistik to'plam. 2010-2016. – Toshkent, 2017.



2.2.3-rasm. O‘zbekistonda 2010-2016 yillarda san’at, ko‘ngil ochish va dam olish sohasini rivojlantirishga kiritilgan investitsiyalar miqdori haqida ma’lumot (jamiga nisbatan foizda)²⁷

Ushbu rasmga asosan, mazkur sohalarni rivojlantirishda investitsiyalarning ulushi 2010 yilda 1 foiz, 2011 yilda 1,1 foiz, 2012 yilda 0,9 foiz, 2013 yilda 0,7 foiz, 2014 yilda 0,6 foiz, 2015 yilda 0,5 foiz va 2016 yilda 0,7 foiz miqdorida bo‘lgan. Hamda 2016 yilda 2010 yilga nisbatan investitsiyalarni kiritish hajmi 0,3 foizga kamaygan.

Biroq, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 20 martda qabul qilingan 1940-sonli 2013-2015 yillarda Xorazm viloyatida turizmni rivojlantirish dasturning uzviy davomi sifatida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil 8 iyundagi “Joylarda turizm sohasini rivojlantirish va turizm xizmatlari eksportini yanada oshirishni ta’minlashga qaratilgan aniq chora-tadbirlar to‘g‘risidagi”gi 30-sonli bayoni qabul qilingan.

Uning 13-ilovasi “Xorazm viloyatida turizm sohasini yanada rivojlantirish borasida 2016-2017 yillarga mo‘ljallangan aniq amaliy chora-tadbirlar rejasi”ning ijrosi bo‘yicha dasturga asosan 57,2 mlrd. so‘mlik investitsiya mablag‘lari jalb qilish hisobiga 81 ta loyiha amalga oshirilishi belgilangan bo‘lib, bugungi kunda

²⁷ O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. Yillik statistik to‘plam. 2010-2016. – Toshkent, 2017.

1864,5 mln. soʻmlik 16 ta loyiha toʻliq bajarilib, 65 ta loyihada ishlar davom etmoqda.

Umuman olganda, dam olish va hordiq chiqarish maskanlarini tashkil etish orqali turizmni kelajakda barqaror rivojlantirishga erishiladi. Ushbu maqsadda tuzilgan dasturlar va rejalarda tegishli investitsiyalar strategiyalari zarur boʻlib, u har tomonlama asoslab beriladi.

Ayniqsa, ular haqiqiy va umid qilingan chora-tadbirlarni amalga oshirishga moʻljallangan boʻlishi lozim. Bu holatlarda dam olish va hordiq chiqarish maskanlarini tashkil etishga qaratilgan turistik faoliyatni investitsiyalash jarayonida quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur:

- milliy, mintaqaviy, mahalliy dasturlar va rejalarida nazarda tutilgan tadbirlarni amalga oshirishga investitsiyalarni yoʻnaltirish;
- har tomonlama texnik-iqtisodiy asoslashga ega boʻlgan rejalar va dasturlarni tuzishni yoʻlga qoʻyish.
- xorijiy valyutadagi rejalarini amalga oshirishga ketadigan xarajatlarni kamaytirishni nazarda tutish;
- ichki, hamkorlikdagi va xorijiy investitsiyalarning manbalarni izlab topish;
- ichki va tashqi turizmni rivojlantirish dasturlari va rejalarini bajarishda huquqiy, soliq va maʼmuriy tuzilmalar tomonidan koʻrsatiladigan qoʻllab-quvvatlash tizimlaridan maksimal foydalanish;
- eng qisqa muddatlarda yuqori daromad olishga imkon beradigan istiqbolli loyihalarga investitsiyalar qoʻyish;
- tadbirkorlik loyihalarning dasturlari, rejaları va tadbirlari bajarilishining muddatlari va sifatini nazorat qilib borish;
- sohada investitsiyalashning eng maqbul strategiyasini eng kam sarf qilib, eng koʻp foyda olishni taminlashga qaratish.

2.3. Dam olish va hordiq chiqarish maskanlarining rivojlanishida

ekologik va iqtisodiy omillarning tutgan oʻrni va taʼsiri

Dam olish va hordiq chiqarish maskanlarini rivojlantirishda ekologik va iqtisodiy omillarning taʼsirini hisobga olish lozim. Mazkur omillar turizm sohasida

xalqaro hamkorlikni rivojlantirish uchun juda ham zarur bo‘lib, ular ijtimoiy va iqtisodiy o‘rishiga ta’sir qiladi hamda quyidagicha guruhlanadi:

- **iqtisodiy omillar.** Bularga dam olish va hordiq chiqarish maskanlarini rivojlantirishga naf beruvchi turistik tashkilotlar, infratuzilmaning sifati, iqtisodiy engilliklar, moliyaviy investitsiyalar va bank ssudalari kabilar kiradi. Mazkur iqtisodiy omillar tarkibida dam olish va hordiq chiqarish maskanlarida amalga oshiriladigan turistik faoliyatning muhim jihati iqtisodiy foyda sifatida u quyidagi ko‘rsatkichlar asosida ta’minlanadi:

- turizmdan olingan daromad, ya’ni uning yalpi milliy mahsulot yoki yalpi ichki mahsulotdagi salmog‘i;

- xalqaro turizmga ishlab topilgan xorijiy valyuta ulushi;

- turizmni rivojlantirish tufayli yaratiladigan yangi ishchi o‘rinlari.

Mazkur iqtisodiy omil dam olish va hordiq chiqarish maskanlarini rivojlantirish maqsadida davlat tomonidan ham amalga oshiriladi hamda quyidagi yo‘nalishlardan iborat bo‘ladi (2.3.1-jadval):

2.3.1-jadval

Davlatning iqtisodiy omillari tarkibi²⁸

davlatning kredit siyosati
davlatning soliq siyosati
iqtisodiy o‘rish harakatchanligi
aholining harid qobiliyati
mamlakatda inflyatsiya darajasi

Shuningdek, dam olish va hordiq chiqarish maskanlarining rivojlanishida iqtisodiy omillar qatoriga bandlikni kiritish mumkin. Bu borada **bandlikning** quyidagi turlari farqlanadi:²⁹

- to‘g‘ridan-to‘g‘ri. Bunga bevosita turistik korxonalarda yaratilgan ishchi o‘rinlari (mehmonxonalar, restoranlar, transport vositalari, turistlar uchun do‘konlar, turistik agentliklar va sayohatlar byurolari) kiradi;

²⁸ Manba: Usmanova Z.I. Turizm marketingi. – Samarqand: SamISI, 2008.

²⁹ Tuxliyev I.S., Qudratov G‘.X., Pardayev M.Q. Turizmni rejalashtirish. Darslik. – T.: Iqtisodiyot-moliya, 2010. - 224 b.

- bilvosita. Bu soha bilan turdosh sohalar, ya'ni qishloq xo'jaligi, transport, baliqchilik, sanoat korxonalarida yaratiladigan ishchi o'rinlari kiradi;

- qurilish va turistik infrastruktura sohasidagi bandlik.

Darhaqiqat, iqtisodiy samaradorligini oshirishning eng muhim omili dam olish va hordiq chiqarish maskanlari faoliyatida turizm tuzilmalari va iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari o'rtasidagi aloqalarni yaratish va doimiy mustahkamlash hisoblanadi. Bu holat quyidagi vazifalarni amalga oshirishga imkon beradi:

- turizmga import hajmini qisqartirish;

- mahalliy aholining bandligi va turizmdan tushadigan daromadlar hajmini oshirish;

- mahalliy qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini keskin oshirish;

- korxonalarning mahalliy mahsulotlar va qurilish hamda ta'mirlash ishlari uchun materiallardan ko'proq foydalanishini rag'batlantirish;

- mahalliy mehmonxonalar va boshqa infrastruktura obyektlaridan samarali foydalanish.

Avvalo, dam olish va hordiq chiqarish maskanlari faoliyatidan olinadigan foydani ko'paytirish uchun o'z obyektlari va xizmatlaridan foydalanishni har tomonlama rag'batlantirish zarur.

Bu masalani hal qilish uchun investitsiyaviy rag'batlantirish, aksiyadorlik jamiyatlari va firmalari, jumladan xorijiy firmalarni keng jalb qilgan holda yaratish, turizmning eng ustuvor shakllari va turlarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, dastlab chet elliklar egalik qilayotgan bosqichda kapital to'plab bo'lganidan so'ng, mahalliy tadbirqorlarning ushbu korxonalarni sotib olish sharti bilan ularga xorijliklar egalik qilishiga yo'l qo'yib berish kerak.

Shuning uchun ham, dam olish va hordiq chiqarish maskanlari faoliyatining iqtisodiy samaradorligini oshirish maqsadida yirik mehmonxonalarni xorijiy mehmonxonalar firmalari boshqaruviga berish lozim. Biroq, bu daromadning bir

qismidan voz kechishga olib keladi, ammo yuqori malakali boshqaruv, xalqaro marketing, joylarni bronlashtirishni ta'minlaydi.

Shular bilan birga, dam olish va hordiq chiqarish maskanlari faoliyatida mahalliy bandlikni rag'batlantirish zarur. Bunda mahalliy aholi o'rtasida mazkur sohadagi faoliyatning hurmatga sazovor ekanligi to'g'risida tushuntirish ishlari olib borish kerak.

Shuningdek, mahalliy aholi orasidan turistik korxonalarni boshqarishning o'rta va katta bo'g'inlari rahbarlarini tayyorlab borish kerak. Xorijiy rahbar xodimlarni mahalliy xodimlar bilan almashtirishni bosqichma-bosqich va uzoqroq istiqbolni ko'zlab amalga oshirish lozim.

Umuman olganda, dam olish va hordiq chiqarish maskanlari faoliyatida iqtisodiy omillardan foydalanish samaradorligini oshirish uchun mahalliy sanoat namunalari va xalq hunarmandchiligi buyumlarini sotib olish uchun kengroq imkoniyatlar yaratish hamda ko'ngilochar tomoshalar va boshqa tadbirlar tarmog'ini kengaytirish talab etiladi.

- **tabiiy yoki ekologik omillar.** Bularga tarixiy va arxeologik inshootlar, daryo, dengiz va ko'llar, yer osti davolovchi suvlar va tog'lardagi chiroyli manzaralar kiradi. Chunki, dam olish va hordiq chiqarish turizmi va atrof-muhit o'zaro bog'langan.

O'z navbatida tabiiy va inson tomonidan yaratilgan jismoniy muhit o'zining xushmanzara unsurlariga ega. Biroq, turistik faoliyat mazkur muhitga ijobiy va salbiy ekologik ta'sir ko'rsatadi.

Mazkur omil asosida turistlar tabiat qo'yniga chiqib, juda ko'p manzarali joylarni ko'rish va ulardan bahramand bo'lishga intiladilar. Shu boisdan ham, sayyohlik, dam olish uchun tabiiy sharoitning xilma-xilligi darajasi va xususiyati muhim ahamiyatga ega. Ya'ni, ma'lum bir hududning er usti ko'rinish manzarasi yoki landshafti, iqlimi, o'simlik va hayvonat dunyosi xilma-xilligi turistlarning dam olishi va o'z salomatligini tiklashi uchun asosiy vositalardan biri bo'lib hisoblanadi.

Ana shularni hisobga olib, dam olish va hordiq chiqarish maskanlarida turizmni rivojlantirish va uni boshqarishni amalga oshirishda o'tkaziladigan jarayonlarning atrof-muhitni buzishga xizmat qilmasligini hisobga olish lozim hamda bunda bilan uyg'unlashib ketishi kerak.

Chunki, turizm faoliyatini zarur darajada rejalashtirish va boshqarish natijasida katta ekologik jihatdan ijobiy ta'sir ko'rsatish imkoniyati yaratiladi. Bularning qatoriga quyidagilar kiradi:³⁰

- tabiiy hududlar, o'simliklar va hayvonot olamini muhofaza qilish, milliy yoki mintaqaviy parklar va qo'riqxonalar, boshqa turistik diqqatga sazovor joylarni rivojlantirishni asoslash va mablag' bilan ta'minlashga xizmat qilish;

- arxeologik va tarixiy obyektlarni saqlashni ular buzilib ketmasligi yoki umuman yo'qolib ketmasligi uchun asoslab berish va mablag' bilan ta'minlash;

- turistlar keladigan joylarning jozibadorligi, tozaligi va ifloslanmasligini ta'minlay borib, atrof-muhitning sifatini yaxshilash;

- mahalliy aholi, ayniqsa yoshlarning ekologik ma'rifati darajasi oshishiga ko'maklashish.

Shuningdek, dam olish va hordiq chiqarish turizmining salbiy ta'sir oqibatlariga quyidagilar kiradi:

- quvur yo'llari va qattiq chiqindilarni yo'q qilish tizimining noto'g'ri rivojlanishi oqibatida suvlarning ifloslanishi;

- noto'g'ri joylashgan turistik obyektlar, ularning mahalliy landshaft va chiroyli ko'rinishlar bilan uyg'unlashmaganligi, juda katta va yaltiroq reklama peshlavhalaridan foydalanish va boshqalar tufayli landshaftlar estetikasining yomonlashishi;

- turistik zonalarda ichki yonish dvigateliga ega transport vositalaridan haddan ortiq foydalanish hamda shovqinlarning ko'pligi;

- tabiiy joylar va turistik obyektlardan chiqindilarni o'z vaqtida olib chiqib ketish.

³⁰ Tuxliyev I.S., Qudratov G'.X., Pardayev M.Q. Turizmni rejalashtirish. Darslik. – T.: Iqtisodiyot-moliya, 2010. - 227 b

- turistlar oqimining foyda keltirmasligi kabi turistik obyektlarning asoslanmagan holda qurilishi oqibatida tabiiy zonalar ekologiyasining buzilishi;

- noto'g'ri foydalanish, turistlar oqimining haddan ortiq ko'payib ketishi yoki maqsadga muvofiq bo'lmagan qurilishlar tufayli arxeologik va tarixiy yodgorliklarga zarar etishi;

- erdan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan va turistik obyektlar va korxonalarni muvaffaqiyatsiz rejalashtirish, joylashtirish, loyihalash va qurish oqibatida yuzaga keladigan ekologik tavakkallar va muammolar.

Shunday qilib, barcha bosqichlarda dam olish va hordiq chiqarish maskanlarida turizmni rivojlantirishni rejalashtira turib, ekologiyaga salbiy ta'sirlarni kamaytirish bo'yicha har tomonlama tadbirlarni nazarda tutish, moliyaviy ta'minlash va samarali rejalashtirishni amalga oshirish zarur.

Jumladan, ekologik salbiy ta'sirlarni kamaytirish uchun turizm rejalarni ishlab chiqishda quyidagi maxsus choralarni ko'zda tutish kerak:

- turistik obyektlar uchun suv va elektr ta'minoti, kanalizatsiya, qattiq chiqindilarni yo'q qilish va suv tarnovlari tizimini qurishda loyihalarga qat'iy amal qilish, to'plangan suvlarni tozalash va qayta ishlash, isitish uchun quyosh batareyalaridan foydalanishni keng joriy qilish;

- ekologik toza transport va yo'l tizimlaridan foydalanish. qurilishi tugallanmagan ochiq hududlardan foydalanish, parklar yaratish va turistik zonalaridagi hududlarni obodonlashtirish;

- erdan foydalanish va obyektlarni rejalashtirishning maqsadga muvofiq tamoyillarini qo'llash, zonalashtirish qoidalari, qurish va arxitekturaviy loyihalashtirish me'yorlariga rioya qilish hamda reklama joyonlari va peshlavhalarini joylashtirishni tartibga solish;

- turistik diqqatga sazovor joylar zonalarida keluvchilar oqimini boshqarish, keluvchilarning sonini cheklash yoki ularning kelishini to'xtatib qo'yish;

- turistlarga kemping zonolari va piyoda yurish so'qmoqlarida daraxtlarni kesish, kamyob o'simliklarni to'plash hamda yovvoyi hayvonlarning tabiiy xulq-atvorini buzishni man qilish;

- nazorat qilinadigan joylarda baliq ovi va miltiq bilan ov qilishga ruxsat etish;

- turistlar va mahalliy aholining foydasi yo'lida ekologik sog'lom va xavfsizlik me'yorlarini tayyorlash.

Biroq, dam olish va hordiq chiqarish maskanlarida ekologik xavfsizlik va atrof-muhitni saqlash bo'yicha tadbirlar o'tkazilayotgan bo'lsa, u holda ular haqida ushbu choralarga rioya qilish maqsadida turistlarga bu haqda darrov xabar qilinishi kerak. Bunda turistik resurslarni saqlash eng muhim masala bo'lib, ular dam olish va hordiq chiqarish maskanining tarkibiy qismi sifatida o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi. Hamda, resurslar mamlakat hayotiga sezilarli darajada ta'sir qiladi.³¹

Dam olish va hordiq chiqarish maskanlarida atrof-muhitni muhofaza qilish tadbirlarini hisobga olgan holda ekologik rejalashtirish tamoyillarini amalga oshirish ekologik muammolarning oldini olishga xizmat qiladi hamda natijada baholashga erishiladi.

Chunki, atrof-muhitga ta'sirni baholashni sohani rivojlantirishning har bir aniq loyihasi bo'yicha amalga oshirish zarur.³² Agar ko'rib chiqilayotgan loyiha ekologiyada salbiy muammolarning yuzaga chiqish mumkinligi aniqlansa, uni tuzatishlar kiritmay turib tasdiqlab bo'lmaydi.


Shu bois, dam olish va hordiq chiqarish maskanlarini rivojlantirishning barcha bosqichlarida mazkur baholash choralari qo'llash tartibi mamlakat qonunlari bilan belgilanadi. Ya'ni, ushbu ta'sirning barcha turlari: ekologik-iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy ta'sirlarni rejalashtirish jarayonini to'la qamrab olishi kerak.

Darhaqiqat, dam olish va hordiq chiqarish maskanlarining rivojlanishida ekologik va iqtisodiy omillar birgalikda qo'llanilib, mazkur maskanlarda turizm faoliyatini amalga oshirish uchun ijobiy ta'sir qiladi. Chunki, omil biror-bir jarayonning harakatga keltiruvchi va uning xususiyati yoki xususiyatlarini ochib beruvchi sababdir.

³¹ Ibodullayev N.E. O'zbekistonning turistik resurslari. Ma'ruzalar matni. – Samarqand: SamISI, 2008. - 15 b.

³² Tuxliyev I.S., Qudratov G'.X., Pardayev M.Q. Turizmni rejalashtirish. Darslik. – T.: Iqtisodiyot-moliya, 2010. - 229 b.

Shular qatorida dam olish va hordiq chiqarish maskanlarini rivojlantirish omillari obyektiv ta'sir etuvchi turli qonunlar natijasida yuzaga keluvchi sohani rivojlantirish shart-sharoitlari hisoblanadi. Mazkur omillar majmuaviy shaklda quyidagi guruhlarga ajratiladi (2.3.1-rasm):




2.3.1-rasm. Dam olish va hordiq chiqarish maskanlarini rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar tarkibi³³

Mazkur rasmda keltirilgan dam olish va hordiq chiqarish maskanlarini rivojlantirishning ekstensiv omillariga dam olish va hordiq chiqarish maskanlarida ishlovchi xodimlar sonining o'sishi hamda jalb etiladigan resurslar, joylashtirish, tashish vositalari va ovqatlantirish korxonalari sonining oshishi kiradi.

Shuningdek, dam olish va hordiq chiqarish maskanlarini rivojlantirishning intensiv omillariga sohada ishlovchi xodimlarning malakasini oshirish, ilmiy-texnik taraqqiyotning yutuqlari asosida xizmat sifatini yanada oshirish, turistik resurslardan ratsional foydalanish hamda axborot texnologiya vositalaridan keng foydalanish kabi sifatiy yangilanish omillari kiradi.

Biroq, dam olish va hordiq chiqarish maskanlarini rivojlantirishning cheklovchi salbiy omillari qatoriga siyosiy va moliyaviy beqarorlik, kriminogen vaziyat va tabiiy ofatlarning kuzatilishi kiradi. Dam olish va hordiq chiqarish maskanlari uchun ekologik va iqtisodiy omillar o'zaro bog'liq ravishda quyidagi guruhlarga ajratiladi (2.3.2-rasm).

³³ Manba: Kamilova F.K., Ro'ziyev S.S. Turizm marketingi. O'quv qo'llanma. – T.: TDIU, 2007.



2.3.2-rasm. Dam olish va hordiq chiqarish maskanlarini rivojlantirishda ekologik-iqtisodiy omillarning bogʻliqligi³⁴

Mazkur rasmdan koʻrinadiki, dam olish va hordiq chiqarish maskanlarini rivojlantirish faoliyati milliy, mintaqaviy, hududiy va mahalliy darajada tartibga solinadi. Bunda respublikamizning sohaga oid qonunlari, Oʻzbekiston Prezidentining Farmonlari va Qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, soha faoliyatini muvofiqlashtiruvchi idora va tashkilotlarning turli yoʻriqnomalari, Nizom va qoidalari, hududlarda hokimliklarning Farmoyishlari va qarorlari, mintaqaviy idoralar va boshqarmalarning boshqa meʼyoriy-huquqiy hujjatlari xizmat qiladi.

Umuman olganda, dam olish va hordiq chiqarish maskanlarining rivojlanishida ekologik va iqtisodiy omillarning taʼsiri natijasida quyidagi yoʻnalishlardagi chora-tadbirlarning amalga oshirilishiga erishiladi:

- dam olish va hordiq chiqarish maskanlarida yangi ish oʻrinlarini barpo etish;
- mahalliy aholining turmush darajasini oshiruvchi daromadlarini koʻpaytirish;
- urbanizatsiyaning kuchayishi, shaharlashuv va infratuzilma obyektlarini rivojlantirish;

³⁴ Manba: www.ziynet.uz

- qishloq xo'jalik mahsulotlari va mahalliy tovarlarga bo'lgan talabni oshirish;
- mahalliy madaniyat yodgorliklarni saqlash va qayta tiklash ishlarini amalga oshirish;
- tabiat majmualarini yanada kengaytirish va maskanning jozibadorligini oshirish.

II-bob bo'yicha xulosa

Ma'lumki, dam olish va hordiq chiqarish maskanlari ekologik-iqtisodiy rivojlanish omillari va xususiyatlariga egaligi bilan ajralib turadi. Mazkur omil va xususiyatlari o'z navbatida dam olish va hordiq chiqarish maskanlarida turizm faoliyatini tashkil etish orqali turistlarni keng jalb qilib, foyda olishga qaratiladi. Buning uchun sohaga investitsiyalarni keng jalb qilish lozim.

Natijada, dam olish va hordiq chiqarish maskanlarining ish faoliyati yanada yaxshi rivojlanadi, biroq ekologik va iqtisodiy omillarning ta'sirini hisobga olish esa kelajakda iqtisodiy samaradorlikni yanada oshirishga va ekologiyani yomonlashtirmaslikka zamin yaratadi.

III-BOB. MINTAQADA DAM OLIISH VA HORDIQ CHIQARISH MASKANLARINING EKOLOGIK-IQTISODIY RIVOJLANISH OMILLARIDAN FOYDALANISH YO‘NALISHLARI

3.1. Mintaqada dam olish va hordiq chiqarish maskanlarining holati

Bugungi kunda Xorazm viloyati mintaqasida dam olish va hordiq chiqarish maskanlaridan foydalanib, bunda ularning ekologik-iqtisodiy rivojlanish omillari hisobga olinadi. Mazkur maskanlar tarixiy-madaniy yo‘nalishdagi dam olish joylari hisoblanadi. Biroq, Xorazm viloyatida dam olish va hordiq chiqarish maskanlariga, eng avvalo sanatoriya-kurort muassasalarini kiritish mumkin.

Sanatoriya-kurort muassasalarining ko‘rsatadigan xizmatlari ijtimoiy-madaniy xizmatlar sifatida mazkur xizmat turini taqdim etish bo‘yicha servis faoliyati iste’molchilarga dunyoning eng qulay rekreatsion zonalarida dam olish va sog‘lig‘ini tiklash imkoniyatlarini ta‘minlaydi. Biroq, sanatoriya-sog‘lomlashtirish xizmatlariga bo‘lgan ehtiyoj turlari mintaqada iqlim sharoitlarning inson sog‘lig‘iga ijobiy ta‘sirini isbotlab bergan tibbiyotning rivojlanishi orqali vujudga keladi.

Sanatoriya-sog‘lomlashtirish xizmatlarini ko‘rsatish uchun tanlangan va qulay obyekt bo‘lishi kerak. Bu kurort bo‘lib, iqlimiy shifobaxsh resurslarga ega bo‘lgan infratuzilma obyektlarini qo‘shgan xolda ularni ekspluatatsiya qilish uchun zarur bo‘lgan bino va qurilmalarga ega bo‘lgan, o‘zlashtirilgan va davolash-profilaktika maqsadlarida foydalaniladigan alohida qo‘riqlanadigan tabiat hududi sanaladi.

Shuningdek, tabiat-davolash resurslariga mineral suvlar, davolovchi balchiqlar, shifobaxsh iqlim, kasalliklarni davolash va oldini olishni tashkil qilish, dam olishni tashkil etish maqsadlari uchun zarur bo‘lgan hamda foydalanilayotgan boshqa tabiiy obyektlar va sharoitlar kiradi. Ana shunday xizmatlardan foydalanishga kasaba uyushma tashkilotlari yaqindan ko‘maklashmoqdalar.

Umuman olganda, sanatoriya-sog‘lomlashtirish xizmatlari bir-birlariga o‘zaro monand bo‘lgan yashash, sanatoriyalarda davolanish, sanatoriya profilaktoriyalar, pansionatlarda davolanish, kurort poliklinikalar, balneologik davolanish va balchiq bilan davolash kabi xizmatlarning majmuasi shaklida ko‘rsatiladi.

Ularda sanatoriyalar qulay tabiiy sharoitlardan foydalanilgan holda insonlarning davolanishlari va dam olishlari uchun muassasa sanaladi.

2016 yilda Xorazm viloyatida sanatoriya-kurort muassasalari faoliyat olib borib, quyidagi ko'rsatkichlarga egaligi bilan ajralib turadi (3.1.1-jadval):

3.1.1-jadval

2016 yilda Xorazm viloyatida faoliyat olib borgan sanatoriya-kurort muassasalari faoliyati haqida ma'lumot, birlikda³⁵

Sanatoriya-kurort muassasalari va ularning turlari	Jamoaviy joylash-tirish vositalari soni	Ular-dagi obyekt-lar	Nomer fondi		Joylash-tirilgan shaxslar soni	Shu jumladan O'zbekiston fuqarolari	Tunab qolish-lar soni
			nomerlar (xonalar)	joylar			
Sanatoriya-kurort muassasalari	4	4	88	405	3986	3986	96947
Katta yoshlilar uchun sanatoriya	1	1	44	80	1685	1685	15700
Bolalar uchun sanatoriya	1	1	9	250	1334	1334	72061
Sanatoriya-profilaktoriya	2	2	35	75	967	967	9186

Mazkur 3.1.1-jadvalga asosan 2016 yilda Xorazm viloyatida jami 4 ta sanatoriya-kurort muassasalari faoliyati olib borgan. Ulardagi obyektlar soni ham 4 taga, ulardagi nomerlar soni 88 taga, nomerlardagi joylar soni 405 taga, joylashtirilgan shaxslar soni (O'zbekiston fuqarolari) 3986 nafarga va tunab qolishlar soni 96947 taga teng bo'lgan. Hamda sanatoriya-kurort muassasalarining 1 tasi katta yoshlilarga, 1 tasi bolalarga va 2 tasi sanatoriya-profilaktoriyalarga to'g'ri keladi.

Shular bilan birga, 2016 yilda Xorazm viloyatida shahar va tumar hududlari bo'yicha dam olish muassasalari va sayyohlik bazalari faoliyat yuritgan (3.1.2-jadval).

³⁵ Manba: Xorazm viloyati statistika boshqarmasining ma'lumotlari

3.1.2-jadval


2016 yilda Xorazm viloyatining hududlari bo'yicha dam olish muassasalari va sayyohlik bazalari faoliyati haqida ma'lumot³⁶

Hududlar tarkibi	Dam olish muassasalari soni, birlik	Nomer fondi, birlik		Joylash-tirilgan shaxslar soni, kishi	Tunab qolishlar soni, birlik
		Nomerlar (xonalar)	Joylar		
Xorazm viloyati	15	272	1987	4452	39489
Bog'ot tumani	1	12	100	1165	1165
Gurlan tumani	3	18	341	-	-
Qo'shko'pir tumani	1	45	90	270	3240
Urganch tumani	2	28	236	1087	13044
Hazorasp tumani	1	35	90	270	3240
Xonqa tumani	4	86	510	990	10760
Yangiariq tumani	1	6	240	-	-
Yangibozor tumani	2	42	380	670	8040

Ushbu 3.1.2-jadvalga asosan, 2016 yilda Xorazm viloyati bo'yicha jami dam olish muassasalari va sayyohlik bazalari soni 15 tani tashkil etib, ularning 1 tasi Bog'ot, Qo'shko'pir, Hazorasp va Yangiariq tumanlariga, 2 tasi Urganch va Yangibozor tumanlariga, 3 tasi Gurlan tumaniga va 4 tasi Honqa tumaniga to'g'ri keladi.

2016 yilda Xorazm viloyatida ta'til, bo'sh vaqt va dam olish maqsadlari bo'yicha dam olish muassasalari va sayyohlik bazalarida aholi guruhi joylashtirilgan va dam olganlar. Bu guruhning barchasi mahalliy aholiga to'g'ri keladi (3.1.1-rasm).

³⁶ Manba: Xorazm viloyati statistika boshqarmasining ma'lumotlari



3.1.1-rasm. 2016 yilda viloyatda ta'til, bo'sh vaqt va dam olish maqsadlari bo'yicha hududlarda dam olish muassasalari va sayyohlik bazalarida joylashtirilgan shaxslarning taqsimlanishi³⁷

Rasmga asosan, Xorazm viloyati bo'yicha bo'sh vaqt va dam olish maqsadlari bo'yicha dam olish muassasalari va sayyohlik bazalariga joylashtirilganlar ulushi Bog'ot tumanida 824, Qo'shko'pir tumanida 270, Urganch shahrida 1087, Hazorasp tumanida 270, Xonqa tumanida 990 va Yangibozor tumanida 670 nafar kishiga to'g'ri keladi.

Biroq, Xorazm viloyatida joylashgan dam olish va hordiq chiqarish maskanlarining eng katta turi bugungi kunda tarixiy-madaniy meros obyektlari hisoblanadi. Tarixiy meros obyektlari Xorazm viloyatidagi qadimgi va o'rta asrlar arxeologik yodgorliklari sifatida o'rganilishi natijasida qayta ta'mirlangan. Chunki, asosan tarixiy meros obyektlari dam olish va hordiq chiqarish maskanlarining faqat ma'lum qisqa vaqt ichida ko'rib tomosha qiladigan joy va hudud bo'lib hisoblanadi. Mazkur holat hozirgi kunda Xorazm hududining qadimgi va o'rta

³⁷ Manba: Xorazm viloyati statistika boshqarmasining ma'lumotlari

asrlar shaharlar tarixi va uning moddiy madaniyati masalasi, topografik jihatdan tuzilishini o'rganish shu kungacha ilmiy jihatdan to'la-to'kis tadqiq qilinmagan muammolardan sanaladi.

Ana shu keltirilgan muammo doirasida, ayniqsa kattaligi jihatdan o'rtacha hajmdagi shahar tiplariga asosiy e'tibor qaratiladi. Bunday tipdagi shaharlarning moddiy madaniyati, topografik tuzilishi haqida qo'proq yozma manbalarda ma'lumot keltiriladi. Ammo, arxeologik jihatdan ushbu manbalarni tasdiqlash borasida bugungi kunda eng muhim va ko'p ishlar qilinmagan.

Ammo, Xorazm viloyatida ham faqat Hozorasp, Xivada keng arxeologik tadqiqotlar o'tkazilgan, ammo ularning o'rganilishi jarayonida shaharning qadimgi va o'rta asrlardagi ichki tuzilishini to'la yoritish uchun imkoniyat bo'lmagan va asosan mudofaa devori atrofida qisman ishlar qilingan. Chunki, bu yodgorliklarning asosiy qismida hozirgi kungacha ham aholi istiqomat qiladi.

Xorazm shaharlarining tarixi, moddiy madaniyati, ularning Sharq va G'arb mamlakatlari orasidagi iqtisodiy va madaniy aloqalar tarixi ko'pgina tadqiqotchilar merosidan o'rin egallagan. Bu borada qadimgi Xorazm shahar madaniyati tarixi manbalarda juda sust aksini topgani holda, Xorazm o'rta asr shaharlarining topografik tuzilishini o'rganishda asosan o'rta asrlar arab, fors, xitoy va evropalik geograflar, sayyohlar, tarixchi olimlarning turli davrlarga oid ilmiy asarlari, xotiralari va boshqa nodir qo'lyozmalar katta rol o'ynaydi.

Darhaqiqat, viloyatda o'rganilgan va tadqiq qilingan tarixiy-madaniy meros obyektlari ro'yxatga olingan va qayd qilingan turistik resurslar sifatida tan olingan. Xususan, viloyatdagi tabiiy biologik xilma-xillik, iqlimiy resurslar, daryo sohili resurslari, viloyatdagi tabiiy buyurtmalar, xalqaro turizmning asosiy obyektlari bo'ladigan xalq hunarmandchiligi, milliy o'yinlar va urf-odatlar endilikda ro'yxatga olinmoqda. Hozirgi kunda tarixiy-madaniy meros obyektlari sifatida hisoblangan Xorazm viloyatida 20 dan ortiq tarixiy yodgorliklari aniqlangan. Bu yodgorliklar joylashgan hududlar quyidagi tarixiy-geografik zonalarga bo'linadi.³⁸

³⁸ Matyaqubov U.R. Ekologik vaziyatni inobatga olib, turizm samaradorligini oshirish yo'nalishlari va istiqbollari (Xorazm viloyati misolida). // Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – 108 b.

- Xiva (Xiva va Tuproqqala yodgorliklari);
- Yangiariq (Tuproqqal'a, Olmaotishgan-1 va Olmaotishgan-2 yodgorliklari);
- Bog'ot (Qal'ajiq va Qoratepa yodgorliklari);
- Shovot (Tuproqqal'a, Katqal'a va Vayangan yodgorliklari);
- Hazorasp (Hazorasp, Qirqqiztepa, Xumbuztepa, Chingiztepa, Doshqala, Ucho'choq va Meshekli yodgorliklari);
- Qo'shko'pir (Tuproqqal'a va Xo'jaqal'a yodgorliklari).

Ayniqsa, Hazorasp tumanidagi yoshi 3000 yilga teng bo'lgan Hazorasp qal'asi ichki turizm ham, xalqaro turizm ham juda katta turistik oqimni hosil qilishi mumkin. Ammo, bu qal'aga boriladigan yo'lni qayta ta'mirlash ta'mirlashni talab qiladi.

Demak, ekologik vaziyat keskin bo'lgan Xorazm viloyatida turistik resurslar va turistik marshrutlarni to'g'ri tanlashda va ishlab chiqarishda mamlakatimizdagi eng ko'hna ushbu qal'adan viloyatda turizm samaradorligini oshirish birinchi navbatda foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Xorazm viloyati turizmida milliy merosning tutgan o'rni turistik obyektlardan foydalanish bilan belgilanadi. Ma'lumki, butunjahon madaniy meros ruyxatiga kiritiladigan obyektlarning quyidagi xususiyatlari alohida hisobga olinadi:

- inson ijodining noyob namunalari;
- ajoyib madaniy, arxitektura obyektlari, hamda madaniy landshaftlarining alohida ahamiyatga ega hududlari;
- zamonaviy sivilizatsiyaning noyob namunalari va qurilishlari;
- inson tarixi bilan bog'liq binolar yoki arxitektura ansambllari va landshaftlari.

Shu bilan birga, tabiatning noyob ko'rinishlariga oid butunjahon ruyxatiga kiritiladigan xususiyatlari ham mavjud bo'lib, bu quyidagilardan iborat qilib belgilangan:

- geologik-geomorfologik jarayonlar asosida shakllangan yodgorliklar;
- turli-tuman o'ziga xos ekotizimlar va landshaftlar;
- ma'lum mintaqaning o'simlik, hayvonlari va kamyob biologik turlar.

Bu yerda “turistik hudud” yoki “akvatoriya” alohida tanlab olingan meros obyektni belgilovchi yo‘nalish bo‘lib, u o‘z ichiga turistik faoliyatda foydalanadigan noyob turistik resurslar joylashgan hududni oladi. Hamda, Buyuk Ipak yo‘lida joylashgan Xorazm viloyati qadim-qadimdan tujjorlar, sayyohlar, elchilar, butun insoniyatning doimo diqqat-e’tiborida bo‘lib kelgan.

Zero, tarix silsilasining ajralmas bo‘lagi hisoblangan vohaning me’moriy obidalari, dunyo ilm-fani taraqqiyotiga bemisli hissa qo‘shgan buyuk ajdodlarimiz merosi, xalqimizning urf-odatlarini an‘analari sayyohlarni o‘ziga ohanrabodday jalb eta oladi.

Ta’kidlash lozimki, hududda turli davr va sivilizatsiyalarga dahldor 4000 dan ortiq qadimiy me’morchilik va san’at yodgorliklari mavjud bo‘lib, ulardan 140 tasi YUNESKO tomonidan muhofazaga olingan tarixiy obyektlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Aynan, boy madaniy-tarixiy meros, manguylikka dahldor ko‘hna shaharlardagi noyob me’moriy obidalar Xorazm viloyatining xalqaro sayyohlik bozoridagi salohiyatdan dalolat beradi. Shular qatorida, Xorazm viloyatining turistik resurslari ichida jahon ahamiyatidagi madaniy obyektlar va yodgorliklar asosiy o‘rinda turadi va viloyatning madaniy merosi quyidagi omillar bilan belgilanadi (3.1.3-jadval):

3.1.3-jadval

Xorazm viloyatining madaniy merosi tarkibi³⁹

№	Madaniy meros nomlari	Madaniy merosning tarkibi
1.	Yodgorliklar	Arxitektura binolari, arxeologik ahamiyatidagi joylar, ilmiy, madaniy va tarixiy ahamiyatga ega g‘orlar, yozuvlar
2.	Ansambllar	Ilmiy, madaniy yoki tarixiy ahamiyatga ega o‘zaro bog‘langan binolar guruhi
3.	Mehmondo‘stlik joylari	Inson yoki tabiat tomonidan yaratilgan estetik, etnografik, tarixiy ahamiyatga ega bo‘lgan, o‘ziga jalb qiluvchi o‘ziga xos joylar

³⁹ www.xorazm.uz

Jadvalga muvofiq, Xorazm viloyati madaniy merosini rivojlantirish maqsadida “Tarixiy-madaniy meros obyektlarni ta’mirlash va holatini yaxshilash”ga doir 15,2 mln. AQSh dollariga teng (5,6 mlrd. so‘m) 39 ta madaniy meros obyektlarini ta’mirlash ishlarini amalga oshirish rejalashtirilgan bo‘lib, qabul qilingan dastur doirasida davlat budjeti mablag‘lari hisobidan 19 ta obidada 6,8 mlrd.so‘mlik ta’mirlash va tiklash ishlari amalga oshirildi.

Xususan, “Chodra hovli” majmuasida 14,5 mln. so‘mlik, “Muzxona” obidasida 36,4 mln. so‘mlik, “To‘rt Shovvoz” majmuasida 571,8 mln. so‘mlik, “Bog‘i shamol” majmuasida 150 mln. so‘mlik, “Nurullaboy” majmuasining kirish qismida 80 mln. so‘mlik ishlar bajarildi.

Darhaqiqat, bugungi kunda Xorazm viloyatidagi barcha madaniy meros obyektlarining yagona reestri yaratilib, obyektlarning joriy holati aks etgan pasportlari tuzildi. Har bir obyektning madaniy-tarixiy ahamiyati bo‘yicha axborot-ma’lumot bazasi Ma’mun akademiyasi bilan hamkorlikda shakllantirish ishlari yakunlandi.

Biroq, xalqaro turizm va ichki turizmni rivojlantirishda tajribasizlik, turizm sohasini rivojlantirishda eng sust, qoniqarsiz harakatlarning natijasida o‘tmish tarixiy-madaniy yodgorliklardan foydalanishda tarixni yaxshi bilmaslik ma’lum bo‘lib qolmoqda.

Qadimiy sivilizatsiya qoldiqlari – arxeologik yodgorliklarga turistlarni taklif qilganda ham ushbu yodgorliklar haqida turistlarni hayron qoldiradigan gid-boshlovchilar tarixiy lahzalarni yaxshi aytib bera olmaydilar.

Bu esa Xorazm tarixining ko‘pchilik masalalarining o‘z echimini kutib turishidan dalolat beradi. Ya’ni, Xorazm tarixidagi ko‘pgina dolzarb muammolarni faqat iqtidorli yoshlardan malakali mutaxassislarni yetishtirish va mahalliy yoshlarimizda ko‘hna tariximizning dolzarb muammolariga qiziqishni yanada kuchaytirish orqali echish mumkin.

Mazkur obyektlardan samarali foydalanish uchun quyidagi mavjud tarixiy-madaniy meros obyektlaridan samarali va unumli ravishda keng foydalaniladi (3.1.4-jadval).

3.1.4-jadval

2017 yilda Xorazm viloyatda mavjud tarixiy-madaniy meros obyektlari to'g'risida ma'lumot⁴⁰

№	Hududlar nomi	Arxeolo- giya yodgor- liklari	Arxi- tektura yodgor- liklari	Haykal- taroshlik san'ati yodgorlik- lari	Diq- qatga sazovor joylar	Muqad- das joylar	Ja- mi
1	Urganch shahar	-	8	8	5	3	24
2	Urganch tumani	1	4	14	-	4	23
3	Xiva shahar	4	88	8	1	1	102
4	Xiva tumani	-	10	9	-	1	20
5	Hazorasp tumani	7	11	4	-	3	24
6	Shovot tumani	3	2	3	-	1	9
7	Bog'ot tumani	1	2	4	-	7	14
8	Yangiariq tumani	2	1	3	-	2	8
9	Gurlan tumani	-	1	5	-	1	7
10	Yangibozor tumani	-	-	4	-	1	5
11	Qo'shko'pir tumani	-	1	1	-	7	9
12	Xonqa tumani	-	5	4	-	1	10
	Jami:	18	132	67	6	32	255

Jadvalga asosan, viloyat bo'yicha jami tarixiy-madaniy meros obyektlarining soni 255 ta tashkil etib, undan 18 tasi arxeologiya yodgorliklariga, 132 tasi arxitektura yodgorliklariga, 67 tasi haykaltaroshlik san'ati yodgorliklariga, 6 tasi diqqatga sazovor joylarga hamda 32 tasi muqaddas joylarga to'g'ri keladi. Bu esa o'z navbatida ular sonining ko'pligi va ulardan to'liq ravishda foydalanilayotganligini ko'rsatadi.

Darvoqe, ko'hna Xorazm o'zining boy tarixi, moddiy va ma'naviy madaniyati, ulkan ilmiy merosi bilan jahon tarixiy taraqqiyotida munosib o'rin tutadi. Xorazm o'rta asrlarda yanada rivojlanib, iqtisodiy, siyosiy va madaniy jihatdan dunyodagi eng taraqqiy qilgan davlatlardan biri bo'lgan.

Shu jihatdan olganda bu o'lka tarixi va madaniyatini o'rganishga qiziqish hamma vaqt yuqori bo'lgan. Zero, bu o'lkada sayyohlarni o'ziga jalb qiluvchi tarixiy shahar va qal'alari, qadimgi sivilizatsiya o'choqlaridan biri bo'lganligidan

⁴⁰ Manba: O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi Xorazm viloyati hududiy boshqarmasining ma'lumotlari

dalolat beruvchi arxeologik va antropologik yodgorliklarning mavjudligi hududda kelajakda turizm sohasini samarali rivojlantirish imkonini beradi.

Ana shuning uchun ham, viloyatda turizm sohasini rivojlantirish ko‘p jihatdan tarixiy o‘lkashunoslikni rivojlantirish bilan chambarchas bog‘liqdir. Tarixiy o‘lkashunoslik va turizmning asosiy manbalarini arxeologiya, etnografiya, toponimika, arxiv hujjatlari hamda muzey materiallari kabilar tashkil etadi.

Darhaqiqat, dam olish va hordiq chiqarish maskanlari faoliyatining uzluksiz ishlashini ta‘minlash maqsadida Xorazm viloyatining turistik salohiyati yuqori bo‘lgan beshta tuman va shaharlarida mehmonxonalar o‘zining faoliyatini ko‘rsatmoqdalar va ular tomonidan turistlarning ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan mehmonxona xizmatlarini ko‘rsatilmoqda.

Bularni amalga oshirish borasida viloyatda faoliyat yuritayotgan mehmonxonalar quyida keltirilgan 2,3 va 4 yulduzli kategoriyalarga ajratiladi (3.1.5-jadval):

3.1.5-jadval

2017 yilda Xorazm viloyatida faoliyat ko‘rsatgan mehmonxonalar haqida ma‘lumot⁴¹

№	Shahar va tumanlar nomi	Mehmonxonalar soni	Mehmonxonalardagi jami xonalar soni	Mehmonxonalar-dagi jami o‘rinlar soni	Mehmonxonalar kategoriyasi				
					2 yulduzli	3 yulduzli	4 yulduzli	5 yulduzli	B&V
1.	Urganch shahri	15	390	645	1	6	2		6
2.	Urganch tumani	2	13	27					2
3.	Xiva shahri	38	825	1632	1	10	1		26
4.	Gurlan tumani	1	6	13					1
5.	Hazorasp tumani	4	50	120	1	1			2
Jami:		60	1284	2437	3	17	3		37

⁴¹ Manba: O‘zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi Xorazm viloyati hududiy boshqarmasining ma‘lumotlari.

Jadvalga asosan, 2017 yil davomida viloyatning 2 ta shahari va 3 ta tumanida mehmonxonalar faoliyat olib borib, viloyat bo'yicha jami mehmonxonalar soni 60 tani tashkil etgan. Mehmonxonalardagi jami xonalar soni 1284 tani va mehmonxonalardagi jami o'rinlar soni 2437 tani tashkil etgan.

Biroq, ushbu yilda viloyatda mehmonxonalar kategoriyalarga ajratilgan hamda unga asosan 2 yulduzli mehmonxonalar soni 3 tani, 3 yulduzli mehmonxonalar 17 tani, 4 yulduzli mehmonxonalar soni 3 tani tashkil etadi. Hamda 5 yulduzli mehmonxonalar mavjud emas. Ammo, B&V kategoriyali mehmonxonalar soni 37 tani tashkil etgan.

Shuningdek, viloyatda turistlarni dam olish va xordiq chiqarish industriyasini rivojlantirish borasida 2013 yil 5 aprel kunidan boshlab, "Doston folklor", "Xiva folklor" etnografik xalq ansambli va "Sayqal" oilaviy folklor ansambllaridan iborat badiiy jamoalar "Ollaqulixon" madrasasida mavsum davomida xorijiy sayyohlarga har kuni o'z konsert dasturlarini namoyish qilib boshladilar.

Undan tashqari, "Ichon-Qal'a" majmuasida 2013 yilning sentyabr oyidan sayyohlarga o'zbek milliy kino durdonalari namoyishini tashkil qilish maqsadida "Tohir va Zuhra", "Nasriddinning sarguzashtlari", "Alisher Navoiy", "O'tgan kunlar" kabi o'zbek milliy kino durdonalari ingliz tili subtitrlarda mavsum davrida har kuni "Ko'hna Ark" yozgi kinoteatrda sahna tomoshalari sayyohlarga namoyish etilmoqda. Shuningdek, viloyat "Ogahiy" nomidagi drama teatri va viloyat qo'g'irchoq teatri bilan hamkorlikda 2014 yilning aprel oyidan "Tosh hovli" majmuasida "Xon qabulida" deb nomlanuvchi teatrlashtirilgan sahna tomoshalari sayyohlarga ko'rsatilmoqda.

Xiva shahrida sayyohlarni ko'proq jalb qilish maqsadida suvenir mahsulotlari, Xorazm turizm brendlarini aks ettirib trikotaj mahsulotlarini ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish hamda mavjudlari faoliyatini yanada kengaytirish ishlari olib borilmoqda.

Natijada, Xiva shahridagi "Ichon-Qal'a" davlat muzey-qo'riqxonasiga tashrif buyurgan sayyohlarning soni yildan-yilga ko'payib borib, ularning tarkibi mahalliy va xorijiy sayyohlar guruhiga to'g'ri keladi (3.1.6-jadval).

3.1.6-jadval

2013-2016 yillarda Xorazm viloyatining “Ichon-Qal’a” davlat muzey-qo‘riqxonasiga tashrif buyurgan sayyohlar haqida ma’lumot⁴²

Sayyohlar guruhi	Yillar			
	2013	2014	2015	2016
Jami	728665	735004	737801	741614
mahalliy	687628	698079	707526	708229
xorijiy	41037	36925	30275	33385

Mazkur jadvalga asosan, “Ichon-Qal’a” davlat muzey-qo‘riqxonasiga 2016 yilda jami 741614 nafar sayyoh tashrif buyurgan bo‘lsa, ulardan 708229 nafari mahalliy sayyohga va qolgan 33385 nafari xorijiy sayyohlarga to‘g‘ri keladi.

Umuman olganda, yuqoridagilardan kelib chiqqan holatda Xorazm viloyati mintaqasida dam olish va hordiq chiqarish maskanlarining holatini yaxshilash uchun quyidagi yo‘nalishlardagi chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim:

- hududga oid tarixiy-geografik tadqiqot ishlarini yanada jonlantirish va keng rivojlantirish;
- madaniy va tarixiy obidalarni arxeologik jihatdan tadqiq etishni yanada rivojlantirish;
- dam olishni ta’minlaydigan turistik xizmatlarning hozirgi faoliyatini yanada takomillashtirish yuzasidan ilmiy va amaliy takliflarni ishlab chiqish;
- dam olish turizmi sohasini amalga oshirish bo‘yicha yuqori malakali kadrlarga bo‘lgan ehtiyojni qondirishga ko‘maklashish.

3.2. Mintaqada dam olish va hordiq chiqarish maskanlarining rivojlanishida viloyat tashkilotlarining o‘rni va vazifalari

Xorazm viloyati mintaqasida dam olish va hordiq chiqarish maskanlarining rivojlanishida viloyat tashkilotlari muhim o‘rin tutadi va bir qator vazifalarni bajarishi bilan ajralib turadi. Avvalo, viloyatdagi eng katta vazifani amalga oshiruvchi tashkilotlar qatoriga Xorazm viloyati madaniyat boshqarmasi kiradi.

⁴² Manba: O‘zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi Xorazm viloyati hududiy boshqarmasining ma’lumotlari

Quyidagilar boshqarmaning asosiy vazifalari va faoliyat yoʻnalishlari hisoblanadi:⁴³

- madaniyat sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish, xalqning boy madaniy merosini qayta tiklash, asrlar davomida shakllangan yuksak maʼnaviyat, xalq anʼanalari va urf-odatlarini har tomonlama rivojlantirish boʻyicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish;

- milliy istiqlol gʻoyasidan, oʻzbek xalqining madaniy va maʼrifiy ishlarini amalga oshirish, odamlarning madaniy va estetik ehtiyojlarini yanada toʻlaroq qondirish;

- teatr, musiqa, xoreografiya, tasviriy sanʼat, sirk, xalq amaliy va estrada sanʼatini yanada rivojlantirish, ularning gʻoyaviy-badiiy va maʼnaviy saviyasini oshirish, xalq tarixining eng yorqin sahifalarini va uning hozirgi hayotini, mamlakatning erkin taraqqiyotini yoritib beradigan asarlar yaratishda ijodiy jamoalarga har tomonlama koʻmaklashish;

- madaniy-ommaviy va bayram tadbirlarining chuqur gʻoyaviy mazmun bilan boyitilishini taʼminlash, viloyatning ijodiy uyushmalari va jamoat tashkilotlari bilan yaqin hamkorlikni yoʻlga qoʻyish;

- turar joylar va mahallalarda madaniy-maʼrifiy faoliyat va aholini madaniy jihatdan tarbiyalashni tashkil qilishda davlat va jamoat tashkilotlari, oʻquv yurtlari, mahalliy hokimiyat organlari va oʻz-oʻzini boshqarish organlari bilan faol hamkorlik qilish va ularga koʻmaklashish;

- davlatlararo, xalqaro, viloyatlararo madaniy aloqalarni kengaytirish va mustahkamlash, konferensiyalar, koʻrgazmalarni oʻtkazish, madaniyat va sanʼat sohasiga xorijiy investitsiyalar va grantlarni jalb etish ishlarini tashkil qilish;

- madaniy-maʼrifiy muassasalari, obyektlari va inshootlarini moddiy-texnika bazasini rivojlantirish hamda mustahkamlash, ulardan eng yuqori darajada toʻliq va samarali foydalanishni taʼminlash;

⁴³ www.xorazm.uz

- professional, xalq va havaskorlik ijodiyoti, ma'rifiy dasturlarni keng targ'ib qilish, shuningdek madaniyat sohasidagi adabiyotlar bilan aholi qatlamlarini ta'minlash hamda video va kino materiallarni chiqarish.

Shuningdek, boshqarma o'ziga yuklangan vazifalarni bajarish uchun quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

- boshqarmalar, idoralar, jamoat tashkilotlari va birlashmalari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning madaniyat sohasidagi ishlarini muvofiqlashtiradi;

- boshqarma vakolatiga taalluqli masalalar bo'yicha qonun hujjatlariga rioya qilish monitoringini olib boradi, uni takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqadi va ko'rib chiqishga yuqori tashkilotga taqdim etadi;

- madaniyat sohasida hamkorlik bo'yicha xalqaro loyihalarni nshlab chiqishda qatnashadi, qabul qilingan xalqaro bitimlarning boshqarmaga taalluqli bandlarini bajarilishini ta'minlaydi;

- teatr, musiqa, xoreografiya, estrada, sirk va xalq amaliy sanatini rivojlantirishni ta'minlaydi, ijodiy jamoalarga xalqimiz tarixining eng yorqin sahifalarini uning hozirgi hayoti va mustaqil rivojlanish tajribasini aks ettiruvchi asarlar yaratishda har tomonlama yordam beradi;

- viloyat miqyosida kadrlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar, iisonparvarlik va yuksak ma'naviyat ruhida tayyorlash jarayonini tashkil qiladi, kishilarning o'zining umumta'lim va madaniy saviyasini oshirshga intilishini rag'batlantirish, ularni milliy, jahon madaniyati va san'ati namunalaridan bahramand etish ishlarini amalga oshiradi;

- boshqarma tizimi kadrlari malakasini oshirish, ularni qayta tayyorlash, attestatsiyadan o'tkazish, shuningdek xorij va mamlakat miqyosida tajriba orttirish va o'qitishni ta'minlaydi;

- kutubxonalar, teatrlar, klublar madaniyat uylari va saroylari, istirohat bog'lari, muzeylar va boshqa madaniy-ma'rifiy muassasalarni rivojlantirib, ularni moddiy-texnika bazasini mustahkamlaydi, ma'naviy boy, intellektual rivojlangan va yuksak madaniyatli shaxslarni tarbiyalaydi;

- muzeylarda milliy mustaqillik g'oyalariga hamohang bo'lgan, o'zbek

xalqining boy madaniy merosi, uning insoniyat tarixidagi roli va ahamiyati, rivojlanish bosqichlarini haqqoniy aks ettiruvchi ekspozitsiyalarning tashkil etilishi, shuningdek zamonaviy rivojlanish istiqbollari chuqur o'rganish, muzeysunoslik va muzeylar fondlaridagi eksponatlarning yagona katalogini yuritish bo'yicha umummilliy siyosatning amalga oshirilishini ta'minlaydi;

- viloyat aholisini O'zbekiston xalqlari tarixi to'g'risida xabardor qiluvchi chet ellarda saqlanayotgan qadimiy buyumlar. shuningdek mamlakatimiz muzeylarida namoyish qilinayotgan noyob eksponatlar bilan keng tanishtirish orqali odamlarda umuminsoniy qadriyatlar, boy milliy-madaniy merosni hurmat qilish va e'tirof etish tuyg'usini tarbiyalashga ko'maklashadi;

- viloyatda mavjud madaniy meros obektlarini muhofaza qilish, saqlash va asrash, targ'ib qilish va ulardan foydalannsh bo'yicha davlat dasturlarinn ishlab chiqishda qatnashadn;

- madaniy meros obyektlarini ta'mirlash. konservatsiya. rekonstruksiya qilish va'ulardan foydalanish bo'yicha davlat dasturlarining amalda ro'yobga chiqarilishini ta'minlaydi;

- madaniy meros obyektlarini aniqlash, ro'yxatdan o'tkazish. muhofaza qilish, targ'ib etish va ulardan foydalanishni ta'minlaydi;

- madaniy meros obyektlarining davlat kadastrini yuritadi, tarixiy-madaniy ekspertizadan o'tkazishni tashkil qiladn va amalga oshiradi;

- madaniy qimmatta ega bo'lgan, ekspeditsiya qazishmalari natijasida topilgan topilma va buyumlarning belgilangan tartibda klassifikatsiyasinn aniqlash uchun madaniyat vazirligiga kiritadi;

- madanny boyliklarning chetga olib chiqib ketilishi va vaqtinchalik olib chiqib ketilishi to'g'risida vazirlikka takliflar kiritadi;

- chetga olib chiqib ketiladigan va chetdan olib kelinadigan, shuningdek vaqtinchalik olib chiqib ketiladigan va vaqtinchalik olib kelinadigan madaniy boyliklarni ro'yxatdan o'tkazish uchun vazirlikka taklif kiritadi;

- chetga olib chiqib ketiladigan va chetdan olib kelinadigan, shuningdek vaqtinchalik olib chiqib ketiladigan va vaqtinchalik olib kelingan madaniy

boyliklarni ekspertizadan o'tkazish bo'yicha madaniyat vazirligiga takliflar kiritadi;

- madaniy boyliklarni chetga olib chiqib ketish va vaqtinchalik olib chiqib ketish xuquqiga sertifikatlar berilishi yuzasidan takliflarni vazirlik muhokamasiga kiritadi;

- tutib qolingan va qonun hujjatlarida belgilangan tartibda musodara qilingan madaniy boyliklarni tegishli davlat organlaridan qabul qilib oladi, ularni ekspertizadan o'tkazish va ulardan foydalanish tartibini belgilaydi;

- unga kiruvchi tashkilotlar jamoalari va yakkaxon ijrochilarning gastrol konsert faoliyatini, mamlakat va chet ellardagi gastrol-konsert faoliyatini tashkil qiladi va bu yuzadan vazirlikka takliflar kiritadi;

- viloyat, respublika va xorijiy mamlakatlarda professional san'at va xavaskorlik san'ati festivallari, ko'rik-tanlovlari, shuningdek ko'rgazmalar o'tkazishni tashkil qiladi;

- estrada san'atini rivojlantirish va muvofiqlashtirish kengashi bilan birgalikda viloyat madaniyat saroylari, amfiteatrlari, konsert zallarida o'tkaziladigan madaniy-ma'rifiy hamda konsert tadbirlarining muvofiqlashtirilishini ta'minlaydi;

- viloyat ta'lim muassasalarida dars berish uchun viloyat, respublika va xorijiy mamlakatlarning taniqli ijrochilarini san'at arboblari, etakchi mutaxassis pedagoglarni taklif qiladi;

- chet ellarda o'qiyotgan va samarali ijodiy faoliyat ko'rsatayotgan ijodkor yoshlarning viloyat va respublikada o'tkaziladigan ko'rik-tanlov hamda festivallarda qatnashishini ta'minlaydi;

- iqtidorli yoshlar va san'at arboblarning ijodiy safarlarini tashkil qilishni, ularning xalqaro ko'lamda va respublika hamda viloyat miqyosida o'tkaziladigan musobaqalar, ko'rik-tanlovlar, festivallar va boshqa anjumanlarda ishtirok etishini ta'minlaydi;

- madaniyatshunoslik, teatrshunoslik, sa'atshunoslik va mazkur sohadagi ilmiy yo'nalishlarni rivojlantirish, oliy o'quv yurtlarida ilmiy tadqiqot

muassasalarida ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash chora-tadbirlarini koʻradi;

- dramatik, musiqali, musiqiy dramatik asarlar tasviriy va amaliy sanʼatva haykaltaroshlik asarlari yaratishga davlat buyurtmalarini amalga oshiradi;

- ijodiy jamoalar, madaniyat, sanʼat mutaxassisleri, arboblari hamda ularning idoraviy mansubligidan qatʼiy nazar, boshqa vakillarni xalqaro tanlovlar, festivallar, musobaqalar va chet ellardagi boshqa tadbirlarda qatnashish uchun tayyorlashni taʼminlaydi;

- viloyatda madaniyat rivojlantirishning monitoringini amalga oshiradi va ularga doir yillik protokollarni shakllantiradi;

- jahon ilmiy-texnika taraqqiyoti yutuqlari, yaʼni madaniyatni rivojlantirish yutuqlarining joriy etilishini taʼminlaydi;

- manfaatdor boshqarmalar, idoralar, tashkilotlar bilan birgalikda madaniyat sohasidagi ilmiy tadqiqotlarni muvofiqlashtiradi;

- madaniyat sohasi boʻyicha oʻquv dasturlari, qoʻllanmalari va boshqa ilmiy-metodik adabiyotlarni ishlab chiqishda ishtirok etadi;

- madaniyatni rivojlantirish boʻyicha takliflar asosida maqsadli dasturlarni madaniyat sohasiga taalluqli dasturiy-metodik hujjatlarni ishlab chiqadi, tasdiqlaydi va ularning toʻgʻri bajarilishini taʼminlaydi;

- davlat boshqaruvi va boshqa organlar bilan birgalikda madaniyat arboblari ijtimoiy muhofaza qilish masalalarini hal etadi;

- aholining keng qatlamlari oʻrtasida madaniy tadbirlarni tashkil etish va oʻtkazishda viloyatning davlat va jamoat tashkilotlariga koʻmaklashadi;

- oʻziga qarashli tashkilotlarning moddiy-texnik bazasini rivojlantirishda va ularning axborot bilan taʼminlashda, maslahat berish, kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashda hamda boshqa yordam turlarini koʻrsatishda ularga koʻmaklashadi;


- barcha mavjud madaniyat inshootlari, kutubxonalar, teatrlar, klublar, madaniyat uylari va saroylari, madaniyat va istirohat bogʻlari, muzeylar va boshqa madaniy-maʼrifiy muassasalarni xatlovdan oʻtkazadi;

- madaniyat sohasidagi ulkan yutuqlar uchun mukofotlar ta'sis etish va faxriy unvonlarni berish to'g'risidagi takliflarni ko'rib chiqadi;

- xalqaro madaniy aloqalarini amalga oshiradi va rivojlantiradi;

- madaniyat muassasalarining davlat byudjeti mablag'lari hisobiga moliyalashtirilishini belgilangan tartibda ta'minlaydi hamda pullik xizmat bo'yicha mablag' tushirish, pullik madaniy to'garaklar ochish, to'y marosimlarida madaniy xizmat ko'rsatish, tashkilotlarga shartnoma asosida madaniy xizmat ko'rsatish hamda shartnoma asosida ijaraga berish va boshqa xizmat turlari orqali amalga oshiradi.

Ayniqsa, madaniyat boshqarmasi dam olish va hordiq chiqarish faoliyati doirasida quyidagi vazifalarni bajaradi (3.2.1-rasm):



3.2.1-rasm. Xorazm viloyati madaniyat boshqarmasining bajaradigan muhim vazifalari⁴⁴

⁴⁴ Xorazm viloyati Madaniyat boshqarmasining ma'lumotlari

Rasmda keltirilgan vazifalarni bajarishi bilan birga, boshqarma o'ziga yuklangan vazifalar va funksiyalarni o'zining hududiy bo'linmalari, o'ziga qarashli boshqa tashkilotlar orqali amalga oshiradi.

Biroq, boshqarmaga tegishli muzeylar, teatrlar, bog'lar, madaniyat va aholi dam olish markazlari, badiiy jamoa va orkestrlar, musiqa va san'at maktablari kabilar dam olish va hordiq chiqarish maskanlarining rivojlanishini ta'minlashga yordam beradi. Unda keltirilgan madaniyat va aholi dam olish markazlari yaqin yillikda tashkil etilgan. Mazkur tashkilotlar quyidagi jadvalda keltirilgan:

3.2.1-jadval

Mintaqada dam olish va hordiq chiqarish maskanlarining rivojlanishini ta'minlovchi tashkilotlar ro'yxati⁴⁵

- viloyat tashkilotlari (madaniyat boshqarmasi, turizmni rivojlantirish hududiy boshqarmasi, kasaba uyushma tashkilotlar kengashi kabilar)
- muzeylar
- teatrlar
- bog'lar
- madaniyat va aholi dam olish markazlari
- badiiy jamoa va orkestrlar
- oliy ta'lim muassasalari
- o'rta maxsus ta'lim muassasalari
- musiqa va san'at maktablari

Jadvalga asosan, dam olish va hordiq chiqarish maskanlarining rivojlanishini ta'minlovchi tashkilotlar tomonidan turli vazifalar amalga oshiriladi. Jumladan, dam olish va hordiq chiqarish maskanlarining rivojlanishini ta'minlovchi organ qatoriga O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish Davlat qo'mitasi Xorazm viloyati hududiy boshqarmasini kiritish mumkin. Chunki, dam oluvchi kishilar guruhi bu turistlar hisoblanadi va mazkur tashkilotlar turistlarning ehtiyojlarini qondirilishini ta'minlaydilar.

Xorazm viloyati kasaba uyushma tashkilotlari kengashi ham turistlar guruhi emas, balki aholi guruhi uchun imtiyozlik putyovka (yo'llanmalar) asosida sayohatlarni tashkil etishni amalga oshiradi. Bunda aholining dam oladigan va

⁴⁵ Manba: www.xorazm.uz

hordiq chiqaradigan maskanlari sanatoriylar va sogʻlomlashtirish markazlari boʻlib hisoblanadi.

Mazkur boshqarma (bugungi kunda departamentga aylantirilishi taʼminlanmoqda) Madaniyat boshqarmasi hamda Xorazm viloyati kasaba uyushma tashkilotlari kengashi bilan birga Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 4 mayda qabul qilgan PQ-2953 sonli “2017-2021 yillarda Xorazm viloyati va Xiva shahrining turizm salohiyatini kompleks rivojlantirish Dasturi toʻgʻrisida”gi Qarorining ijrosini taʼminlash yuzasidan bir qator vazifalarni amalga oshirishda faol qatnashadi. Xususan, dastlabki ikkala tashkilotlarning faol ishtiroki hamda boshqa tashkilotlar bilan birgalikda dasturda keltirilgan boʻlimlarning quyidagi bandlarining ijrosini taʼminlash belgilangan:

- “Xorazm madaniyati kunlari”, “Xorazm vohasining xalq raqslari”, Qoʻgʻirchoq festivali, Xorazm qovunlari va boshqa festivallarni respublika hududlaridan va xorijiy mamlakatlardan mehmonlarni taklif qilgan holda tashkil etish;

- turizm mavsum davomida “Ichon qalʼa” majmuasi va Xiva shahrining boshqa turizm namoyish etish obyektlarida madaniy-koʻngilochar tadbirlarni tashkil etish;

- har yili oʻtkaziladigan xalqaro turizm koʻrgazma va yarmarkalarida, xususan, Xalqaro oʻzbek turizm koʻrgazmasi va Toshkent xalqaro turizm yarmarkasida hududning turizm salohiyatini keng taqdim qilish;

- Xorazm viloyati va Xiva shahrining diqqatga sazovor joylari haqida batafsil maʼlumotlarni mashhur elektron xaritalarda joylashtirish, ommabop ijtimoiy tarmoqlari va butunjahon internet tarmogʻida hududning turizm salohiyatini targʻib qilish;

- “Samarqand-Urganch”, “Buxoro-Urganch” va “Fargʻona-Urganch” yoʻnalishlarida ichki aviaqatnovlarni tashkil etish masalasini oʻrganib chiqib, takliflar kiritish;

- Hazorasp tumanining “Hazorasp qalʼasi” negizida qalʼaning tashqi devori yonida 600 oʻrinli ochiq amfiteatrni qurish va majmua atrofida piyodalar sayr

qilish yo‘lagini tashkil qilish, umumiy ovqatlanish shohobchalari, hunarmandlar rastalari va savdo do‘konlarini tashkil etgan holda an‘anaviy sharq bozorini qurish hamda qal‘aning devori bo‘ylab oqib o‘tuvchi kanal va mavjud ko‘lni obodonlashtirish kabi turizm majmuani yaratish;

- “Ichan-qal’a” majmuasidagi Karvonsaroy negizida zamonaviy ko‘ngilochar mehmonxona majmuasini qurilish, ta’mirlash-tiklash va boshqa ishlarni amalga oshirishda arxitektura obyektlariga minimal aralashuv yuzasidan choralar ko‘rish hamda belgilangan tartibda xorijiy sarmoyadorlarni jalb qilishni ta’minlash;

- Xiva shahrining bozorini tugatilayotgan paxta qabul qilish punkti hududiga ko‘chirish va paxta qabul qilish punkti hududini tozalash, olib boruvchi yo‘llar, avtoturargohlar va boshqa zarur infratuzilmalarni tashkil etishni ta’minlagan holda “Ichan qal’a” majmuasiga asosiy kirish yo‘lini tashkil etish maqsadida “Polvon darvoza” atrofini obodonlashtirish;

- Xiva shahrining “Ota darvoza” darvozasi oldida mehmonxona-ko‘ngilochar majmuasini hamda ekskursiyaviy dam olish va ko‘rgazmali dasturlarga mo‘ljallangan 500 o‘rinli amfiteatr qurish;

- Xiva shahrida qo‘shimcha turizm yo‘nalishlarini shakllantirish maqsadida Samarqanddagi “Registon” majmuasi namunasi asosida “Ichan qal’a” majmuasi atrofidagi tarixiy obidalar yonida zamonaviy yoritish tizimi orqali lazer shoular tashkil etish;

- “Ichan qal’a” majmuasi hududida tibbiy yordam va dorixona shohobchalarining faoliyatini yo‘lga qo‘yish;

- “Nurullaboy” majmuasi hovlilarida badiiy galereya, qabullar uyi, amfiteatr, hunarmandlar markazi, milliy uslubdagi ovqatlanish shohobchalari va boshqalarni tashkil etgan holda turizm namoyishi obyektlarini barpo etish;

- “Govuk ko‘l” atrofidagi hududlarni obodonlashtirish, milliy liboslar ko‘rgazmasi, o‘yin va raqs, milliy taomlar va boshqa konsert dasturlari namoyishlarini tashkil etishni ko‘zda tutuvchi dam olish bog‘ini barpo etish, ekologik tur va yo‘nalishlarni tashkillashtirish.

Shuningdek, dam olish va hordiq chiqarish maskanlarining rivojlanishiga muzeylar yordam beradi. Chunki, Xorazm viloyatida dam olish va hordiq chiqarish obyekti sifatida muzeylar va qo'riqxonalar alohida ajratilib, ular quyidagi guruhlariga bo'linadi:

- *Urganch suratlar galereyasi*. Urganch suratlar galereyasi O'zbekiston Respublikasi Ministrlar Kengashining 1980 yil 11 sentyabrdagi "Respublikada tasviriy san'atni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori va mazkur Qarorni ijrosini ta'minlash maqsadida Xorazm viloyati ijroiya qo'mitasining 1982 yil 14 dekabrdagi 578/23-sonli Qaroriga asosan tashkil etilgan. Urganch shahridagi eski pochta binosi rekonstruksiya qilinib, uning negizida 1983 yildan buyon Sur'atlar galereyasi faoliyat ko'rsatmoqda. Galereyada rangtasvir, qalamtasvir, amaliy san'at, haykaltaroshlik asarlaridan tuzilgan va namoyish etilayotgan ekspozitsiyalar tashrif buyuruvchilarda katta taassurot qoldiradi.

- *Xiva "Ichon-qal'a" davlat muzey qo'riqxonasi*. Xiva "Ichon-qal'a" tarixiy me'morlik muzey qo'riqxonasi Xiva shahridagi muzey qo'riqxonadir. Xorazmning qadimiy moddiy va madaniy yodgorliklari, avlodlardan avlodga o'tib kelayotgan o'ziga xos an'analarini saqlash, o'rganish va targ'ib qilish bilan shug'ullanadigan madaniy-ma'rifiy muassasa sanaladi.

U 1920 yilda Ko'hna Arkda ko'rgazma muzey tarzida ochilgan. 1924 yilda Toshhovliga ko'chirilgan. 1969 yildan Xorazm tarixiy inqilobiy muzeyi "Ichon qal'a" muzey qo'riqxonasi bilan birlashtirilib, hozirgi nomi bilan ataladi. 1990 yilda "Ichon qal'a" o'zining tarixiy ahamiyatga ega maydonlari bilan jahon merosi ro'yxatiga kiritilgan.

Muzey qo'riqxona 26 ga. maydonni egallagan bo'lib, uning tarkibida 54 ta tarixiy obidalar mavjud, 3253,2 kv.m. maydonni Xorazmning qadimdan hoz. davrigacha bo'lgan boy tarixi, moddiy va ma'naviy madaniyatini o'zida aks ettirgan 13 ta doimiy muzey ekspozitsiyalar tashkil qiladi. Jumladan, Ko'hna Arkda Qadimiy Xorazm, Muhammad Rahimxon madrasasida Tarix va adabiyot, Qozi Kolon madrasasida Musiqa tarixi, Sherg'ozixon madrasasida Tabobat, Islomxo'ja madrasasida Xalq amaliy san'ati, Abdullaxon madrasasida Tabiat,

Muhammad Panoh Madrasasida Avesto, Toshhovlida Hunarmandchilik va Arabxon madrasasida Asosiy fond va boshqalar shular jumlasidandir.

“Ichan qal’a” muzey qo‘riqxonasida xivalik ustalarning xunarmandchilik san’ati yaxshi rivojlangan. Xususan, bu borada “Ichan-qal’a” ichida joylashgan ayrim madrasalar ichida hunarmandlar o‘z ustaxonalarini ochishgan. Ipak gilam to‘qiyotgan to‘quvchilar, yog‘och o‘ymakorligi san’anti, qo‘g‘irchoqbozlar va so‘zana tikayotgan ayollarning ish jarayonini kuzatish juda qiziqarlidir. Xiva o‘ziga xos musiqasi va an’anviy raqslari bilan juda mashhur. Turistik mavsumda folklor ansambli haftaning ma’lum kunlari va Darboz-akrobatlar xar kuni kunning ikkinchi yarmida tomoshalar uyushtirishadi.⁴⁶

“Ichan-qal’a” muzey ekspozitsiyasida IX-XX asrga oid ganch o‘ymakorlik san’ati, chilangar ustalar va kulollar mehnati namunalari, zargarlik buyumlari va qurol-yarog‘ namunalari saqlanadi. Shuningdek, turli naqsh va yozuvlar bilan bezatilgan marmar plitalar va ustunlar, to‘qimachilik namunalari, milliy liboslar, charm mahsulotlari ham o‘ziga xos ahamiyatga ega.

Xorazm viloyatida dam olish va hordiq chiqarish maskanlaridan yana biri teatr sohasi bo‘lib, ular bo‘yicha bugungi kunda “Ogahiy” nomidagi musiqali drama teatri faoliyat ko‘rsatmoqda. Mazkur teatrdagi turistlarga turli qiziqarli tomoshalar ko‘rsatiladi. Viloyatda Amir Temur istirohat bog‘i ta’minlanib, ko‘ngilochar obyekt sifatida qaralmoqda. Yaqin kunlarda turistlarning tomosha qilishlari uchun maskanga aylanadi.

Viloyatimizda yaqin yil ichida madaniyat va aholi dam olish markazlari tashkil qilindi. Bu bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 25 iyundagi "2013-2018 yillarda zamonaviy madaniyat va aholi dam olish markazlarini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 178-sonli Qarori qaroriga asosan Xorazm viloyati hokimining 2013 yil 29 iyundagi 144-sonli Qarori qabul qilindi.

Qarorga asosan, viloyatdagi mavjud 126 ta madaniyat uylari va klub muassasalari faoliyati tugatilib, ularning negizida viloyatning shahar va

⁴⁶ www.xorazm.uz

tumanlaridagi aholi soni va hududiy joylashuvini inobatga olgan holda, 65 ta madaniyat va aholi dam olish markazlari tashkil etish belgilandi. Shundan, 12 tasi tuman markazlarida, 8 tasi shahar va 45 tasi qishloq hududlarida joylashgan.

2018 yilgacha viloyatda ish boshlashi ko'zda tutilgan 65 ta markazning 6 tasi I tip, 36 tasi II tip va 23 tasi III tip loyiha asosida foydalanishga topshirilishi rejalashtirilgan. 2013 yilda davlat dasturiga kiritilgan 3 ta, Bog'ot tumani "Qulonqorabog'", Shovot tumani "Ijtimoyat" va Xiva tumani "Sayot" madaniyat va aholi dam olish markazlari to'liq ta'mirlanib va zamonaviy jihozlanib, 2014 yil 12 iyulda foydalanishga topshirildi.

Shuningdek, 2014 yilda qabul qilingan dasturga kiritilgan 10 ta, Shovot tumanidagi "Chig'atoyqal'a", Xonqa tumanidagi "Sarapoyon", Hazorasp tumanidagi "Bo'ston", Yangibozor tumanidagi "Cho'bolonchi", Gurlan tumanidagi "Nurobod", Urganch tumanidagi "Qoromon", Qo'shko'pir tumanidagi "Oqdarband", Urganch shahridagi "Istiqlol", Shovot tumanidagi "Bo'yirachi" va Yangiariq tumanidagi markazlarning barchasi ta'mirlanib va zamonaviy jihozlanib tantanali ravishda foydalanishga topshirildi.

Ulardan tashqari, 2015 yilda 6 ta madaniyat va aholi dam olish markazlarini mukammal ta'mirlash va zamonaviy jihozlanish belgilangan. Bular Bog'ot tumanidagi "Qipchoq", Urganch tumanidagi "Bekobod", Xiva tumanidagi "Dashyoq", Yangibozor tumanidagi "Bo'zqala", Shovot tumanidagi "Qiyot" va Qo'shko'pir tumanidagi "Hadra" madaniyat va aholi dam olish markazlaridir.

Hozigi kungacha qurilish tashkilotlariga mahalliy budjetdan 30 foiz pul mablag'i ajratilib, qurilish-ta'mirlash ishlari olib borilmoqda. Shuningdek, 2016 yilda 9 ta Bog'ot, Hazorasp, Xiva, Qo'shko'pir tuman madaniyat va aholi dam olish markazlari va Gurlan tumani "Vazir", "Guliston", "Xizir-eli", Shovot tumani "Xitoy" hamda Yangiariq tumani "Qo'riqtom" madaniyat va aholi dam olish markazlari kapital ta'mirlash zamonaviy jihozlash uchun rejalashtirilgan. Ushbu markazlarni joylashtirish sxemasi bo'yicha manzilli dasturi tayyorlandi.

Markazlar tomoshabin zallaridagi jami o'rindiqlar soni 12340 tani tashkil etadi. Tizimdagi madaniyat va aholi dam olish markazlarida 287 ta ijodiy xodimlar mavjud bo'lib, ulardan 89 tasi oliy va 198 tasi o'rta maxsus ma'lumotga ega. Hamda dam olish va hordiq chiqarish maskanlarida keluvchi aholi va turistlarning hordig'ini badiiy jamoa va orkestrlar chiqaradilar.

Ya'ni, ular turli shakllardagi yakka va guruh bo'lib qo'shiq aytadilar hamda musiqali chiqish qiladilar. Bu borada viloyatdagi 65 ta madaniyat va aholi dam olish markazlarida jami 258 ta badiiy havaskorlik jamoalari va to'garaklar bo'lib, ularda qiziquvchilar soni 3298 nafar kishini tashkil etadi. Mazkur jamoaviy guruhlarining yuqori saviyada ish olib borishlariga musiqa va san'at maktablari katta yordam beradi.

Shular bilan birga, viloyatda joylashgan oliy ta'lim muassasalari (Urganch davlat universiteti, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Urganch filiali va Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali) va o'rta maxsus ta'lim muassasalari (akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari, ya'ni Urganch madaniyat va san'at kolleji) Madaniyat boshqarmasiga tegishli bo'lmay, faqat dam olish va hordiq chiqarish maskanlarining rivojlanishini ta'minlashga muhim va katta yordam beradi, jumladan mazkur sohada ishlaydigan o'rta maxsus va oliy malakali kadrlarni tayyorlash ishlarini amalga oshiradi.

3.3. Mintaqada dam olish va hordiq chiqarish maskanlari faoliyatida ekologik va iqtisodiy omillardan samarali foydalanish yo'nalishlari va istiqbollari

Xorazm viloyati mintaqasida dam olish va hordiq chiqarish maskanlari faoliyatida ekologik va iqtisodiy omillarni hisobga olgan holda rivojlantirish muhim yo'nalish hisoblanadi. Chunki, iqtisodiy omil asosida daromad olish yotsa, ekologik omilda maskanlar faoliyatini atrof-muhit bilan bog'liq tomonlar hisobga olinadi hamda tegishli me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilingan.

Dam olish va hordiq chiqarish maskanlari obyektlar, ya'ni nomoddiy madaniy meros obyektlari sifatida ma'lum bo'lib, ularni muhofaza qilish, asrash, targ'ib qilish va samarali foydalanish bo'yicha davlat dasturi qabul qilingan. Mazkur

dastur kelajakda, ya'ni 2010-2020 yillarga mo'ljallangan bo'lib, ekologik-iqtisodiy tomonlarga ustuvorlik berilgan va quyidagi 9 ta ustuvor vazifalarni amalga oshirish belgilangan (3.3.1-jadval).

3.3.1-jadval

2010-2020 yillarda Xorazm viloyatida nomoddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish, asrash, targ'ib qilish va ulardan foydalanish davlat dasturi⁴⁷

1-ustuvor vazifa	Nomoddiy madaniy merosni saqlash, muhofaza qilish va kelajak avlodga yetkazishga qaratilgan normativ-huquqiy bazani hamda ma'muriy boshqaruv tizimini takomillashtirish
2-ustuvor vazifa	Nomoddiy madaniy merosni ilmiy jihatdan o'rganish va tadqiqot ishlarini tashkil etish
3-ustuvor vazifa	Nomoddiy madaniy merosni ro'yxatga olish va ular to'g'risidagi ma'lumotlarni hujjatlashtirish
4-ustuvor vazifa	Mutaxassislarini tayyorlash va malaka oshirish ishlarini tashkil etish
5-ustuvor vazifa	Nomoddiy madaniy meros obyektlarini saqlashning amaliy chora-tadbirlari
6-ustuvor vazifa	Nomoddiy madaniy merosni saqlash va uning muhofazasini tashkil etish bo'yicha olib boriladigan targ'ibot-tashviqot ishlari
7-ustuvor vazifa	Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish borasida hamkorlik tarmog'ini rivojlantirish
8-ustuvor vazifa	Nomoddiy madaniy meros targ'ibotida madaniy turizm dasturlaridan keng foydalanish
9-ustuvor vazifa	Nomoddiy madaniy meros namunalarini saqlashni moliyalashtirish tizimini yanada takomillashtirish

Ushbu jadvalga asosan, 2010-2020 yillarda Xorazm viloyatida nomoddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish, asrash, targ'ib qilish va ulardan foydalanish davlat dasturi doirasida dam olish va hordiq chiqarish turizmini kelajakda rivojlantirishga erishish mumkin.

⁴⁷ Xorazm viloyati madaniyat va sport ishlari boshqarmasi (hozirgi Madaniyat boshqarmasi) ma'lumotlari

Shuningdek, dam olish va hordiq chiqarish turizmi faoliyatida eng asosiy masala madaniyat sohasini rivojlantirishdir. Bu bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevralda qabul qilingan "Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmonidan kelib chiqib, ya'ni dastur ishlab chiqilgan. Mazkur dastur 2017-2021 yillarga mo'ljallangan tarmoq dasturi hisoblanadi.

3.3.2-jadval

O'zbekistonda madaniyat sohasini yanada rivojlantirish va takomillashtirish bo'yicha 2017-2021 yillarga mo'ljallangan tarmoq dasturi tarkibi⁴⁸

madaniyat sohasidagi qonun hujjatlarini takomillashtirish va mustahkamlash
madaniyat muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, zamonaviy jihozlash va samarali ijodiy faoliyat olib borish uchun qulay shart-sharoit yaratish
aholining keng qatlamlari, ayniqsa yoshlarning qalbi va ongiga ezgu g'oyalarni yanada chuqurroq singdirishga yo'naltirilgan ommaviy-madaniy tadbirlarni o'tkazishga qaratilgan ma'rifiy ishlarni amalga oshirish
madaniyat sohasida kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish, bu borada zamonaviy pedagogik va xalqaro tajribalardan foydalanish, soha xodimlarini qo'llab-quvvatlash
xalqaro madaniy aloqalarni kengaytirish hamda mustahkamlash, milliy madaniyatimizni keng targ'ib etish, sohaga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va ulardan samarali foydalanish

Mazkur dastur asosida respublikamizning har bir hududi, xususan Xorazm viloyatida dam olish va hordiq chiqarish faoliyatini yanada takomillashtirishga qaratilgan yo'nalishlar keltirilgan bo'lib, bugungi kunda muhim ahamiyat kasb etadi.

⁴⁸ www.madaniyat.uz

Shuningdek, dam olish va hordiq chiqarish maskanlari faoliyatida tashkil qilinadigan madaniy turizmni rivojlantirishga qaratilgan obyektlar faoliyatida ham amalga oshiriladigan ishlar amalga oshirilmoqda (3.3.3-jadval).

3.3.3-jadval

Xorazm viloyatida madaniy turizmni rivojlantirish belgilangan obyektlar va ularda amalga oshiriladigan ishlar⁴⁹

№	Obyektlar nomi	Amalga oshirilishi lozim bo'lgan tadbirlar
1.	Ollaqulixonning yozgi qarorgohi	-bog' atrofidagi buzilgan devorlarni qayta tiklash, obodonlashtirish va sanitariya holatini tartibga keltirish -boqqa etib borgunga qadar bo'lgan yo'llarni tartibga keltirib, maishiy xizmat ko'rsatish obyektlarini joriy etish -bog' tarixi, shu jumladan "Me'mor xon" deb tan olingan Ollaqulixon tomonidan barpo etilgan me'moriy yodgorliklar to'g'risida hamda bog'dagi mevalarni etishtirish usulini ko'rsatib beruvchi ko'rgazma tashkil etish
2.	"Otajon to'ra" madrasasi	-rekonstruksiya qilish, obodonlashtirish va sanitariya holatini tartibga keltirish -madrasaga etib borgunga qadar bo'lgan yo'llarni tartibga keltirish, maishiy xizmat ko'rsatish obyektlarini tashkil etish -"Gandimyon sulhi"ga oid hujjatlar, suratlar va ashyoviy materiallarga asoslanib muzey tashkil etish hamda ushbu materiallar asosida hujjatli film yaratib, mazkur madrasada ko'rsatishni tashkil etish
3.	"Bibi hojar" maqbarasi	-maqbara atrofini obodonlashtirish va sanitariya holatini tartibga keltirish -maqbaraga etib borgunga qadar bo'lgan yo'llarni tartibga keltirish, maishiy xizmat ko'rsatish obyektlarini tashkil etish -mahalliy va xorijiy sayohatchilar ziyoratlarni to'la-to'kis amalga oshirishlari uchun barcha qulay shart sharoitlarni yaratish.
4.	"Ro'zmat Madaminov" nomidagi muzey	-muzeyni milliy ruhda rekonstruksiya qilish, atrofini obodonlashtirish va sanitariya holatini tartibga keltirish -muzeyga etib borgunga qadar bo'lgan yo'llarni tartibga keltirish, maishiy xizmat ko'rsatish obyektlarini tashkil etish -muzeyning tomoshalar zalida milliy urf-odatlar, qadriyatlar, an'analar, to'y marosimlari va milliy bayramlarimizning o'tkazilishini teatrlashtirilgan holda ko'rsatish hamda milliy kiyimlar galereyasi va ko'rgazmalarini tashkil etish
5.	"Chodra hovli" me'moriy yodgorligi	-yodgorlik atrofidagi buzilgan devorlarni qayta tiklash, yodgorlikka olib boradigan yo'llarni va bog'ni obodonlashtirish va sanitariya holatini yaxshilash, maishiy xizmat ko'rsatish obyektlarini joriy etish -bog'da yangi mevali daraxtlarni va turli xildagi gullarni o'stirish va ko'kalamzorlashtirish -xon va uning oila a'zolarining yozda bog'da dam olish jarayonlarini sur'atlar va haykallar yordamida ko'rsatib beruvchi muzey tashkil etish hamda bog'dagi mevalar va gullarning hamda milliy taomlarni tayorlash ko'rgazmasini tashkil etish
6.	"Shayx	-maqbara va uning atrofini obodonlashtirish va sanitariya holatini

⁴⁹ Xorazm viloyati madaniyat boshqarmasining ma'lumotlari

	Muxtor Valiy” maqbarasi	tartibga keltirib, maqbaraga yetib borgunga qadar bo‘lgan yo‘llarni tartibga keltirish -maqbara atrofida maishiy xizmat ko‘rsatish obyektlarini tashkil etish -mahalliy va xorijiy sayohatchilar ziyoratlarni to‘la-to‘kis amalga oshirishlari uchun barcha qulay shart sharoitlarni yaratish
7.	Qal’ajiq (Daudqal’a) qal’asi	-qal’ani restavratsiya qilish, qal’aga olib boruvchi yo‘llar va uning atrofini obodonlashtirish va sanitariya holatini tartibga keltirib, maishiy xizmat ko‘rsatish obyektlarini tashkil etish -muzey tashkil etib, ushbu muzeyda qal’ada hayot mavjud bo‘lgan davrning arxitekturaviy maketini tayyorlash hamda arxeologik topilmalarni joylashtirish -shifobaxsh suvdan va qumdan samarali foydalanish uchun sanitariya va gigiena talablariga javob beradigan davolash maskanini tashkil etish
8.	Hazorasp qal’asi	-restavratsiya qilish, obodonlashtirish va sanitariya holatini tartibga keltirish -qal’aga yetib borgunga qadar bo‘lgan yo‘llarni tartibga keltirib, maishiy xizmat ko‘rsatish obyektlarini tashkil etish -muzey tashkil etib, ushbu muzeyda qal’ada hayot mavjud bo‘lgan davrning arxitekturaviy maketini tayyorlash hamda arxeologik topilmalarni joylashtirish
9.	Ogahiy nomidagi teatr	-teatr tomoshalar dasturi va ko‘rsatiladigan spektakllar mazmun-mohiyatini o‘zbek, rus, ingliz tillarida chop etish -sayyohlik tashkilotlari orqali ushbu tayyorlangan materiallarning reklamasini tashkil etish
10.	Jaloliddin Manguberdi majmuasi	-Jaloliddin Manguberdi tarixiga doir doimiy ko‘rgazma tashkil etish -majmua yon atrofini obodonlashtirish va zamonaviy sanitariya talablariga javob beradigan hojatxona tashkil etish -sovg‘alar va yaxna ichimliklar bilan savdo qiluvchi shoxobchalar tashkil etish
11.	Fotogalereya	-binoni qayta ta’irlash, yon atrofini obodonlashtirish va zamonaviy sanitariya talablariga javob beradigan hojatxona tashkil etish -sovg‘alar va yaxna ichimliklar bilan savdo qiluvchi shoxobchalar tashkil etish
12.	Avesto maydoni	-yaxna ichimliklar va hunarmandchilik buyumlarining savdo rastasini tashkil etish -zamonaviy sanitariya talablariga javob beradigan hojatxona tashkil etish -velosipedda yurish yo‘lakchalarini tashkil etish
13.	Hoja Yusuf Hamadoni yodgorligi	-rekonstruksiya qilish, obodonlashtirish va sanitariya holatini tartibga keltirish, yodgorlikka yetib borgunga qadar bo‘lgan yo‘llarni tartibga keltirib, maishiy xizmat ko‘rsatish obyektlarini tashkil etish hamda chillaxonalarni qayta ta’irlash -azalda bo‘lgani kabi yodgorlikda xalq sayllarini, ya’ni ko‘ngilochar tomoshalar kurash, qo‘chqor urishtirish, darboz o‘yini, masxarabozlik, baxshi va xalfachilik, ashula va raqs san’atlarini namoyish etish
14.	Katqal’a qal’asi	-restavratsiya qilish, obodonlashtirish va sanitariya holatini tartibga keltirish, qal’aga yetib borgunga qadar bo‘lgan yo‘llarni tartibga keltirib, maishiy xizmat ko‘rsatish obyektlarini tashkil etish -muzey tashkil etib, ushbu muzeyda qal’ada hayot mavjud bo‘lgan davrning arxitekturaviy maketini tayyorlash hamda arxeologik topilmalarni joylashtirish, shuningdek mazkur muzeyda qishloq hayotini aks ettiruvchi sur’atlar va haykallarni joylashtirish

Jadvalda Ollaqulixonning yozgi qarorgohi, “Otajon to‘ra” madrasasi, “Bibi hojar” maqbarasi, “Ro‘zmat Madaminov” nomidagi muzey, “Chodra hovli” me‘moriy yodgorligi, “Shayx Muxtor Valiy” maqbarasi, Qal’ajiq (Daudqal’a) qal’asi, Hazorasp qal’asi, Ogahiy nomidagi teatr, Jaloliddin Manguberdi majmuasi, fotogalereya, Avesto maydoni, Hoja Yusuf Hamadoniy yodgorligi va Katqal’a qal’asi kabi obyektlarni qayta ta’mirlesh keltirilgan.

Shular bilan birga, Xorazm viloyatida dam olish va hordiq chiqarish faoliyatida turizmni sohasini rivojlantirishga qaratilgan yangi turistik yo‘nalishlarni ishlab chiqish uchun uning yangi turlarini amalga oshirish belgilangan. Xususan, bu borada 2017-2021 yillarda viloyatda quyidagi yangi turizm turlari tashkil qilinadi (3.3.4-jadval).

3.3.4-jadval

2017-2021 yillarda Xorazm viloyatida turistik yo‘nalishdagi yangi turizm turlarning rivojlanishi haqida ma’lumot⁵⁰

2017 yil	2018 yil	2019-2021 yillar
madaniy-tarixiy turizm arxeologik turizm ekologik turizm ziyosat turizmi gastronomik turizm yoshlar turizmi madaniy-ko‘ngilochar turizm san’at turizmi	madaniy-tarixiy turizm arxeologik turizm ekologik turizm ziyosat turizmi gastronomik turizm yoshlar turizmi madaniy-ko‘ngilochar turizm sport turizmi safari turizmi agroturizm san’at turizmi	madaniy-tarixiy turizm arxeologik turizm ekologik turizm ziyosat turizmi gastronomik turizm yoshlar turizmi madaniy-ko‘ngilochar turizm sport turizmi safari turizm agroturizm oilaviy turizm sarguzasht turizm ekstremal turizm bolalar turizmi qishloq turizmi

Mazkur jadvalga asosan, viloyatda jami turlar soni 2017 yilda 8 xildagi turizm turlari yaratildi. Ammo, kelajakda 2018 yilda 12 xildagi va 2019-2021 yillarda 16 xildagi turizm turlarini yaratish belgilangan. Mazkur keltirilgan turizm turlarining asosida dam olish va hordiq chiqarish yotadi. Tashrif buyuradigan turistlar bevosita

⁵⁰ Manba: O‘zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi Xorazm viloyati hududiy boshqarmasining ma’lumotlari

dam olish va hordiq chiqarish maskanlarida o'z ehtiyojlarini qondirishlari natijasida yuqorida keltirilgan turizmning barcha turlari bilan shug'ullanish imkoniyatlari paydo bo'ladi.

Darhaqiqat, Xorazm viloyatida dam olish va hordiq chiqarish maskanlari faoliyatida ekologik va iqtisodiy omillardan samarali foydalanish lozim bo'lib, bu quyidagi yo'nalishlardan iborat bo'ladi:

barcha hududlar bo'yicha mavjud turistik resurslardan samarali foydalanish, yangi turistik marshrutlarni tashkil qilish va ularni barqaror rivojlantirishga erishish

yirik investitsiya institutiga aylangan tijorat banklarining mablag'laridan keyingi yillarda keng foydalanishni yo'lga qo'yish

turizm bilan bog'liq bo'lgan sohalar o'rtasida barqaror kooperatsiya aloqalarini o'rnatish, yangi turistik marshrutlarni ochish evaziga yangi ish o'rinlarini yaratish va bandlik darajasini oshirishga erishish

turistlarning xavfsizligini ta'minlash bo'yicha ko'rilgan chora-tadbirlar va turistik marshrutlarni targ'ibot qiladigan reklamani yanada kengaytirish

har bir hudud va har bir turistik firma bo'yicha uzoq muddatli strategik rejani ishlab chiqish va ularni tegishli mablag' bilan ta'minlash

ichki investitsiyalar bilan birga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishga erishish

milliy avtomagistral yo'llarini rivojlantirish dasturida turistik marshrutlar bo'yicha yo'llarni takomillashtirish va infratuzilmani yaratishga erishish

zamonaviy va obod qishloqlarni barpo etishning uzoq muddatga mo'ljallangan dasturida turli turistik obyektlarni qurish

turizm bilan bog'liq oilaviy tadbirkorlikni rag'batlantirish tizimini yo'lga qo'yish

turizm raqobat va biznes muhitini shakllantirish

hududning tabiiy xilma-xilligini saqlash va ulardan samarali foydalanishni yo'lga qo'yish

3.3.1-rasm. Dam olish va hordiq chiqarish maskanlarida ekologik va iqtisodiy omillardan samarali foydalanish yo'nalishlari⁵¹

⁵¹ Manba: Matyaqubov U.R. Ekologik vaziyatni inobatga olib, turizm samaradorligini oshirish yo'nalishlari va istiqbollari (Xorazm viloyati misolida). // Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya.

Agar ekologik vaziyatni inobatga olib, dam olish va hordiq chiqarish turizmni rivojlantirish bo'yicha ishlab chiqqan ushbu yo'nalishlar bilan bog'liq tavsiyalarga amal qilinsa, mamlakatimiz, xususan, Xorazm viloyatida keladajda zamonaviy turizmning barqaror rivojlanishi ta'minlanadi. Natijada, yangi ish o'rinlari yaratilib, bandlik masalasi hal qilinadi. Bu esa aholining daromadlarini oshirib, ularning yashash darajasini yangi sifat bosqichiga ko'taradi.

Ana shulardan kelib chiqib, Xorazm viloyatida dam olish va hordiq chiqarish maskanlari faoliyatida ekologik va iqtisodiy omillardan samarali foydalanish uchun, avvalo ekologik menejmentni joriy qilish va uni amalga oshirish lozim. Ekologik menejment resurslardan samarali foydalanish, atrof-muhitni muhofaza qilishning noan'anaviy usullaridan samarali foydalanib, zamonaviy iqtisodiy ekologik madaniyat, ijtimoiy ong, ijtimoiy munosabatlari bilan bog'liqlikda olib boriladigan boshqaruv tizimining muhim tarkibiy qismidir.


Mazkur menejmentni joriy qilish asosida ekologik muhit asosida yaratiladigan ekologik madaniyat, ong va ekologik sifat kabi unsurlarning o'zaro va aks ta'sirlari paydo bo'ladi hamda ular bir-birlarini to'ldirib boradi.

Ya'ni, viloyatda dam olish va hordiq chiqarish maskanlari faoliyatida ekologik menejmentni joriy qilish uchun quyidagi omillarga alohida e'tibor qaratiladi:

- ekologik ta'lim va madaniyat;
- ekologik vaziyat monitoringi va resurslarning mavjudligi;
- huquqiy va axborot bilan ta'minlash tizimi;
- ekologik menejmentning infratuzilmasi;
- ekologik rivojlanishining umumiy jarayonlari.

Biroq, ekologik menejment boshqaruv jarayoniga oid bo'lgan maqsadga yo'naltirilganlik, izchillik va o'z vaqtidalik tamoyillari, boshqaruv mexanizmiga tegishli bo'lgan ekologik ong, iqtisodiy rag'batlantirish va ogohlantirganlik hamda boshqaruv tizimiga oid bo'lgan funksional integratsiyalashuv, kasbiylik va ma'suliyatlik kabi tamoyillardan tashkil topadi.

Ana shulardan kelib chiqib, dam olish va hordiq chiqarish maskanlari faoliyatini samarali rivojlantirish uchun ekologik boshqaruvning quyidagi rasmda keltirilgan asosiy talablari tanlab olinishi maqsadga muvofiqdir (3.3.2-rasm):



3.3.2-rasm. Dam olish va hordiq chiqarish maskanlari faoliyatida ekologik boshqaruvga qo'yiladigan talablar⁵²

Rasmda keltirilgan dam olish va hordiq chiqarish maskanlari faoliyatini ekologik boshqaruv talablariga rioya qilinishi natijasida kelajakda turizm faoliyati samarali rivojlanadi. Ekologik boshqaruv ekologik turizmni boshqarish natijasi bo'lishi mumkin. Bu yerdagi asosiy muammo ekologik vaziyat hisoblanib, bevosita ekologik turizm bilan chambarchas bog'liq. Ekologik turizm uchun ekologik vaziyat yaxshi va insonlar salomatligiga xavf tug'dirmaydigan darajada bo'lishi lozim. Shunda mazkur sohani rivojlantirish uchun muhim asos yaratiladi.

Ekologik boshqaruv ekologik menejerlar tomonidan amalga oshirilishi lozim. Buning uchun ekologik menejerlar tayyorlash ahamiyatini oshirish va darajasini yaxshilash lozim bo'ladi. Ularga ekologik ta'lim va tarbiya berilishi lozim bo'ladi. Shu boisdan ham, aholi yashaydigan madaniy hududlarda ekologik boshqaruvni joriy qilish asoslarini yaratish, avvalambor buning orqali iqtisodiy chora-tadbirlarni ishlab chiqish va takomillashtirib borish lozim.

Dam olish va hordiq chiqarish maskanlaridan biri Amudaryo ekoturistik rayonida joylashgan joylardir. Mazkur rayon Amudaryoning o'zaniga yaqin sohillarida joylashgan to'qayzorlardan iborat va ekoturlar uchun juda qiziqarli va noyob landshaft hisoblanadi. Bu hudud noyob bo'lganligi tufayli davlat tomonidan qo'riqlanadi. Xususan, to'qay landshaftidagi qushlar va hayvonlarni muhofaza

⁵² Manba: www.ekologiya.uz

qilish uchun quyi Amudaryoning o'ng sohilida Bodayto'qay qo'riqxonasi tashkil qilingan. Shuningdek, uning faunasini saqlash uchun Xorazm buyurtmaxonasi tashkil etilgan.

Shulardan kelib chiqib, Xorazm viloyatida dam olish va hordiq chiqarish maskanlari faoliyatida ekologik-iqtisodiy omillardan samarali foydalanish uchun kishilarning ongida ekologik madaniyatni shakllantirish va rivojlantirish bo'yicha davlat dasturini ishlab chiqish va uni amalga oshirishga erishish lozim. Buni amalga oshirishning muhim yo'nalishi esa ekologik turizmni rivojlantirish hisoblanadi.

Umuman olganda, Xorazm viloyatida dam olish va hordiq chiqarish maskanlari faoliyatini rivojlantirishga ta'sir qiluvchi ekologik-iqtisodiy omillardan foydalanish bevosita ekologik boshqaruvga bog'liq bo'ladi. Buning uchun ekologik ahamiyatga ega bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy chora-tadbirlarga asoslangan tizimli boshqaruvdan samarali foydalanish lozim.

III-bob bo'yicha xulosa

Xorazm viloyati mintaqasida dam olish va hordiq chiqarish maskanlari mavjud bo'lib, ularning faoliyatiga ekologik-iqtisodiy omillar ta'sir qiladi. Natijada, dam olish va hordiq chiqarish maskanlaridan foydalanish darajasi oshadi. Mintaqada dam olish va hordiq chiqarish maskanlarining holati o'z navbatida viloyatda joylashgan dam olish uylari, obyektlari, madaniy meros obyektlari va tarixiy joylardan foydalanilayotganlik bilan namoyon bo'ladi.

Xorazm viloyatida dam olish va hordiq chiqarish maskanlari faoliyatini uzluksiz bo'lishin ta'minlash maqsadida tashkilotlar tuzilgan bo'lib, ular mazkur maskanlarni rivojlantirishga qaratilgan muhim vazifalarni bajaradilar. Hamda Xorazm viloyatida dam olish va hordiq chiqarish maskanlari faoliyatida ekologik va iqtisodiy omillardan samarali foydalanish kelajakda viloyatning turizm salohiyatini oshirishni ta'minlaydi, yangi rejalar va dasturlar tuzish asosida turizm sohasining yangi turlarini yaratishga zamin yaratadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekiston mintaqalarida turizm industriyasini rivojlantirish uchun madaniy turizmni rivojlantirish eng muhim yo'nalish bo'lib hisoblanadi va uning asosida turizm sohasi yotadi. Turizm dam olish turi va yo'nalishi sifatida turistlarning ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan bo'ladi. Madaniy turizmning rivojlanishi uchun madaniyat mavjud va shakllangan bo'lishi lozim. Madaniyat millat tarixi, hudud yoki odamlar guruhi va an'analar, urf-odatlar, san'at, mehnat, arxitektura, musiqa va rassomchilik kabi unsurlarni birlashtiradi. Mazkur turizmning rivojlanishi madaniy turizm bozori asosida ta'minlanadi.

Darhaqiqat, madaniy turizmning rivojlanishi uchun dam olish va hordiq chiqarish obyektlari mavjud bo'lib, ular bir qancha turlarga bo'linadi va muhim vazifalarga egaligi bilan ajralib turadi. Mazkur obyektlar tarixiy resurs ko'rinishida bo'lib, infratuzilma obyekti ko'rinishida insonning ishtiroki tufayli ta'minlanadi. O'z navbatida obyektlar mikro va makromanzillar ko'rinishida guruhlanadi.

Respublikamizning Samarqand, Buxoro, Xiva va Toshkent kabi shaharlarida dam olish va hordiq chiqarish obyektlarining soni juda ko'p bo'lib, ulardan turistlarni keng jalb qilishda samarali foydalanib kelinmoqda. Bu borada davlat tomonidan tartibga solish ishlarining olib borishi bilan birgalikda davlat siyosati ta'minlanadi. Ayniqsa, Xorazm viloyati mintaqasida dam olish va hordiq chiqarish obyektlariga muzeylar va qo'riqxonalar kiradi.

Xorijiy rivojlangan davlatlarda dam olish va hordiq chiqarish maskanlarini tashkil etish bo'yicha yetarli tajribalar to'plangan. Mazkur joylarning juda yaxshi yaratilishi animatsiya natijasida rivojlangan. Eng muhim va turistlar ko'p boradigan maskanlardan biri "Disneyland" hisoblanadi. U AQShdagi ko'ngilochar park shaklida turli attraksionlari bilan ko'p mamlakat turistlarini o'ziga jalb qila oladi. Biroq, "Disneyland" boshqa joylar, ayniqsa Yevropa davlatlarida ham rivojlanib borib, ularning qatoriga "Disneyland Paris" maskanlarini kiritish mumkin. U Yevropadagi ko'ngil ochar park shaklida tashkil qilingan.

Shuningdek, xorijiy rivojlangan mamlakatlarda dam olish va hordiq chiqarish maskanlarini tashkil etishda muqaddas tarixiy joylar muhim o'rin tutadi. Ushbu

tarixiy joylarga dunyoning “etti mo`jizasi” kiradi. Undan tashqari, ko`ngil ochar maskanlardan yana biri Las-Vegas shahridagi kazion o`yinlari markazlarini aytish mumkin.

Dam olish va hordiq chiqarish markazlarida turizm industriyasini rivojlantirish uchun madaniy turizmni tashkil etish, dam olish va hordiq chiqarish obyektlarini guruhlash hamda dam olish va hordiq chiqarish maskanlarini tashkil etishning xorij tajribalarini hisobga olish lozim.

Dam olish va hordiq chiqarish maskanlari faoliyatiga ekologik-iqtisodiy rivojlanish omillari ta`sir ko`rsatadi va ular o`ziga xos xususiyatlarga egaligi bilan ajralib turadi. Bu esa “Buyuk Ipak yo`li” bo`ylab turizmning zamonaviy turlarini rivojlantirish imkoniyatlarining mavjudligi va turistik salohiyatning yuqori bo`lishi bilan bevosita bog`liq bo`ladi. Buning uchun dam olish va hordiq chiqarish turizmini keng rivojlantirishda mavjud turistik resurslardan samarali foydalaniladi.

O`zbekistonda dam olish va hordiq chiqarish faoliyati mavjud tarixiy va madaniy resurslar orqali ta`minlanadi. Hamda dam olish va hordiq chiqarish maskanlarida ko`ngilochar tadbirlarni o`tkazish sayohat-ekskursiya faoliyati asosida katta samara keltiradi. Biroq, ko`pchilik dam olish va hordiq chiqarish maskanlaridan ko`pincha ijtimoiy turizmni amalga oshirish maqsadlarida keng foydalaniladi. Mazkur turizmni davlat tashkilotlari amalga oshirib, unda turistlardan tashqari aholining guruhlari uchun sayohatlarni tashkil etish orqali ularning dam olishlari va hordiq chiqarishlarini ta`minlashga qaratilgan maqsad amalga oshiriladi.

Dam olish va hordiq chiqarish maskanlarida attraksionlar, o`yinlar, ko`ngilochar mashg`ulotlar va o`yin biznesi kabi xizmatlarni ko`rsatish kelajakda katta foyda keltiradi va turli klublar shaklida bo`lishi mumkin. Bu holatlar bo`yicha davlat tomonidan huquqiy asoslar takomillashtirilgan.

O`zbekistonda dam olish va hordiq chiqarish maskanlari faoliyatini rivojlantirish va u joylarga turistlarni keng jalb qilish uchun investitsiyani sarf qilish lozim. Bu borada qabul qilingan harakatlar strategiyasining mazmunidan kelib chiqib, davlat tomonidan investitsiya, ya`ni mablag`lar maskanlar faoliyatini

yanada yaxshilash maqsadida yoʻnaltiriladi. Buning uchun davlatning investitsion siyosati ishlab chiqilishi lozim.

Shularni hisobga olgan holda sanʼat, koʻngil ochish va dam olish sohasini rivojlantirishga investitsiyalar jalb qilingan boʻlib, mazkur holat investitsiyalar miqdorining soʻmda va foizda hisoblanadi. Ushbu investitsiyalash dam olish va hordiq chiqarish maskanlarini tashkil etishga qaratilgan turistik faoliyatni amalga oshirish uchun juda zarur hisoblanadi.

Darhaqiqat, dam olish va hordiq chiqarish maskanlarining rivojlanishi uchun ekologik va iqtisodiy omillar juda zarur boʻladi. Ulardan ichki va tashqi munosabatlarni amalga oshirish uchun ahamiyatli boʻlib, iqtisodiy omillar turistik faoliyatdan olinadigan foyda miqdorini oshirishga qaratilgan boʻlsa, ekologik omillar oʻz navbatida hududning tabiiy sharoiti va atrof-muhitini yaxshilashga yoʻnaltiriladi.

Xususan, ekologik omillarda ekologik xavfsizlik muhim yoʻnalish hisoblanadi. Iqtisodiy omillar koʻpincha davlat tomonidan taʼsir qilish vosita va usullariga asoslanadi. Mazkur har bir omillardan foydalanish va uning taʼsiri doirasida ijobiy maqsad yotadi, ekstensiv, intensiv va salbiy ahamiyatlarga ega boʻladi hamda ularning birgalikda qoʻllanilishi natijasida dam olish va hordiq chiqarish maskanlari faoliyatida islohotlar chuqurlashadi.

Oʻzbekistonda dam olish va hordiq chiqarish maskanlari faoliyatida ekologik-iqtisodiy ustuvorlik mavjud ekan, bu holat bevosita Xorazm viloyati mintaqasiga ham tegishli boʻladi. Xususan, bu borada viloyatda dam olish va hordiq chiqarish maskanlari holatini turli dam olish joylari, markazlari, tarixiy va madaniy meros obyektlari kabilar belgilaydi.

Ayniqsa, dam olish va hordiq chiqarish maskani boʻlib, viloyatda joylashgan sanatoriya-kurort muassasalarini keltirish mumkin. Muassasaning maqsadi va yoʻnalishi turli xil sharoitlarda vositalar orqali aholini sogʻlomlashtirishdir. Ana shunday viloyatda jami mavjud 4 ta sanatoriya-kurort muassasalari katta yoshlilar va bolalar uchun sanatoriyalarga, shuningdek sanatoriya - profilaktoriya turlariga boʻlinadi.

Biroq, Xorazm viloyatida jami 15 ta dam olish muassasalari va sayyohlik bazalari ham faoliyat yuritib, u dam olish va hordiq chiqarish maskani sifatida qaraladi. Ular xonalari, xonalaridagi nomerlar va joylarning mavjudligi bilan ajralib turadi. Mazkur joylarda dam olganlarning aksariyat barcha qismi mahalliy aholiga to'g'ri keladi.

Shu bilan birga, viloyat miqyosida dam olish va hordiq chiqarish maskanlarining eng katta turi tarixiy-madaniy meros obyektlaridir. Ularning o'rganilishi natijasida bugungi kunda zamonaviy ko'rinishda ta'minlanib, turistlarning ehtiyojlarini qondirib kelmoqda. Xususan, 20 dan ortiq tarixiy yodgorliklar tarixiy-madaniy meros obyektlari sifatida qaraladi.

Mazkur obyektlardan foydalanib borish milliy meros namunasi bo'lib hisoblanadi. Bugungi kunda ularga turli yodgorliklar, ansambllar va mehmondo'stlik joylarini kiradi. Ulardan turli maqsadlarda keng foydalanilib kelinmoqda. Biroq, viloyatda tarixiy-madaniy meros obyektlaridan ham foydalanilib, ularning tarkibida arxeologiya, arxitektura, haykaltaroshlik san'ati yodgorliklari, diqqatga sazovor va muqaddas joylar muhim o'rinni egallab kelmoqda.

Shuningdek, viloyatda dam olish va hordiq chiqarish maskanlari faoliyatining uzluksiz ishlashini ta'minlash maqsadida mehmonxonalardan ham samarali foydalaniladi. Bu borada 2017 yilda viloyat bo'yicha jami 60 ta mehmonxona faoliyat ko'rsatib, ular o'z navbatida 2,3,4 yulduzli va B&V mehmonxona turlariga ajratilgan. Hamda Xiva shahrida joylashgan "Ichon-Qal'a" davlat muzey-qo'riqxonasi dam olish maskani sifatida unga mahalliy va xorijiy sayyohlarning tashrifi ko'payib bormoqda.

Xorazm viloyatida dam olish va hordiq chiqarish maskanlarining rivojlanishida tashkilotlar muhim o'rin tutib, amalga oshiradigan ishlari va vazifalari bilan bir-birlaridan farq qiladi. Mazkur tashkilotlardan eng yirigi Xorazm viloyati madaniyat boshqarmasi bo'lib, u o'z huquqlari, majburiyatlari va vazifalari doirasida dam olish va hordiq chiqarish maskanlarida amalga oshiriladigan ishlarni tashkil etadi va tartibga solib boradi. Keyingi muhim o'rinni egallaydigan

tashkilotlar qatoriga Xorazm viloyati Turizmni rivojlantirish hududiy boshqarmasi va Xorazm viloyati kasaba uyushma tashkilotlar kengashi tashkilotlari kiradi.

Shular bilan birga, mazkur tashkilotlarning vazifalari qatorida bo'lgan tashkilotlar ham mavjud bo'lib, bularga muzeylar, teatrlar, bog'lar, madaniyat va aholi dam olish markazlari, badiiy jamoa va orkestrlar, oliy ta'lim muassasalari, o'rta maxsus ta'lim muassasalari hamda musiqa va san'at maktablari kabilar kiradi. Ular o'z vakolatlari asosida dam olish va hordiq chiqarish markazlari faoliyatini rivojlantirishga katta hissa qo'shadilar.

Avvalo, Xorazm viloyati mintaqasida dam olish va hordiq chiqarish maskanlari faoliyatida ekologik va iqtisodiy omillardan samarali foydalanish lozim bo'lib, ularni samarali amalga oshirish borasida davlat dasturlari qabul qilingan. Xususan, 2010-2020 yillarda nomoddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish, asrash, targ'ib qilish va ulardan foydalanish davlat dasturi va 2017-2021 yillarga mo'ljallangan tarmoq dasturi muhim dasturulamal bo'lib xizmat qiladi.

Shular bilan birga, kelgusi yillarda hamkor tashkilotlar tomonidan Xorazm viloyatida dam olish va madaniy turizmni rivojlantirish maqsadida tarixiy va madaniy obyektlarda bajariladigan kompleks ishlar rejasi ishlab chiqilgan. Bugungi kunda ushbu obyektlarda ta'mirlash ishlari bajarilmoqda. Hamda 2017-2021 yillarga mo'ljallangan yangi turistik yo'nalishlar doirasida kelajakda turizmni rivojlantirish imkoniyatlari mavjud.

Mazkur vazifalarni amalga oshirish uchun Xorazm viloyatida dam olish va hordiq chiqarish maskanlari faoliyatida ekologik-iqtisodiy omillarni hisobga olish va ulardan samarali foydalanish maqsadga muvofiq. Bunda ekologik menejmentni tashkil etish va uni amalga oshirish tamoyillarini alohida hisobga olib borish lozim. Ushbu menejment ekologik menejerlar tomonidan amalga oshirilishi lozim bo'ladi. Bunda uning tarkibidagi bar qator muhim unsurlar ham e'tiborga olinadi hamda ko'pincha bu ekologik turizmni tashkil etish orqaligina samarali bo'lib hisoblanadi.

Ana shulardan kelib chiqib, viloyatda dam olish va hordiq chiqarish maskanlarini ekologik-iqtisodiy rivojlanish omillari va mexanizmlaridan samarali

foydalanish uchun quyidagi yoʻnalishlardagi takliflarni hisobga olish eng samarali boʻlib hisoblanadi:

- turizm obyektlarni zamonaviy standart talablarisha toʻliq moslashtirib borish;
- madaniy meros obyektlarida illyuminatsiya tizimini takomillashtirish;
- hududdagi koʻngilochar tadbirlarni oʻtkazishning reja-grafisini ishlab chiqish va aniq sanalarda oʻtkazilishini yoʻlga qoʻyish;
- dam olish va hordiq chiqarish maskanlarini eng optimal rivojlantiradigan turizm turini rivojlantirishga investitsiyalarni jalb qilish;
- dam olish va hordiq chiqarish maskanlari uchun ekologik-iqtisodiy boshqaruvi konsepsiyasi va strategiyasini shakllantiri;
- dam olish va hordiq chiqarish maskanlarining rivojlanishida viloyat tashkilotlarining rolini yanada kuchaytirish va h.k.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining "Turizm to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekistonning yangi qonunlari. – T.: Adolat, 2000.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1995 yil 2 iyundagi PF-1162-sonli "Buyuk ipak yo'lini qayta tiklashda O'zbekiston Respublikasining ishtirokini avj oldirish va respublikada xalqaro turizmni rivojlantirish borasidagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni. // Xalq so'zi. 1995 yil 3 iyun.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda). Toshkent sh., 2017 yil 7 fevral, PF-4947-son.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 3 fevralda qabul qilingan PF-5326-sonli "O'zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay sharoitlarni yaratish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 17 aprelda qabul qilingan PQ-325-sonli "O'zbekiston Respublikasida 2006-2010 yillarda xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirishni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 4 mayda qabul qilingan PQ-2953 sonli "2017-2021 yillarda Xorazm viloyati va Xiva shahrining turizm salohiyatini kompleks rivojlantirish Dasturi to'g'risida"gi Qarori.
7. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T.: O'zbekiston, 2009. – 48 b.
8. Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. –T.: O'zbekiston, 1992.
9. Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. – T.: O'zbekiston, 1995.

10. O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning Xorazm Ma‘mun akademiyasining 1000 yilligiga bag‘ishlangan nutqi \ Xalq so‘zi. 2006 yil 31 oktyabr. №212. – 3 b.

11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Vazirlar Mahkamasining mamlakatimizni 2016 yildagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlarini har tomonlama tahlil qilish hamda respublika hukumatining 2017 yil uchun iqtisodiy va ijtimoiy dasturining eng muhim yo‘nalishlari va ustuvor vazifalarini belgilashga bag‘ishlangan kengaytirilgan majlisidagi ma‘ruzasi // Xalq so‘zi, 2017 yil 16 yanvar.

12. Greg Richards. New directions for cultural tourism. Tourism market trends. 2003 edition. – p.137.

13. Elisabeth Kastenholtz, Maria Carneiro, Celeste Eusebio. The impact of socio-demographics on tourist behavior – analyzing segments of cultural tourists visiting Coimbra. University of Aviero, 2004.

14. WTO. World overview & tourism topics. Tourism market trends. 2003 edition. – p.25.

15. Дурович А. Организация туризма. Учебное пособие для ВУЗов. – М.: Питер, 2009. - 288 с.

16. Квартальнов В.А. Международный туризм. Учебник. – М.: Финансы и статистика, 2007.

17. Папирян Г.А. Менеджмент в индустрии гостеприимства (отели и рестораны). - М.: ОАО НПО: Изд-во “Экономика”, 2000.

18. Под редакцией Чудновского А.Д. Гостиничный и туристический бизнес. – М.: ТАНДЕМ, 1999.

19. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. J.2. E-M.– 586 b. –T., 1988.

20. Abdullayev M., Abdullayev A. Ma‘naviyat va madaniyat tarixi. - Farg‘ona, 1998.

21. Aliyeva M.T., Norchayev A.N. Turizm menejmenti. O‘quv qo‘llanma. - T.: TDIU, 2007. - 131 b.

22. Ibadullayev N.E. Xorijiy turistlarga turistik xizmatlarni tashkil etish. Ma'ruzalar matni. -Samarqand, SamISI, 2011. - 162 b.
23. Ibodullayev N.E. O'zbekistonning turistik resurslari. Ma'ruzalar matni. – Samarqand: SamISI, 2008. - 15 b.
24. Kamilova F.K., Ro'ziyev S.S. Turizm marketingi. O'quv qo'llanma. – T.: TDIU, 2007.
25. Kamilova F., Nurmuhamedova M. Mehmonxona va restoran xo'jaligi marketingi. – T., 2002.
26. Mamatqulov X.M. Turizm va servisga oid atamalar hamda iboralar izohli lug'ati. – Samarqand, 2010.
27. Matyaqubov U. Xalqaro turizm: tajriba va amaliyot. O'quv-uslubiy majmua. – Urganch, 2017.
28. Mualliflar jamoasi. Xizmat ko'rsatish, servis va turizm sohalarini rivojlantirish: muammolar va ularning yechimlari. Monografiya. - T.: 2008.
29. Mirzayev Q., Musayev B. Mehmonxona xo'jaligi menejmenti. - Samarqand, 2010.
30. Nazarova G. G. va b. Xalqaro turizmدا sarmoya siyosati. - T.:TDIU, 2002.
31. Pardayev M.Q. va boshqalar. Obod turmushni ta'minlashning konseptual yo'nalishlari. Monografiya. –T.: Navro'z, 2013.
32. Pardayev M.Q. va boshqalar. Mehmonxona xo'jaliklarida samaradorlikni oshirish muammolari. Monografiya. –T.: Iqtisodiyot, 2013.
33. Saidov A.F. O'zbekistonda turizm: Istiqbol va muammolar. – T.:Mehnat, 1992.
34. Tuxliyev I.S., Hayitboyev R., Safarov B.Sh., Tursunova G.R. Turizm asoslari. Darslik. –T., 2014.
35. Tuxliyev I.S, Pardayev M.Q. Turizmда xizmat ko'rsatishni rivojlantirish - aholi bandligini oshirish manbasi. Risola. - T., 2008.
36. Tuxliyev I.S., Qudratov G'. X., Pardayev M.Q. Turizmni rejalashtirish. Darslik. –T.: Iqtisod-Moliya, 2010. – 215-229 b.

37. Usmanova Z.I. Turizm marketingi. – Samarqand: SamISI, 2008.
38. Erkayev A. Ma'naviyat – millat nishoni. – T.: Ma'naviyat, 1997.
39. Qoraboyev U. O'zbekiston bayramlari. – T.: O'qituvchi, 1991. – 37-45 b.
40. Hayitboyev R., Sattarov A. Turizm marshrutlarini ishlab chiqish texnologiyasi. Ma'ruzalar matni. – Samarqand, 2009. - 21 b.
41. "Turizm infratuzilmasini rivojlantirishning metodologik, uslubiy asoslarini takomillashtirish" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Samarqand, SamISI, 2014. 23-24 aprel.
42. "Turizmni rivojlantirishda xalqaro ilg'or tajriba va uni O'zbekiston sharoitida qo'llash muammolari" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Samarqand, SamISI, 2011. 7 iyun.
43. Ro'zmetov B., Matyaqubov U., Xudayberganov D. Xorazm viloyatida turizmni rivojlantirish istiqbollari. Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. №1 - T.: DP Patent -Press, 2009. - 138 b.
44. Matyakubov U.R. Ekologik vaziyatni inobatga olib turizm samaradorligini oshirish yo'nalishlari va istiqbollari (Xorazm viloyati misolida). // Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati. – Samarqand, 2011.
45. Ro'ziyev S.S. O'zbekiston madaniy turizm bozori va uning istiqbollari. // Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati. – T.: TDIU, 2009.
46. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. Yillik statistik to'plam. 2010-2016. – Toshkent, 2017.
47. O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi Xorazm viloyati hududiy boshqarmasi ma'lumotlari
48. O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi Xorazm viloyati madaniyat boshqarmasi ma'lumotlari.
49. O'zbekiston Respublikasi Davlat ststistika qo'mitasi Xorazm viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari
50. <http://unctad.org>

51. www.disneyland.com
52. www.lex.uz
53. www.stat.uz
54. www.uzbektourism.uz
55. www.kasaba.uz
56. www.madaniyat.uz
57. www.ziyonet.uz
58. www.ekologiya.uz
59. <http://elib.buxdu.uz>
60. www.xorazm.uz